

Abdullayev Shuxrat DJumaturdiyevich

**TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK -
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2020**

UO'K 37.013.77

88.4

A 15

Abdullayev, Shuxrat Djumaturdiyevich.

Tarbiyasi og'ir o'smirlarni tarbiyalashning pedagogik - psixologik asoslari [Matn] : monografiya / Sh. D. Abdullayev. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 184 b.

KBK 88.4

Monografiyada tarbiyasi "og'ir" o'smirlarni tarbiyalashda oila, maktab, mahalla va muhitning ta'sirida bo'lgan o'smirlarga pedagogik-psixologik yondashuvda muallifning ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasida to'plagan fikr-muloxazalari bayon etilgan. Monografiyadan aholi turar joylari va mahalla pedagogik tashkilotchilari, maktab o'qituvchilari, sport maktablari murabbiylari, pedagogika Oliy va o'rta maxsus bilim yurti pedagogika yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar, voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik profilaktikasi xodimlari, ota-onalar, hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, professor **Ma'murov B.B.**

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya kafedراسи dotsenti,
sotsiologiya fanlari nomzodi **Karimov B. Sh.**

BVXTXKTUMOXM Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalar
kafedراسи katta o'qituvchisi **Gadoyeva M.M.**

Buxoro shaxar A. Jomiy "Bog'dasht" fuqarolar yig'ini raisi
Baqoyev R.

Monografiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnik kengashining navbatdan tashqari 2019 y 28-noyabrdagi yig'ilisida ma'qullanib, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6198-6-9

KIRISH

Mustaqillik mevasi bo'lgan, biz qurayotgan huquqiy, demokratik jamiyatning ma'naviy binosi mustahkam bo'lishi kerak. Bu esa avvalo, yosh avlodni chuqur bilimli, teran fikrli o'z o'tmish durdonalaridan va ma'naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, xalqparvar, fidoiy qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash ishi esa eng murakkab qiyin jarayondir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan katta o'zgarishlarning zaminida ham xuddi shu intilish yotganligi bejiz emas. Farzandlarimizni ajdodlarimiz an'alariga sodiq, sog'lom ruhda tarbiyalashda ta'limning o'rni katta. Bolalar va o'smirlar, tarbiyasi «og'ir» o'smirlar bilan yashash joylarida tashkil etiladigan jismoniy sog'lamlashtirish va tarbiyaviy ishlar umumdavlat ahamiyatiga ega asosiy ob'ektdir.

Bugungu kunda ham yosh avlodni sog'lom jismonan baquvvat, ruhan tetik va aqlan teran qilib tarbiyalash masalalari to'g'risidagi Respublikamiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev olib borayotgan siyosatlarida ham yaqqol ko'rish mumkun.¹ Hozirgi kunga kelib ma'naviy sog'lom bolani tarbiyalashda ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlodni tarbiyalashda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 19-mart "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muxim tashabus" g'oyasi ijrosini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkun. Hozirgi yosh avlod, bobo kalonlarimiz orzu qilgan yigit-qizlar bo'lib yetshayotgani hammamizga ayon, bu borada ko'plab

¹ Ш.М.Мирзиёев. "Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир" мавзусида "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. Халқ сўзи. 2017 йил

qilingan ishlarni misol qilib aytish mumkin. Chiqarilgan qonun-qarorlar, qishloq joylarida zamonaviy inshootlar qurilishi, zamonaviy jixozlar bilan ta'minlanishi, bolalar maydonchalarining bunyod etilishi, xotin-qizlarni sportga jalb etilishi, ularga ko'plab qulayliklar yaratilishi, tibbiy ko'rikni yo'lga quyilishi va boshqa ko'plab ishlar yosh avlodni sog'lom va jismonan baquvvat bo'lib kamol topishi uchu qilinayotgani barchamizga ayon.

Yosh avlodni tarbiyalashning pedagogik asoslari ko'p qirrali va boy tayanchga ega. O'zbek xalqi mustaqillikka erishganidan buyon ilmiy va jamotchilik fikrlari xalq an'analarini va urf odatlarini tiklash va saqlash borasida ko'p ishlarni amalga oshirayapti. «Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoatchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgarlar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorini hisoblanadi.» (I.Karimov)

Bu bilan birga xalq tarbiyasida islom dinining roli bilan xisoblashmoq lozim. U xayot tarzida, odamlar ruxiyatida, ma'naviy axloqiy qadriyatlarining shakllanishida namoyon bo'ladi. Jaxon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan xissa qo'shgan Sharqda yashab o'tgan donishmand va faylasuflarning boy tarixiy madaniy merosi odamlar xayotiga xar tomonlama o'z ta'siri o'tkazadi. Ularning bebaxo tarixiy merosi ajdodlar xayot tarzining va ma'naviy va axloqiy ongining shakllantirdi va xozirgacha o'z ta'sirini yo'kotgani yo'k. Tarbiya muammolarga chukurlashib 'vaqt paradoksini ko'zatish mumkin. Masalan, tarbiyasi «og'ir» bolalar xaqida gap ketganda ularga ko'chaning yomon ta'siri xaqida so'z yuritimiz. Qadimda esa ko'cha «tarbiyalagan. Bola va o'smirlar

ko'chada darov kattalarning nazarotida bo'lgan. Ko'pincha bolaning odob axloqi uning ota-onasining tarbiyasini aks etgan. Shunga qarab ular odamlar orasida xurmatga sazovor yoki xurmatlarini yo'qotganlar.

Sharqning buyuk olim faylasuflari, donishmandlari Abu Nosir Farobi, Tusiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoi, A. Avloniy. M. Bexbudiylar deyarli xech qachon jismoniy etuklikdan akliy etuklikni ajratmaganlar. Ular inson xar tomonlama ruxan va jismonan boy bo'lishi kerak deb xisoblaganlar. Masalan VII- asrda yashab o'tgan Nosir at Din at Tusiy (1430 yilda vafot etgan) shaxsning buyuk sifatlari va tarbiya to'g'risida yozgan: ota-onaga xurmat, sog'liqni saqlash, yoshga qarab kattalarni xurmat qilish. «Nosir etikasi»da ko'p joyni yaxshi tarbiya egallagan. Insonning eng faxriy faoliyati bu inson shaxsining ongi va axloqiga o'tkazgan yaxshi ta'siri deb ko'rsatgan.

Insoniyat sivilizatsiyasi rivoji va tarbiyaviy a'analari Ibn Sino tasdig'i buyicha tarbiya davlat va jamiyat bilan mutloq bogliq. Abu Nosir al Farobiy (880-960) tarbiyada eng muximi- bu insonni yaxshilikka yunaltirish deb xisoblagan.

Abu Rayxon Beruniyning tarbiya borasidagi qarashlari o'rinli. U tarbiya axmoqqarchilikdan, ikkiyuzlamachilikdan, fanatizmdan va yomon odatlardan ozod bo'lishi shart deb xisoblagan. Buyuk shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida toza muxabbat, sadoqat, xaqquylik, birdamlik, birodarlik g'oyalarini kuylagan.

Abdulla Avloniy: « Agar tarbiyasiz, axloqi bo'zuq bo'lsa, har xil bo'zuq ishlarni qiladurg'on, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lub qolur.» Uning bu o'g'itlari bevosita yosh bolalar va o'smirlarga ta'alukli.

Azaldan zukko ajdodlarimiz o'z milliyligini ma'naviy boyligini saqlabgina qolmasdan, ezgulik ilim-ma'rufat, mustaqillik singari ezgu g'oyalar sari intilganlar. Millatimizga xos ana shunday intilish

millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va albatta sog'lom avlodni tarbiyalash orzu-umudlari, g'oyalari doimo dolzarblik kasb etib kelgan. Xalqimiz har qanday sharoitda ham barkomol ma'naviy yetuk farzandlar tarbiyalash vazifasini yoddan chiqarmaganlar.

MUAMMOLI OILADA BOLA TARBIYASI

Ma'lumki, yolg'iz inson oilani tashkil eta olmaydi. Oilaning asosiy tarkibiy qismi ota-ona va farzandlardan iborat bo'ladi. Uning huquqiy maqomi va qonuniy manfaatlari Konstitustiyamizning 63,64,65 va 66- moddalarida belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra oila- shaxs shakllanishining asosiy poydevori. Oiladagi ichki muhit, o'zaro munosabatlar, islomiy qarashlarning asosi bo'lgan Qur'oni karimda ham o'z ifodasini topgan. Er-xotinning pokligi, o'zaro maslakdosh bo'lish, bir- biriga ozor etkazmaslik, halol luqma bilan farzand tarbiyalash, shu bilan birgalikda razillik, qotillik va qabih ishlarga qo'l urmaslikka da'vat etilgan. Jumladan, buyuk allomalarimiz Imom al-Buxoriy, at-Termiziy kabi sahiih ilmining namoyondalari tomonidan to'plangan Hadislarda ham oilaviy tarbiyada ota- ona va farzand majburiyatlari alohida ko'rsatilgan.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi.... Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: " yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasbli- hunarli qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish".

Shaxsning oilada shakllangan odobi, aql-zakovati, iymon-e'tiqodi uning ta'lim maskani yoki mehnat jamoasidagi faoliyati bilan uyg'unlashib, takomillashib, jamiyatda sog'lom munosabatlar hamda ilg'or g'oyalarning qaror topishiga olib keladi. Ayniqsa, nuroniy insonlarning ibratli hayot yo'li, ularning pand-nasihatlari, ijtimoiy-pedagogik va psixologik munosabatlar insonda milliy qadriyatlarimiz hamda an'analarimizning amaliy ahamiyatini tobora ortib va boyib borishiga xizmat qiladi. Insoniy munosabatlar bolaning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishida zamin bo'ladi. Vatan va millat ravnaqiga bo'lgan mas'ullikni shakllantiradi. Milliy tarbiyamizga ko'ra bobo, momo va ota-ona oiladagi ma'naviy muhitni belgilovchilar hisoblanadi. Bunday tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz tarixida muhim o'rin tutgan. Afsuski, ayrim oilalardagi bobo, momo, ota-onalar orasidagi o'zaro munosabatlarning nosog'lomligi, kelishmovchiliklar, bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biz oilalarni bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, olti qismga bo'ldik.

1. Notinch oila- oilaning ijtimoiy va iqtisodiy mavqeidan qat'iy nazar, er-xotinning xarakter xususiyatlarini nisbatan mos kelmasligi, dunyoqarash hamda madaniyatda farq bo'lganligi bois, er o'ziga aqlli, xotin o'zicha aqlli va dono bo'lib, imkon qadar har soniya hamda har qadamda bir-biridan kamchilik axtarishga, uni yuzga solishga harakat qilishadi. Kiyinish, taom tayyorlash, dasturxon atrofida o'tirish yoki mehmon chaqirish, mehmondorchilikka borish bo'ladimi, xullas, er-xotinni bir-biridan kamchilik qidirib, uni bir-birining yuziga solishi oilada notinchlikni keltirib chiqaradi. Agar oila yaxlit, ya'ni er-xotin va farzandlardan iborat bo'lib, xonadonga qaynota va qaynonalar tashrif buyurishsa, ularni kutib olib, kuzatishga qadar va undan so'ng " sen unday qilmading, bunday qilmading, onamga yoki

otamga yaxshi e'tibor qaratmading" degan mash-mashalar kuchayadi. Ikki o'rtada farzandlar ham ruhiy ham ma'naviy aziyat chekishadi.

2. Befarq oila - kam sonda bo'lsada uchrab turadi. Ota-ona asosan o'z yumushlari bilan band bo'lishadi. Ba'zi oilalarda ota ichkilikka berilib, hech joyda ishlamaydi. Oila yuki onaning zimmasida bo'lgani uchun ona farzandlar tarbiyasiga vaqt ajrata olmaydi. Ba'zan turmush o'rtog'iga achchiq qilib, farzandlarni o'z holiga tashlab qo'yadi. Bola tarbiyasi, taqdiriga bo'lgan befarqlik farzandning bo'sh vaqtini ko'proq bo'lishiga, uni o'tkazish o'z ixtiyorida bo'lgani bois, bola yaxshi o'qimaydi. Ko'proq o'yinqaroq bo'lib o'sadi. Uning natijasi tarbiyaviy qarovsizlikka olib kelishi mumkin.

3. Noto'liq oila - bunday oilada farzand ko'proq onalarning qo'lida bo'ladi. Ona bilimli, bola tarbiyasiga mas'uliyatli bo'lsa, bola yaxshi o'qiydigan, intizomli, ayniqsa, darslarni qoldirmay, faol ishtirok etadigan bo'ladi. Onada ozgina befarqlik bo'lsa, tarbiya uchun alohida vaqt ajratilmasa, bola undan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Noto'liq oilada yolg'iz onaning turmush qurishiga bola xalaqit berishi mumkin. Natijada "ona-bola" munosabatida sovuqlik, befarqlik alomatlarini paydo bo'lib, ona o'z farzandini ortiqcha terlashi yoki aksincha unga nisbatan befarq qarashi mumkin. Bunday holat ko'pincha ijobiy natijalarga olib kelmaydi.

4. Qattiqqo'l oila- bunday oilalarda ota yoki ona hukmronlikni qo'lga olib, bolaga nisbatan ortiqcha talablar qo'yiladi. Oilada jahl, zo'ravonlik, jismoniy jazo, bolani qo'rqitish va eng yomoni mehnat bilan jazolash ustuvor bo'ladi. Ota-ona va farzandlar o'rtasida emosional yaqinlik, o'zaro mehr yo'qola boradi.

5. Moddiylikni- boshqa narsalardan ustun qo'yuvchi oila - bunday xonadonlarda ota-ona boylik orttirishni o'zlariga kasb

qilib olib, bola ehtiyojini ham ko'proq moddiy qondirilishiga, bolani moddiy rag'batlantirishga e'tiborni qaratishadi. Natijada bola ko'proq o'zini o'ylaydigan, oq bilak, egoist bo'lib o'sadi. Boladagi erkalik, o'z gapini ota-onasiga o'tkazish, o'jarlik, o'zim bilaman degan xususiyatlarni o'sib borishi katta ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayon kelgusida ota-ona va farzandni rohat-farog'atda bo'lishga emas, tarbiyada kelib chiqqan qusrlar tufayli ikkala tomonni aziyat chekishiga olib keladi.

6. Ijtimoiy xavfli oila- ko'proq otalarni spirtli ichimliklar iste'mol qilishi, surunkali ichuvchiga aylanib qolishi; narkotik iste'mol qiluvchi, oilasi, qo'ni-qo'shnilarga ozor etkazuvchi, oilaga ma'naviy-moddiy zarar keltiruvchilar; fohish ishlar bilan shug'ullanuvchilar; odam savdosiga aloqasi bo'lganlar xavfli oilalar hisoblanadi. Bunday oilalarda mas'uliyat, oilaning muqaddasligini saqlash hissi bo'lmaydi.

Oilaning muammoli bo'lishi albatta farzandlar tarbiyasida o'z aksini topadi. Ijtimoiy – tarbiyaviy jarayon murakkablashib, yangi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Dunyodagi har bir xalqning milliy qadriyatlari, oilaviy an'analari va madaniyatini yorituvchi san'at asarlari bo'ladi. Jumladan o'zbek milliy san'atimizda: "Tohir va Zuhra", "Mahallada duv-duv gap", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Oltin devor", "Suyunchi", "Chimildiq", "Temir xotin" kabi o'lmas asarlar boy milliy merosimiz va oilaviy an'alarimizning namunalari hisoblanadi. Fikrimizning yakuni o'laroq quyidagicha xulosa chiqardik: Jamiyat rivojida o'ziga xos "ijtimoiy xavf" tushunchasi maydonga keldi, ya'ni ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ayrim transmilliy jinoyatlarning ortishi ham kuzatila boshladi. Jumladan giyohvandlik, terorizm, diniy aqidaparastlik, odam savdosi ana shunday jinoyatlardandir. Bunday jinoyatlar oilani chetlab o'tmaydi.

"Oila- uzluksiz ta'lim tizimi-mahalla" hamkorligida "Otonalar universiteti" kurslarini pedagog, psixolog, huquqshunos va

tibbiyot xodimlari ishtirokidagi reja- dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. “Oila pedagogikasi” va “Oila psixologiyasi” fanlarini takomillashtirishga ko‘maklashuvchi ilmiy va ilmiy-metodik adabiyotlarni yaratishga erishish. Bu o‘rinda radio va televideniya oila muammosi va uning echimlariga oid mazmunli, hayotiy ko‘rsatuvlarni ko‘proq namoyish etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

VOYAGA ETMAGANLAR O‘RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRI

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, xususan mahallaning tutgan o‘rni juda muximdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2010 yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida taqdim qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da fuqarolik jamiyatini institutiga alohida to‘xtalib, jumladan shunday degandi: “Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini taminlashga ko‘maklashmoqda”. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqbuzarliklari va jinoyatlarining ayniqsa voyaga etmaganlarni amalga oshirish uchun davlat organlari bilan hamkorligi bu borada samaradorlikning yanada oldini olishda xizmat qiladi. Aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 62 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etgan O‘zbekistonda bolalar huquq va manfaatlarini himoyalash, ularni bugungi o‘ta

murakkab va tahlikali zamonda turli xatarlar, zararli oqimlar ta'siridan himoya qilish, ularda bunday tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish oldimizda turgan eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun davlatdan, jamiyatdan muntazam ravishda tizimli keng qamrovli choratadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvaridagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida bolalarda huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, ularning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga etmaganlar o'rtasida huquq buzarlilarni kamaytirishga ko'maklashish bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan. Mazkur qonunda jinoiy javobgarlikka tortilgan, va jazoni ijro etish muassasalarida turgan, ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ham ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar sifatida e'tirof etilgani mamlakatimizda bola huquqlarini taminlash, ularni ijtimoiy huquqiy qo'llab-quvvatlash va voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquq buzarlilarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga muvofiq, voyaga etmaganlar tomonidan huquqbuzarlilarning yoki boshqa g'ayri ijtimoiy xatti-xarakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishda ichki ishlar idoralarining davlat va jamoat tashkilotlari, boshqarish organlari bilan hamkorligi nazarda tutilgan. Bugungi kunda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tegishli hududda jamoat tartibini taminlash, jumladan, fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etish, o'smirlar va yoshlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olish, voyaga etmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ko'maklashib kelmoqda.

Ilgari sudlangan hamda jinoyatlar sodir etishga moyil boshqa shaxslarga tarbiyaviy ta'sirot o'tkazish uchun fahriylardan, xotinqizlar va yoshlar, madaniyat va din vakillaridan iborat komissiyalar tuzishib, ushbu masalalarda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qilishmoqda. Voyaga etmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etishga moyil bo'lganlarini aniqlashda profilaktik ishlarning samaradorligining taminlash, jazoni ijro etish joylaridan ozod etilgan yoshlarni ishga joylashtirish, milistiya tayanch punktlarining infratuzilmalarni takomillashtirish, yoshlar o'rtasida tashkiliy-tarbiyaviy, ommaviy-sport ishlarini rivojlantirish albatta, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda jinoyat sodir etgan voyaga etmaganlarning ko'pini dars qoldiradigan, foydali mehnat bilan shug'ullanmaydigan yoshlar tashkil etmoqda. Jinoyat sodir etgan voyaga etmaganlar tarkibida listey va kollej o'quvchilar ixtisosi o'sib borayotganligi ularning davomatiga etarlicha e'tibor qaratilmayotganligidan dalolat beradi. Mazkur salbiy holatlarning fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolar yig'inlari faollarining, ayniqsa diniy ma'rifat va manaviy-ahloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchilarning ichki ishlar idoralari bilan hamkorligini yanada kuchaytirish, mahallalar hududidagi maktablar va boshqa o'quv yurtlarini ushbu faolyatga keng jalb etish mahallaning ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli illatlar-jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi holatlarning oldini olishda yaxshi samara beradi.

O'QUVCHILARNI QAYTA TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri so'zsiz yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olish va uning o'sish sur'atini pasaytirish yo'llarini izlashdir. Buning uchun tarbiyasi nochor bo'lgan bolalarni qayta tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirib boriladi. Bundan tashqari tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning oila, bolalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik, mahalla faollari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rilishi nazarda tutiladi. Tarbiya jarayoni bir tizim asosida amalga oshirilsa, o'quvchilarda tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallashda, turmush tajribadariga suyanish lozim.

Xushxulqlilik – kamolot belgisidir. Xushxulqlilik, tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- jahl chiqqanda o'zini bosa olish;
- har bir ishni qilganda “etti o'lchab bir kesish” ga amal qilish;
- sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichga yutish;
- doimo ishonch bilan yashash;
- olg'a intilish;
- andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;
- bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga etkazish;
- tejamkorlik qoidasiga rioya qilish va hokazolar.

Ulamolarning aytishicha, tarbiyalanganlikning o'nta nishonasi bor ekan:

- birinchisi – xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;

- ikkinchisi – o‘z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi – birovdan ayb qidirmaslik;
- to‘rtinchisi - yomonlikni yaxshilikka yo‘yishlik;
- beshinchidan – agar gunohkor uzr so‘rasa, uzrini qabul qilish;
- oltinchisi – muhojirlar hojatini chiqarish;
- ettinchi – el g‘amini yeyish;
- sakkizinchi – aybini tan olish;
- to‘qqizinchi – el bilan ochiq yuzli bo‘lish;
- o‘ninchi – odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish.

Xushxulqlilik, yaxshi muomala, shirin so‘zlik va olijanoblik yaxshi tarbiya ko‘rganlikning asl belgilaridir.

Xushxulq, yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi yaqinlari, yoru do‘stlari bilan uchrashganda, odamlar yonidan o‘tayotganda, biror xonadonga qadam qo‘yganda yuzida tabassum ila, “Assalomu allaykum” deb salom beradi. Salom berish, salomga alik olish tarbiyalanganlikning belgisi hisoblanadi.

Xushxulqlilikning aksi, ya‘ni qo‘pol muomalada, dag‘al gaplari, ma‘naviy qashshoqligi, beso‘naqay xatti-harakatlari yaxshi tarbiya topmaganligi bilan o‘zining qayta tarbiyaga muhtoj ekanligini ko‘rsatadi.

Nochor, betartib tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat, ulardan:

- jahl chiqqanda o‘zini bosa olmaslik, (atrofdagilarni haqoratlash, tuhmat qilish);
- har bir ishni minnat bilan bajarish, o‘ylamasdan bajarish, ishning natijasi bilan qiziqmaslik”;
- sir saqlay olmaslik, mustaqil sog‘lom fikr yuritmaslik, o‘ylamasdan gapirish;
- doimo beg‘am, mas‘uliyatsizlik bilan yashash;
- yalqovlik, beg‘amlik;
- andisha chegarasidan chiqib ketish;

- bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga etkazmay tashlab qo'yish;
- topgan-tutganini pala –partish, tejamadan sarflash va hakoza.

Yuqorida keltirilgan xushxulqlilik, tarbiyalanganlikning asosiy belgilariga zid bo'lgan xulqlarni o'quvchilarda qayta tarbiyalash lozimligidan dalolat beradi. Tarbiya jarayoni o'ta murakkab jarayon hisoblanib, bola balog'at yoshiga etgandan so'ng, o'zini, o'zligini anglash jarayonida u o'z dunyoqarashiga, mustaqil fikriga ega bo'ladi. Agar o'quvchi noto'g'ri fikr, noto'g'ri dunyoqarash, noto'g'ri tarbiyaga ega bo'lsa uni qayta tarbiyalashda pedagog-tarbiyachi tarbiya jarayonidan ham murakkab jarayonga uchraydi. Shuning uchun mulohaza tarzda shuni aytish joizki, bemorni davolashdan kasallikni oldini olish muhimroqdir. Chunki, qayta tarbiyada tarbiyachi-pedagogning shaxsiy namuna sifatida o'zini o'quvchiga namoyon qila olmasa ushbu jarayon yuqori samaraga ega bo'lmaydi.

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORGA XOS FAOLIYAT MOTIVLARI

Aksariyat pedagog va psixolog olimlar hamda amaliyotchi o'qituvchi-murabbiylar o'smirlarga xos agressiv xulq-atvorning kelib chiqishini oila, maktab yoki muhitning ta'siridan deb ko'rsatishadi. Agressiv xulq- atvorni kelib chiqishi o'ziga xos kompleks xususiyatidan iborat bo'lib, bu o'rinda, avvalo, agressiv reakstiyaga xos noadekvat sabab va omillarni aniqlab olish hamda shunga mos tarbiyaviy tadbirlarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, yana shu narsani aniqlab olish joizki, o'smirlarda huquqbuzarlikni profilaktika qilish deganda bu xulq-atvori ma'naviy –ahloqiy hamda huquqiy normalar chegarasidan chiqayotgan, lekin hali jinoiy tus olib ulgurmagan voyaga

etmaganlar shaxsini qayta tarbiyalash asosida axloqan tuzatishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Agressiya yoki vajohat aksariyat holda shaxsni birdaniga buzg'unchilikka intilishi bilan bog'liq reakstiya bo'lib, asosan shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladi. Agressiv holatidagi shaxsda bunyodkorlik yoki tiklash xususiyati emas, buzg'unchilik komponenti ustuvor bo'ladi. Agressivlikni odatda yomonlikka yo'naltirilgan faollik deb ko'rsatish mumkin. Bu holda shaxsning ichki sekrestiya bezlari, jumladan buyrak usti bezidan ajraladigan adrenal gormonining miqdori birdan oshib, qon tomirlarning qisilishiga, yurak urishini me'yoridan ortib ketishiga, ko'zlarni chaqchayib xonasidan chiqib ketgudek bo'lishiga, tishlarni tishlarga qattiq bosilib, mushtlarni tugilishiga olib keladi. **Agressivlikni paydo bo'lishiga asosan xulq-atvorga xos faoliyat motivlari sabab bo'ladi:**

- o'smirning o'z manfaat va ehtiyojiga zid holatni kuzatishi;
- alamzadalik bilan bog'liq holat;
- kundalik tashvishlarning ko'pligi va uni bajarib ulgura olmaslik;
- salbiy sifatlarni ortib ketishi bilan bog'liq holatlar;
- noto'g'ri tarbiya natijasida shaxs ma'naviy- xulqiy darajasining pastligi va hokazo.

Agressivlik holati o'smirda tasodifan yuzaga kelib qolmaydi. Andishasizlik, qaysarlik, o'jarlik, yuzga choparlik, birdaniga lovullab ko'tarilish, baqirish, qattiq hushtak chalish, biron narsani, eshik, pol, devor yoki buyumni qattiq mushtlash hollari shakllanib kelayotgan agressivlikdan dalolat hisoblanadi.

Xulqida agressivlik belgilari bor o'smirlar o'zining tengqurlarini qo'rqitish, ularga do'q-po'pisa qilish, o'z qarashlarini oila, maktab va jamoatchilik manfaatiga teskari qo'yish, jamoaviy bajariladigan topshiriqlardan bo'yin tovlash, boshqalarga o'zini ko'rsatib qo'yishi orqali qoniqish hosil qilish, birovlarining ruhan yoki jismonan qiynalayotganligini ko'rib suyunish kabilar faoliyat

motivlarini belgilaydi. Shu bilan birgalikda bunday o'smirlarda barqaror axloqiy e'tiqod, ma'naviy qarashlar, o'zgaralar dardiga sherik bo'lish, birovlarining og'irini engil qilish his-tuyg'usi cheklangan bo'ladi. Bundaylarda xudbinlik, shaxsiy ehtiyoj va istaklar ko'zga tashlanib turadi. Ammo ehtiroslarga boylik, qo'zg'aluvchanlik, ruhiy beqarorlik ularda maqsadsiz hatti-harakatlarni vujudga keltirib turadi.

O'smirlarda shakllanib kelayotgan agressiv xulq-atvoriga qarshi faoliyat motivlarini o'qituvchi-tarbiyachilar maqsadli yo'naltirish orqali ularni qayta tarbiyalashlari mumkin. Bunday o'quvchilarni bayram tadbirlarida tashkilotchi, tartib - qoidani nazorat etuvchi, to'garak ishlarida o'qituvchiga yordamchi, sport to'garaklarida etakchi, shanbaliklarda rahbar, tartib- qoidani buzuvchilarni tartibga chaqiruvchi, sinf rahbariga maslahatchi etib tayinlash orqali ularning fikrini, dunyoqarashini sog'lomlashtirish mumkin.

O'qituvchi - murabbiy ota-onalar va mahalla faollari bilan hamkorlikda agressiv xulq-atvoriga moyil bolalarni "ko'ngilochar o'yinlar", "havaskorlik" to'garaklari, "san'at" turlari bilan bog'liq amaliy ishlarga jalb etish orqali ularning xarakterini o'rganib borishlari lozim. Ayniqsa, agressivlik belgilari bor bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agressiv xulqqa moyil o'smirlarni kompyuter o'yinlariga jalb etish ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ularni intellektual qobiliyatini o'stirishga qaratilgan turli xil test mashg'ulotlarini echish, kompyuter orqali ta'lim- tarbiyaga oid internet ma'lumotlarini olish kabi ishlarga jalb etish lozim bo'ladi. Agressiv xulq-atvor belgilari sezilgan o'quvchilarni nafosat tarbiyasiga jalb etish, tabiat va jamiyatdagi go'zalliklardan bahramand etish, ayniqsa, gul parvarishi, sayroqi qushlarni asrash, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash,

yaxshilikni g'olib bo'lishiga oid badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqtirish, ulardagi intellektual qobiliyatni susayib ketishining oldini oladi. Bolada to'g'ri fikrlash orqali mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Rasm chizish, chiroyli yozish, sarguzashtlarga boy ijobiy xarakterdagi videofilmlarni ko'rish o'smirni ruhan sog'lomlashuviga olib keladi.

Tibbiy-psixologik ma'lumotlarni ko'rsatishicha har oltinchi o'smirda depressiya holati uchralar ekan. Kembrij (Britaniya) universitetining tadqiqotchi olimlari (Metyu Oues) tomonidan olib borilgan kuzatishlarga ko'ra, tong saharda o'smir so'lagidan olingan namunada stress gormoni – kortizol miqdorini tahlil etish bunga misol bo'la oladi. Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, gormon miqdori me'yorida bo'lgan o'smirlarda depressiya holati deyarli kuzatilmagan. Gormon miqdori baland o'smirlarda yil davomida tushkunlik holati kuzatilgan. Tadqiqot natijalari o'laroq olimlar shunday xulosaga kelishdiki, 17 foiz o'smirlar hech qanday sababsiz doimiy ravishda depressiya holatiga tushishar ekan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'smirlarga xos xulq- atvor motivlarini erta aniqlab, uni ijobiy tomon sari yo'naltirish, o'smirlarga xos agressivlik va uning tarkibi hisoblangan turli xil depressiya holatlarning oldini olish mumkin.

O'SMIRLAR O'RTASIDAGI NIZOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA HAMKORLIKNING O'RNI

Har bir shaxs o'z shakllanishda rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tadi, bu xislat nafaqat tashqi olamga emas, balki o'z individualiga bog'liq bo'ladi. So'nggi vaqtlarda bolalar va o'smirlar orasida negativ-salbiy tendentsiyalarning kuchayishi o'tkir ijtimoiy muammo hisoblanadi. Jinoyatchilikning o'sishi nizolarning kelib chiqishi, shu jumladan, guruh bo'lib jinoyatchilikka qo'l urish, huquqbuzarlar kontingentining yosh

bo`lib borishi, giyohvandlik va toksin moddalarni iste`mol qilish, o`z-o`zini o`ldirishga urinishlar va o`ldirishlar shular sirasiga kiradi.

O`smirlik davri-jadal va tekis bo`lmagan jismoniy rivojlanish, jinsiy yetilish, shaxsiyatning o`zida, atrof-muhitni o`rab turgan kishilar bilan o`zaro munosabatda jiddiy o`zgarishlar bo`ladigan davrdir. Ijtimoiy muhitning asosi bo`lgan oila, o`smir xulqi shakllanishiga katta ta`sir o`tkazadi. An`anaviy tarzda tarbiya asosiy instituti oila hisoblanadi. O`smirning oilada olgan tarbiyasi keyin bir umrga saqlanib qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatida muhimligi shundaki, o`smir unda hayotining ko`p qismini o`tkazadi va shaxsga ta`sir etuvchi muddati bo`yicha birorta ham tarbiya institutlari oilaga teng kela olmaydi.

O`smirlik chog`ida yuz beradigan fikrlash jarayonlarining murakkablashuvi, mavhumlashtirish, yaxlit holga keltirish va darajalash qobiliyatlarining shakllanishi, atrofdagi voqelikni tanqidiy anglash, ijtimoiy talablari, kechagi bolaning o`zining yangi ijtimoiy rolini qabul qilishi bilan o`zaro ta`sir etib, uning ma`naviy-axloqiy rivojlanishini rag`batlantiradi.

O`zbeklarning aksariyati o`zining shaxsiy faravonligi to`g`risida emas, balki oilasining, qarindosh urug`lari va yaqin odamlarining, qo`shnilarining omon-esonligi to`g`risida g`amxo`rlik qilishni birinchi o`ringa qo`yadi. Bu esa oliy darajada ma`naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir¹.

Huquqiy davlat qurishga intilayotgan O`zbekistonning asosiy konstitutsiyaviy talablaridan biri huquqiy-tartibotni mustahkamlash, jinoyatlarni oldini olish va ularni tugatish hisoblanadi. Keyingi paytlarda o`smirlar o`rtasida giyohvandlik va nashavandlik, o`z joniga qasd qilish, yoshlikdan ichkilikbozlikka

¹ I.A.Karimov. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: “O`zbekiston” nashriyoti, 1998, 21-bet.

ruju qo'yishdek salbiy holatlarning o'sishi keskin ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda.

O'smirlik davrini qiyin o'tish davri deb bekorga aytilmaydi. Ana shu o'smirlik yoshida turli huquqbuzarliklar vujudga keladi. Bu davrda har bir shaxs bolalikdan o'smirlikka qadam qo'yadi, kuchli jismoniy hamda atrofdagilar bilan o'zaro munosabatda jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunday qaltis davrni muvaffaqiyatli o'tishi faqat shaxsning o'ziga emas, balki uning ota-onasiga, atrofdagi katta yoshdagilarga ham bog'liqdir.

Shaxsning shakllanishida o'smirlik yoshi, o'zining ijtimoiy va biologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi. Ulkan hayot yo'lining mana shu muhim bir qismida, katta yoshdagi o'smir o'z oldiga kim bo'lish, nima, qanday va nima uchun erishish kabi masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Masalalarni qanday qo'yishni va jamiyat bilan uyg'unligi shaxsning kelajakdagi keng istiqboliga bog'langan holda, uning faolligi, barqarorligi, ma'naviy pokligi, maqsadga yo'nalganligi, betakrorligi, ijtimoiy va psixologik jihatdan mazmundorligi jamiyat uchun ham qimmatlidir. O'smirlik davrining qiyin davr bo'lishi ko'p jihatdan o'smir ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olmagan holda nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish sababli namoyon bo'lishi mumkin.

Shu sababli o'smirlik yosh davrida mavjud nizoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'smirlik inqirozlarining yengil bartaraf etilishiga va pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu davrda nizoli vaziyatlarning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'ladi. Jumladan, o'smirning o'z tengdoshlari orasida qulay mavqega erisha olmasligi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarning maqsadga muvofiq emasligi, oilaviy munosabatlardagi tushunmovchiliklar va hokazo.

O'smirlarning o'z tengdoshlariga intilishi o'zgacha bo'ladi. O'z tengdoshlari orasida o'zining sifatlarini boshqalar sifati bilan solishtirish, tenglik sharoitida u kimgadir boshqacha ko'rinish

xususiyatlarini o`smirlar guruhida yaqqol kuzatish mumkin. Tengdoshlari orasidagi taniqli bo`lish va ularning hurmatiga sazovor bo`lish bu yoshdagi o`quvchilarning xususiyatlaridan yana biridir. O`smir o`zining ichki "qarash" lariga suyangan holda guruhda qo`llab-quvvatlovchi tayanch qidiradi. Tengdoshlari unga qanday baho berishida ular o`rtasidagi munosabatlar doirasida xilma-xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Bunday vaziyatlar o`smirda o`z mavqieyini tiklash uchun ijobiy harakatlarni tanlash yoki aksincha ko`rinishda bo`lishi mumkin. Shu kabilarning barchasi bevosita jamiyatning psixologik iqlimiga ta'sir ko`rsatadi.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim jarayonida o`smirlar o`rtasidagi shaxslararo nizolar, ularning xususiyatlari va nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarning tabiati turli-tuman ekanligining guvohi bo`ldik. Maktab psixologi faoliyatida o`smirlik davriga xos shaxslararo nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va uni negativ asoratlardan saqlashning profilaktikasini faqat psixokorreksion usullarning muayyan shakllarini ya'ni, psixokorreksion ta'sir o`tkazish yo`li bilan bartaraf etish mumkin.

O`smirlik davriga xos nizolarning psixologik mohiyati, taxlili ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyatini beradi:

- O`smirlar o`rtasidagi nizolar, ularga xos sub'ektlilikning turli shakllarini faollashtirib, shaxslilik xususiyatlarining rivojlantirishga sharoit yaratishi;
- O`smirlar o`rtasidagi shaxslararo nizoli vaziyatlarda hamkorlikdagi munosabatlar ko`rinishdagi alternativ (mumkin bo`lgan qarama-qarshi ikki xoldan birini tanlab olish zaruriyati) larni anglash, sharoitini yaratish maktab psixologi faoliyatining predmeti bo`lishi;
- Maktab psixologi va o`smirning o`zaro hamkorlikdagi faoliyati o`smirlarning shaxslararo nizolarni bartaraf eta

olishlarida o'z - o'zlarini rivojlantirishlari uchun muhim imkoniyat bo'lishi mumkin.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki maktabda psixologik xizmatni rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlarini kengaytiradi va maktab psixologlari faoliyati va tarbiyaviy ishlarining dasturini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar, inovatsion dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Mavzudan kelib chiqib o'smir yoshga kiruvchi bolalarni psixologik xususiyatlarini organgan holda mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektorlari tomonidan doimiy nazoratda bo'lishlarini va ularning ish jarayonlari bilan tanishib chiqdik. O'smirlik davriga 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalar ya'ni 5-sinfdan 9-sinfgacha va KXK, ALlarning I-bosqich talabalari kiradi. O'smirlar o'rtasida nizolarning kelib chiqish sabablarini, nizolarni hal etishda va ularning kelib chiqishini oldini olishda, nafaqat ota-ona, maktab jamoasi balki mahallalarda faoliyat yurituvchi pedagog tarbiyachi va inspektorlar ish olib borishadi.

O'smir yoshlar va voyaga yetmaganlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni ommaviy sportga jalb etish, huquqbuzarlikka moyil va ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar hamda farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar o'rtasida tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni olib borish maqsadida fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari tarkibiga pedagog-tarbiyachi lavozimining kiritilishi yoshlarga qaratilgan barcha ishlar Davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Tarbiyalanib kelayotgan o'smirlarning bilish jarayonlari psixologik xususiyatlari ham rivojlangan bo'lib, ular ruhiy holatida buzilishlar uchraydi. Do'stlar o'rtasidagi arziyas kelishmovchilik, ota-ona va farzand o'rtasidagi tushunmovchilik, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi muammoli vaziyatlar

nizolarning kelib chiqishiga va ularni yoki to`g`ri hal etilishi, yoki chuqurlashib ildiz olib ketishiga sabab bo`lishi mumkin. Maktab ota-ona, mahalla hamkorligi mustahkam bo`lsa bunday nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi kamayadi va uning yechimini topish oson kechadi.

Shularni hisobga olgan holda mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari tuzilgan bo`lib, ularning tarkibiga mahalla nozirlari, maktab rahbarlari, mahalla fuqarolar yig`ini raisi, tajribali o`qituvchi, sport murabbiylari va mahalla faollari a`zo etib kiritilgan. Mavzudan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maktabning yuqori sinf o`quvchilari, voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari bilan hamkorlikda izlanish olib bordik. Maktabda o`quvchilar o`rtasida ijtimoiy fikr so`rovnomasi o`tkazildi

So`rovnoma natijalariga ko`ra osmirlarning ijtimoiylashuviga oila, maktab, tengdoshlar ta`siri 62 nafar o`quvchini tashkil etadi. OAV ta`siri 66 nafar o`quvchini tashkil etadi. O`smirlarni o`z-o`ziga baho berishi 70 nafar o`quvchi, va suitsid holga tushishi esa afsuski-22 nafar o`quvchini tashkil etdi. Xulosa qilib aytganda ijtimoiy fikr so`rovnomasi o`smirlar o`rtasida ziddiyatlarni paydo bo`lishi ularni hal etish bo`yicha o`smirlarni mavjud imkoniyatlarni, bilimlarini aniqlashga yordam berdi.

O`smirlar o`rtasida nizolarni paydo bo`lishi yuzasidan mahalla inspektorlariga murojaat etdik. Nizolarning oldini olish y`ani profilaktika ishlari bo`yicha joylarda yoshlarning bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazishni tashkil etish, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning sonini kamaytirish borasida tushuntirish ishlari, suhbat munozaralar o`tkazilganini ko`rib chiqib, hujjatlar, bayonnomalar bilan tanishdik. IIB voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining

xizmat vazifalari va burchlari bilan ham tanishib chiqdik.Unga ko'ra,

-Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o'z ish faoliyatida voyaga yetmaganlar qarovsizligi, ular orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish ishlarini amalga oshirib, ichki ishlar idoralari profilaktik xisobda turgan voyaga yetmaganlar va farzandlari tarbiyasi bilan shugullanmayotgan, o'zlarining jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ota-onalar bilan profilaktik tadbirlarni, mahalliy hokimiyat, maxalla fuqarolar yig'ini, xalq ta'limi bo'limi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, mahalla diniy ma'rifiy maslahatchilar va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni tashkillashtirish;

-Voyaga yetmagan yoshlarni Vatanga sadoqat, kelajakka ishonch, milliy qadriyatlarimiz va o'zligimizni anglash, ularda vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy mafkura, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, oila, mahalla, maktab, xududni muxofaza kiluvchi idoralar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy xarakati, xokimlik xuzuridagi voyaga yetmaganlar ishi komissiyasi, xalk ta'limi, Oliy va urta maxsus ta'lim, mexnat va axolini ijtimoiy muhofaza qilish, Sog'likni saqlash vazirliklari, Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi va keng jamoatchilik hamkorligida ishlarni tashkil qilish;

-Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida ishlab chiqilgan ish rejalari asosida ish yuritish kabi ma'suliyatli vazifalar belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda o'smirlar o'rtasida nizolarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etish fikrimizcha ota-ona, maktab, mahalla hamkorligiga bog'liq. Hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilsa, mahallalarda inspektorlar va maktab rahbariyati tomonidan

profilaktik tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar ko`proq tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

VOYAGA ETMAGANLAR NAZORATSIZLIGI VA QAROVSIZLIGINI OLDINI OLISHDA UZLUKSIZ TA'LIM MUASSASALARI, OILA HAMDA MAHALLANING O'RNI

O'tmishdagi istalgan bir tuzum tahlil etilib o'rganiladigan bo'lsa o'sha tuzum yoki davrga xos tarbiya amal qilganligini bilish qiyin emas. Shuningdek, har bir davrning o'z allomalari etuk insonlari va qahramonlari bo'lganligi kabi, davr bolalari ham bo'lgan. Tarixan davr bolalari kamdan kam holda alohida pedagogik tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bugungi globallashuv, keskin rivojlanayotgan axborot makoni oqimi dengiz to'lqini kabi har bir shaxs ongi shuuriga kirib borayotgan bir sharoitda yangicha fikrlashni, ro'y berayotgan voqea- hodisalarga befarq qaramasdan yosh xususiyatidan kelib chiqib, o'z munosabatini bildirishni xohlaydi. Bu tabiiy jarayon bo'lib, tarbiya va ta'lim ishida zamonaviy bolalar dunyoqarashini hisobga olishni taqozo etadi.

Bolalar uchun yaratilgan tegishli shart-sharoitlar mazmunida axborot oqimi filtirlanib, milliy qadriyatlarimiz va milliy tarbiyamiz talablariga moslashtirgan holda, o'quvchiga etkazib berilishi lozim. Sog'lom bola tabiatan har narsaga qiziquvchan, harakatchan va bir muncha sho'x bo'ladi. Undagi layoqatni, ya'ni yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni to'g'ri safarbar etilishi, qobilyat kurtaklarini aniqlash imkonini beradi. qandaydir yoki nimagadir qiziqishini aloxida ko'zga tashlanishi, uni kun sayin ortib borishi, bolani muayyan faoliyat turiga olib kiradi. O'z o'rnida shuni aytish lozimki, bolani bilimdon, intiluvchan va etuk bo'lib shakllanishi, asosan ota-ona bilan o'qituvchining o'zaro hamkorligiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning qiziqishlari aloxida kuzatilmasa, u nima ish bilan bandligi hech kimni qiziqitirmasa, ya'ni bola o'z holiga tashlab qo'yilsa, undagi qiziqishlar maqsadli yo'naltirishdan chetda qoladi. Bola bilmagan, ya'ni aqli etmagan holda nima bilandir ovunish istagida nojo'ya harakatlar qilib qo'yishi, shunga yarasha kattalar tomonidan tanbex eshitishi yoki jazolanishi mumkin. Ayniqsa, nosog'lom oilalarning vujudga kelishi oqibatida voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilayotgan voqealar juda achinarlidir.

Ma'lumki, oilada nizoli munosabatlarning vujudga kelgishi muammolar echimi bilan bog'liq bo'lib, asosan er-xotinning kelishmovchiliklari tufayli ajralish bola qalbini jarohatlovchi omil bo'ladi. " Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyo qarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori osha sharoitida qaror topishi tabiiydir".

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi tizimida o'quvchilarga ma'naviyat asoslari, pedagogika va xuquqiy madaniyatni shakllantirishga oid berilayotgan bilim va ko'nikmalar, turli xil to'garak ishlari, tanlovlar hamda seminar-treninglar, bolalarda nafaqat ma'naviy-axloqiy va xuquqiy dunyoqarash, shu bilan birga tanlagan kasbi yo'nalishiga oid ma'daniyat egasi bo'lish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ammo birgina oila va tarbiya muassasasi o'rtasidagi izchil va maqsadli aloqani talablar darajasida ekanligi bolaning ongi shuuriga o'z t'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Baxt shahridagi maxsus kollej o'quvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlarimiz, ularning oilalari bilan bo'lgan uchrashuv taassurotlari shuni ko'rsatadiki, bolalarni maktabdan va kollejdin

bezib, pedagogik qarovsiz holiga tushib qolishiga, ota-onalar sababchi bo'lishgan. Suhbat jarayonida shu narsalar ma'lum bo'ldiki, kollejdagi bolalarning 70 foizdan ortig'i ota-onasini bir-biri bilan kelisha olmaganligi, oilada nosog'lom muhitning hukumronlik qilishligi, onasiga qo'shib farzandlarini ham tahqirlanishi, ichkilik otalarni muqim ish faoliyat yo'qligi bois ko'proq bekorchi bo'lib qolishi, oiladagi etishmivchiliklar, bolaning ruxiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Natijada bolalar o'z uylaridan bezib, qarovsiz holiga tushib qolishgan. Ota-onaning ajralib ketishi noto'liq oilani vujudga keltirgan.

Oilada mehr topmay qarovsiz qolgan bola ozgina bo'lsada o'ziga bo'lgan e'tiborni atrof- muhitdan qidira boshlaydi. Aynan mana shu sharoitda aksariyat bolalar salbiy muhit ta'siriga tushib qolishadi. Bola dastlab chekishga, so'ng ichishga jalb etiladi. Shu ikki narsaga bo'lgan moyillikning shakllanishi daslab bolani o'g'rilik qilishga va boshqa shu kabi jinoyatlar sodir etishda turtki bo'ladi.

Suhbat va bolani kollej sharoitida yillab kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bolaning otasi yoki onasi sudlangan bo'lsa, ota-onasi qanday inson bo'lishidan qat'iy nazar, bolada huquq- tartibot organlari hodimlariga nisbatan nafrat tuyg'usi shakllangan. Bolada bir tomondan qo'rquv va yana bir tomondan xuquq- tartibot organlari hodimlariga nisbatan ehtiyot bo'lishi, imkon qadar ularning nazari yoki nazoratidan chetda yurish bola uchun ogohlantiruvchi refleksga aylanib qolgan.

Suhbatga jalb etilgan bolalarning "delolari" o'rganilib chiqilganda, bir narsa alohida e'tiborni o'ziga tortadi. Bu ham bo'lsa maktab yoki kollej ma'muriyatining bolaga bergan tavsifnomasi bo'lib, birinchidan tavsifnoma shu darajada sayoz, yuzaki, umumiy gaplar (dars qoldirdi, oylab maktabga yoki kollejga o'qishga kelmadi, gapga kirmadi, ota-onasi to'g'ri tarbiya bermagan, otasi yoki onasi yo'q, qarindosh-urug'i qaramaydi va

xokazo) bilan cheklanilgan va hatto savodsizlarcha yozilgan. Tavsifnomada bolaning pedagogik va psixologik xususiyatlari deyarli ochilmagan. Bolaning qiziqishlari, jamoadagi o'rne, qobiliyati, qanday motivlar asosida bola ruhiyatida o'zgarishlarning sodir bo'lganligi, uning dimakasi, bola qayta tarbiyaga jalb etilganligi yoki etilmaganligi, bolaga bo'lgan individual yondashuvlar haqida lom-lim deyilmagan. Loaqal bolani qo'shimcha darslarga yoki qiziqishi hamda qobiliyatiga qarab biron to'garakka jalb etilganligi (yoki etilmaganligi), sport-sog'lomlashtirish ishlarida bolaning o'rne kabi tarbiyaviy yondashuvlar yo'q. Bir gap bilan aytganda bola taqdiriga panja ortidan qaragan.

Maktab yoki kollej ma'muriyati bolani gapga quloq solmasligi, bir necha bor tushuntirish xatini olganliklariga qaramay, tarbiya muassasasiga o'qishga kelmaganligi, quloqsiz, bezori darajasida ekanligi pesh qilinib, maxsus kollejga yuborish tavsiya etilgan. Maktab yoki kollejda alohida amaliyotchi psixolog shtatida mutaxassis ishlab kelmoqda. Uning bola to'g'risidagi psixologik kuzatuvlari, bolaga pedagogik-psixologik ta'siri, uning natijalari kabi ilmiy, o'quv-metodik yondashuvlar chetda qolib ketgan. Bola o'quvchi sifatida nima uchun fanlarni sust o'zlashtira boshladi? Bu haqida fan o'qituvchilari qanday fikrda? Boshlang'ich sinflarda u qanday o'qigan? Intizomi, o'zlashtirish ko'rsatgichi qanday bo'lgan? Endi balog'at yoshiga o'tganidan so'ng bola faoliyatida mutaxassislari o'ziga qaratadigan qanday o'zgarishlar (ijobiy yoki salbiy) yuz bermoqda? Kabi savollar deyarli ochiq qolib ketgan.

Aksariyat kollej xodimlari (rahbarlar va o'qituvchilar) maktabni ayblashadi, maktab esa ota-onani gunohkor deb bilishadi. O'rtada esa bola sarson, uning kelajagi, taqdiri nima bo'ladi? degan savol ijobiy echimini topmasa, tarbiyaviy qarovsizlikka yo'l ochiladi. Tadqiqotga oid olib borgan

kuzatuvlarimiz quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishimizga asos bo'ldi:

1) umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasi ishlab chiqilishi va ushbu reja barcha sinf raxbarlari, maktab amaliyotchi psixologi hamda o'qituvchilarning bir o'quv yiliga mo'ljallangan rejasiga asos bo'lib xizmat qilmog'i;

2) istiqbolli rejada bola tarbiyasida oila, mahalla va huquq-tartibot organlari xodimlari, shifokorlar hamda tegishli jamoat tashkilotlari, jumladan akademik listey va kasb-hunar kollejlari hamda hududiy oliy o'quv yurti bilan o'zaro hamkorlik aniq ko'rsatilmog'i;

3) istiqbolli reja asosida tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik shartnomasi imzolanmog'i;

4) tarbiya muassasasi rahbariyati vaqti-vaqti bilan o'quv-tarbiyaviy jarayonning ijrosini, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni pedagogik kengashlarda muhokama etib, uni isloh qilish chora-tadbirlarini belgilamog'i;

5) tarbiya muassasalarida (umumiy o'rta ta'lim maktabi; o'rta maxsus, kasb-hunar kolleji) bolaning bo'sh vaqti va uni oqilona taqsimlash (to'garak ishlari, sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, ijtimoiy foydali mehnat kabi) masalasi yillik reja mazmunida aks etmog'i;

6) o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi masalasi bilan amaliyotchi psixolog tegishli ishlarni olib borishi, ayniqsa, bola tarbiyasida "oila-maktab-mahalla" hamkorligini tizimli ishlashida o'zini mas'ul deb bilmog'i;

7) voyaga etmaganlar orasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy illatlarning oldini olishda oila, maktab, mahalla va huquq-tartibot organlari o'z majburiyatlarini to'laqonli anglagan holda hamkorlikda faoliyat olib borishlari talab etiladi.

YOSHLAR TARBIYASIDA OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINI TA'MINLASHNING AHAMIYATI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab yoshlarga bo'lgan e'tibor davlatimiz tomonidan katta bo'layotganligini qabul qilingan qarorlar, qonunlar, farmonlar, davlat dasturlaridan va me'yoriy hujjatlarning amaliyotda, hayotda aks etayotganligidan ko'rishimiz mumkin.

Bunga "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 7 oktyabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2013 yil 22 apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi 350-sonli qonuni, "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli qarori kabi xujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Birgina "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi - Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari deb nomlangan bo'lib, uning "Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish" deyilgan bandida ham alohida uqtirib o'tilgan.

"Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasa" larning hamkorligida bolalarning ta'lim-tarbiyasida uchta ijtimoiy tuzilmaning roli belgilab berilgan. «Halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg'usi avvalo oilada paydo bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi",- deb fikr bildirgan prezidentimiz I.Karimov

Bola tarbiyasidagi dastlabki tuzilma oilaning vazifalari va majburiyatlari quyidagilardan iborat: oilada sog'lom vaziyatni yaratish; bola uchun har tomonlama o'rnak bo'lish, bolada vatanparvarlik ruhini, Vatanga va oilasiga muhabbat tuyg'usini, o'zaro g'amxo'rlikni shakllantirish va tarbiyalash; huquqiy tarbiyani shakllantirish, bolani barcha oila a'zolarining huquq va majburiyatlarini bilish va ularga amal qilishga o'rgatish; bolani dunyoviy bilimlarga qiziqtirish, uning har tomonlama ma'naviy-axloqiy rivojlanishini, ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash; bolaga bozor munosabatlari sharoitlariga mos keluvchi kasbni tanlashda yordam ko'rsatish va uni bozor iqtisodiyotining asoslariga o'rgatish; bolaning har tomonlama ma'naviy va sog'lom jismoniy rivojlanishi uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish; bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish va unda mustaqillik hamda milliy qadryatlarga sodiqlik g'oyalarini shakllantirish; bolaning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, shuningdek, uni qo'shimcha ta'lim bilan ta'minlash; bolaning iqtidorini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish; bolalarda maktab, oila, mahalla, davlat va jamiyat oldida mas'uliyat hissini tarbiyalash; bolaning ruhiy va ma'naviy jihatlarini, unda tejamkorlik va mehnatsevarlik ruhini tarbiyalash.

Qiz bolalarni tarbiyalash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashiga yordam berish, erta nikohlarning, oilaviy nizolarning oldini olish, urf-odat va marosimlarni ixcham va tartibli o'tkazish kabi vazifalarni hal qilishda biz ko'pni ko'rgan, tajribali mahalla faollariga tayanamiz.

Shaxsan men ulardan ko'p narsa kutaman. Nega deganda, mening eng katta maslahatchim, tayanchim va suyanchim – mahalla, desam, hech qanday xato bo'lmaydi. Islom Karimov

Mahalla zimmasiga esa quyidagi vazifalar yuklatilgan: nosog'lom muhitga ega bo'lgan oilalarga jamoatchilikning diqqatini tortish va bunday oilalarga nisbatan jamoatchilik

tomonidan ijtimoiy choralar ko'rish; ota-onalarga farzandlarini har tomonlama kamol toptirish, milliy vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, odoblilik fazilatlarini rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish; mahallada bolalar va yoshlarning milliy davlatchilik va milliy g'oya masalalarida mas'uliyatini oshirish yuzasidan tadbirlarni tashkil etish; ijtimoiy tashkilotlarni bolalar va yoshlarni tarbiyalash ishiga hamda ularning muammolarini hal etishga jalb qilish; mahalla hududida joylashgan tashkilotlar va korxonalarining resurslarini ta'lim muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash uchun jalb qilish; mahalla hududida ta'lim muassasalari bilan turli tanlovlar, sport musobaqalari, bayram tadbirlari tashkil etish; iqtidorli o'quvchilarni ma'naviy va moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash; mahalla hududida ta'lim muassasalari bilan turli tanlovlar, sport musobaqalari, bayram tadbirlari tashkil etish; iqtidorli o'quvchilarni ma'naviy va moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash; mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ilg'or, tashabbuskor o'qituvchilarni va tarbiyachilarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; mahalla hududida yashaydigan hunarmandlar, ustalar, san'at arboblari, ziyoli va boshqa tajribali insonlarni o'quvchi-yoshlar uchun turli to'garaklar hamda kasbiy o'qishlar tashkil etishga jalb etish.

Maktab, kasb-hunar kollejlari hamda akademik listeylarning oldiga bevosita nizom bilan belgilangan o'z vazifalaridan tashqari, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash uchun oila va mahalla bilan o'zaro faol munosabatga kirishish vazifasi ham qo'yilgan:

- yosh oilalar bilan ishlash, ular uchun tarbiya, huquq, ma'naviyat va ma'rifat asoslariga o'rgatish bo'yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirish;
- tarbiyasi og'ir yoki boquvchisini yo'qotgan bolalarning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchilar bilan ishlash, bunday oilalarga yordam ko'rsatish;

- farzand tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarning ilg'or tajribalarini ommalashtirish;
- o'qish yoki ishlashni hohlamaydigan yoshlar, yo'lidan adashgan o'smirlarni aniqlash va ro'yxatga olish, doimiy ravishda ularning nazoratini yuritish hamda qonun doirasida tegishli idoralar bilan birgalikda bunday bolalarga nisbatan tegishli choralarni ko'rish;
- ta'lim jarayoni sub'ektlari: ijtimoiy jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, o'z-o'zini boshqarish idoralari va boshqalarning o'z majburiyatlarini bajarishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish;
- mahalla bilan hamkorlikda maktabda turli tadbirlar tashkil etish;
- maktab ba'zasida ota-onalarni pedagogika, psixologiya, huquq, madaniyat asoslariga o'rgatish uchun "Ota-onalar universitetlarini" yaratish.

Maktab ta'limi jarayoniga ota-onalarni jalb qilishning kuchli tomonlari hamda imkoniyatlari mavjud. Bular: "ochiq eshiklar" kunlarini o'tkazish; ota-onalarning maktab ta'limiga qo'ygan talablari tahlili; ota-onalar orasida maktab ta'limi sifati bo'yicha muntazam so'rov o'tkazish; muassasaning me'yoriy hujjatlari va kerakli aktlar bilan tanishtirish; ota-onalar ishtirokida tadbirlar o'tkazish; ota-onalar va bolalar hamkorligida bajariladigan uy vazifalari; "Oilada bolalar tarbiyasi" mavzusida davra suhbatlari, seminarlar uyushtirish; ota-onalar uchun yuqori darajadagi seminarlar, mashg'ulotlar tashkil etish; "Ma'lumot qutilari" tashkil etish (aniqlangan muammolarning statistik hisobi, ota-onalar murojatlari bo'yicha muammoli vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida mutaxassislarni jalb qilish).

O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish tamoyillari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat: o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida samimiy

hurmat muhitini yaratish; hamkorlikni boshlashda oila va o'qituvchi (maktab, kollej) o'rtasidagi muloqot usullarini kelishib olish; o'zaro kelishilgan doimiy uchrashuvlarni tashkil qilish orqali bolaning oilasi bilan yaqin aloqa o'rnatish; oilalarning madaniy va ijtimoiy turli-tumanligini hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash; oila va bolaning kuchli taraflarini e'tiborga olish; ota-onalar tomonidan bola va oila haqida berilayotgan ma'lumotlarning aniqligi va maxfiylikni ta'minlash.

Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi chin ma'noda faoliyat yuritsa, shu hududda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi ta'minlanadi. O'smir-yoshlarda qonunbuzarlik, huquq buzilishi, turli salbiy oqibatlar yuzaga kelmaydi. Hamkorlikni ta'minlashda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan murabbiy-pedagoglarning o'rni o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim muassasidagi ma'naiy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, amaliyotni psixolog hamda sinf rahbarlariga ko'p narsa bog'liq.

Oila-ota-onalar bilan ta'lim muassasalarining aloqasini bog'lovchi mustahkam xalqa bu sinf rahbarlaridir. O'quvchilar uchun sinf rahbar alohida qadrga – hurmatga ega. Qachonki u hurmatga loyiq faoliyat ko'rsatgan olib borgan bo'lsa. Buning uchun sinf rahbari har haftada o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlarga hamda har chorakda o'tkaziladigan ota-onalar majlisiga puxta tayyorgarlik ko'rishi, bu mashg'ulot va tadbirlarni rasmiyatchilik nuqtai nazaridan emas, balki ta'lim – tarbiyaning samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'tkazmog'i lozim. Shunda bu sinfda tarbiyasi og'ir bolalar, o'zlashtirishi past o'quvchilar bo'lmaydi.

O'smir-yoshlarning ta'lim-tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishlari uchun sinf rahbarlari tomonidan quyidagi vazifalar ado etilishi zurrur: haftalik soatlarining to'liq o'tilishini ta'minlash; o'quvchilarning kundalik daftarlarini har haftada tahlil asosida nazorat qilishi; o'quvchilarning kunlik rejimini tuzishda va ota-

onalar tomonidan nazorat qilishda ko'maklashish; sinflardagi o'quvchilarning yoshiga ko'ra badiiy asarlar o'qishlarini yo'lga qo'yish; mobil telefonlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

TARBIYA, O'Z-O'ZINI TARBIYALASH VA QAYTA TARBIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI

Tarbiya insoniyat shug'ullangan eng qadimgi va eng zamonaviy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Uning qadimiyligi shundaki, odamlarning ongli hayot kechirish uchun bajargan dastlabki harakatlari, turmush tarzi, mehnat faoliyati aynan tarbiya bo'lgan. Avvalo, o'z oldiga ma'lum bir maqsadni qo'yib, unga erishish uchun xilma-xil vazifalarni bajargan. Har qanday bajarilgan ishlar muayyan natijalarda aks etgan. Insonning xulq-atvori, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, aql-zakovati shakllanib borgan. Minglab yillar davomida umuminsoniy va milliy tarbiyaning eng nodir namunalari saralanib, avloddan-avlodga asrab-avaylab o'tkazib kelingan.

Zamon va maqonning o'zgarishi, ijtimoiy taraqqiyot, fan, texnika va texnologiyalarning takomillashuvi tarbiyaning qonun-qoidalariga, mazmun-mohiyatiga, tashkil etish shakllariga, metod va vositalariga o'ziga xos o'zgarishlar kirishiga sabab bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, tarbiya ijtimoiy buyurtma sifatida jamiyatning, mavjud tuzumning ehtiyojini qondiradigan shaxslarni kamol toptirish uchun xizmat qilib kelgan.

Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, natijasi odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi, o'zlarini tutishi va atrofida bo'ladigan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bugungi berilayotgan tarbiya albatta, ertangi kun uchun xizmat qilishi, ertani bugundan mazmunliroq, yaxshiroq bo'lishiga qaratilmog'i zarur. I. Karimovning farzandlarimiz bizdan ko'ra

aqlliroq, baxtliroq bo'lishi kerak, deganlarida tarbiyaning ertangi kundagi natijasi nazarda tutilgan. Hozirgi paytda yoshlarga berilayotgan tarbiya ularning har tomonlama kamol topgan, bilimdon, manaviy-axloqiy etuk, kasbiy barkamol, zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanadigan bo'lishlarini ta'minlamoqda. Bu albatta, tarbiyaning zamonaviylik mohiyatini ifodasidir.

Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Tarbiya keng ma'noda qaralganda shaxsning barkamol bo'lib voyaga etishi, hayotining oxirigacha komillikka intilib yashashi, o'zining ehtiyojlarini to'la qondirishi, jamiyatga foydasi tegadigan shaxslarga aylanish jarayonida amalga oshiriladigan barcha sa'y-harakat va tadbirlar tizimi tushuniladi. Keng ma'nodagi tarbiyaga insonning aqliy, axloqiy, ruhiy, kasbiy jismoniy etuklik sifatleri ham kiradi. Ba'zan olimlar "tarbiya" va "ta'lim" atamalarining qaysi biri ustun, birlamchi ekanligi haqida munozaralar olib boradilar. Ayrimlar tarbiyani, ba'zilar ta'limni etakchi deb hisoblaydilar. Bizning nazarimizda tarbiya kengroq ma'no kasb etadi. Ta'lim esa tarbiyaning tarkibiga kirgan, inson kamolotida ulkan ahamiyat kasb etadigan jarayonni ifodalaydi. Chunki ta'limning pirovard natijasi sifatida insonning aqli o'sadi, ya'ni aqliy tarbiyasi amalga oshadi.

Tarbiya tor ma'noda ishlatilganda shaxsga beriladigan jismoniy, axloqiy, mehnat, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, jinsiy va boshqa yo'nalishlardagi ayrim xususiyatlarni tarkib toptiradigan faoliyat turlarini amalga oshirish tushuniladi. Ayniqsa yoshlar tarbiyasida ba'zan har xil nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Ana shu kamchiliklarni tuzatish uchun tegishli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi. Bu ta'sir o'z-o'zini tarbiyalash, yoki qayta tarbiya shaklida bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash pedagogika fanida ancha keng va chuqur tadqiq etilgan, tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarilgan

muammolardan biri hisoblanadi. Tarbiyalanuvchi o'zida mavjud bo'lgan xato-kamchilikni sezib, uni o'zgartirish, ijobiy sifatlarga aylantirish jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash hisoblanadi. Yosh bola ko'pincha ijobiy va salbiy, yaxshi va yomon, foydali va zararli, degan tushunchalarning farqini ajratishda qiynaladi. Hayotiy tajribaning etishmasligi, mantiqiy fikrlashning to'la shakllanmaganligi oqibatida o'zi xohlamagan holda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Bu xatoni tuzatishning yo'llarini izlay boshlaydi. Shunday holda kattalar (ota-ona, o'qituvchi) yordam berishi, to'g'ri yo'l ko'rsatishi, foydali maslahatlarini ayamasliklari kerak.

Boladagi har bir ijobiy o'zgarish kattalar tomonidan sinchkovlik bilan aniqlanishi, rag'batlantirib turilishi foydali hisoblanadi. Bunday hollarda bolaning mustaqilligini cheklamaslik, tashabbusini qo'llab-quvvatlash, o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola o'smirlik va o'spirinlik davrida balog'atga eta boshlaydi. Unda jismoniy sifatlar barqarorlashadi, bilim doirasi kengayadi, axloqiy fazilatlari boyiydi, ruhiy kechinmalarda hissiyotdan ko'ra tafakkurning ta'siri ortib boradi. Xarakter xislatlari shakllanadi va irodaviy zo'riqishni qiyinchiliksiz engib o'ta oladi. Xuddi shu davrda yoshlarda o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyojning kuchayishi olimlar tomonidan aniqlangan.

O'z-o'zini tarbiyalashning motivlari mavjud bo'lib, albatta yoshlar o'ziga ma'qul bo'lgan ma'lum bir sabab asosida o'zidagi kamchiliklarni tuzatishga kirishadi. Talaba-yoshlar bilan o'tkazgan so'rovnomamiz natijalariga ko'ra o'z-o'zini anglash, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini nazorat qilish asosiy motivlar sifatida qayd etilgan. Yoshlar hurmat qiladigan kishilarning ibratnamunasi, tanlagan kasbining o'ziga xos xususiyatlari, sinfda yoki guruhda etakchi bo'lish, tengqurlaridan orqada qolmaslik kabi sabablar ham o'z-o'zini tarbiyalashga turtki bo'lishi ko'rsatilgan. Ba'zan o'qigan kitobi, ko'rgan kinofilmi, tasodifan sodir bo'lgan

voqea va hodisalar ham o'z-o'zini tarbiyalashga motiv bo'lishi ta'kidlangan. Bola o'z-o'zini tarbiyalash uchun tanlagan motivi qanchalik jiddiy bo'lsa uning natijasi ham shu darajada samarali bo'lishi aniqlandi.

Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda qayta tarbiyaning o'ziga xos o'rni borligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan nihoyatda murakkab sanalgan qayta tarbiyalash tarbiyalanuvchidagi salbiy sifatlarni boshqalar tomonidan bartaraf etish uchun amalga oshiriladigan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Qayta tarbiyalash oilada, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoatchilik orasida yo'lga qo'yib boriladi. Qayta tarbiyalashning normal tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashdan farqi va murakkabligi shundaki, tarbiyalanuvchi o'zidagi kamchilikni sezmasligi, yoki o'zgartirishni xohlamasligi, o'zi uchun hatto ijobiy bo'lib ko'rinishi mumkin. Ma'lum muddat orasida odatga aylangan, bu odatidan qoniqish hosil qilgan, qandaydir darajada manfaatdor bo'lib kelgan ko'nikma va malakalarni o'zgartirish qiyin kechadi.

Bola dunyoga kelganidan tarbiyaga ehtiyojkor hisoblanadi. Go'dak bola tez-tez oziqlanishi, davomli uyquasi hamda tanasining gigiena qoidalariga mos holdagi parvarishi dastlabki paytlarda qoniqarli bo'ladi. Shu davrlardanoq bolaga yaxshi muomalada bo'lish, alla aytish, erkalatish, muloqotga kirishish, uning atrofida nafis muhit yaratish, tabiat manzaralaridan zavqlantirish, tartib-intizomga o'rgatib borish yaxshi natija beradi.

Ayrim oilalarda bolaga bu xildagi e'tibor bo'lmaydi. Aksincha, oila a'zolarining o'zaro qo'pol munosabatlari, urush-janjallar, baqirish va haqoratlar, hatto qo'ydi-chiqdilar kuzatiladi. Bunday holat bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda tarbiyasi og'ir bolalarda yalqovlik, qo'pollik, injiqlik, yolg'onchilik, mas'uliyatsizlik, shafqatsizlik, odamlarga e'tiborsizlik, ochko'zlik, ishyoqmaslik, uyatsizlik, baxillik, manmanlik, bag'ritoshlik,

kashandalik, ichkilikbozlik, jinoyatchilikka moyillik, faxsh, modaga berilish, nafsini tiymaslik va yana boshqa salbiy sifatlar paydo bo'ladi. Bu sifatlarning bir-ikkitasi bo'lgan bolani tarbiyasi og'ir deb hisoblanadi. Qancha salbiy sifatlar ko'p bo'lsa tarbiyasi ham shunchalik og'irlashib boradi. Bunday bolalar nazoratsiz, qarovsiz va oqibatda huquqbuzarlarga aylanadi.

Davlatimiz tomonidan 2010 yilda "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida" qonun qabul qilingan. Qonunning asosiy maqsadi yoshlarni nazoratsizlikdan saqlash, huquqbuzarlik yo'lga kirmaslikni ta'minlashda oilaning, ta'lim-tarbiya muassasalarining, huquq-tartibot idoralarining, sog'liqni saqlash tashkilotlari va jamoatchilik e'tiborini kuchaytirishdan iboratdir.

Eng avvalo, yoshlarni nuqsonsiz, to'g'ri tarbiyalashga e'tibor qaratish ustivor vazifa bo'lmog'i kerak. Bola xulq-atvoridagi ayrim kamchiliklarni imkoni boricha o'z-o'zini tarbiyalash orqali o'nglashga yo'l ochib berish ijobiy natija beradi. Har qancha harakat qilinganda ham qayta tarbiyalash uchun ehtiyoj yo'qolib ketmaydi.

Pedagogika fanida qayta tarbiyalash muammosini ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan A.S.Makarenko insoniyat bor ekan qayta tarbiyalash ham dolzarb muammo bo'lib qolaveradi, degan xulosaga kelgan. Uning ta'kidlashicha, qayta tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining individual-psixologik xususiyatlari mukammal o'rganilishi, ijobiy va salbiy sifatlarning muvozanati aniqlanishi zarur. Ijobiy sifatlarga suyangan holda nojo'ya qiliqlar yo'qotilib boriladi. Bunda tarbiyalanuvchining o'zi va jamoaning parallel tarbiyaviy ta'siri asosiy omil vazifasini o'taydi. Ayniqsa ishonch bildirish, ma'lum bir yo'nalishda boshqalardan ustun ekanligini dalillash, o'zgalarga foydasi tekkanidan zavqlanish va faxrlanish hissini tuyish bolaning o'z "men"iga ishonch va hurmatni tarkib toptiradi. Qayta tarbiyalash izchil va uzluksiz

davom etishi, salbiy sifatlardan batamom xalos bo'lish barobarida kundalik hayotda benuqson faoliyat yuritish bilan davom etishi ijobiy natija beradi. Jamiyat a'zolarining kundalik faoliyati eng avvalo o'zlarini tarbiyalashga, o'zgalarga tarbiyaviy ta'sir etishga, hayotda o'z mavqei va nufuzining yuqori bo'lishiga zamin yaratadi.

Hayotning har bir lahzasi shaxsni komillikka yo'naltiradi. Komillikning bosqichi, darajalari ko'p. Yuqori, oliy darajaga erishmoq uchun inson tinimsiz mehnat qiladi, ilmiy-ijldiy izlanishda bo'ladi. Jamiyatga foydasi tegadi. Kelajak avlodlarga nafi tegadigan meros qoldiradi. Bularning hammasi to'g'ri va yaxshi tarbiya orqali, zarur bo'lgan hollarda o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiya natijasida amalga oshadi. Shu sababdan tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiya uzviy bog'liqlikda olib borilsa, nafaqat voyaga etmaganlar orasida, balki jamiyatning barcha a'zolari har tomonlama kamol topgan shaxslarga aylanadilar. Alloma Abu Nasr Farobiy orzu qilgan fozil odamlar jamoasi tarkib topadi.

GLOBAL TARMOQNING O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLOD TARBIYASIGA TA'SIRI

Bugun dunyoni to'r singari o'rab olgan Internet tizimi orqali istagan odam har qanday ma'lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin. Odam bolasi tabiatan yangilikka, axborotga tashna ekan, o'z ehtiyojlarni qondirishda butun dunyo xabarnomasi bo'lgan internet keyingi yillarda ko'p ma'qul va noma'qul oqibatlariga olib kelmoqda. Internet biror bir davlat qonunlariga bo'ysinmaydi va hech kimga o'z faoliyati uchun hisob bermaydi. Yangi axborot makonida ma'lumotlar juda katta hajmda joylashtiriladi va yashin tezligida tarqaladi. Albatta, uning kishilar dunyoqarashi, bilimi va saviyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmaymiz. Lekin

xuddi shu tizim orqali oddiy axloqiy me'yorlarga zid pornosaytlar o'rin olgani, ushbu zamonaviy axborot texnologiyasi mahsulidan transmilliy jinoyatkorona guruhlar, terrorist va aqidaparastlar ham bermalol foydalanayotganini ko'zdan qochirib bo'ladimi?

Jaxon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi.”¹ -deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov.

Internet sharoitida davlat chegaralari ochiq qoladi. Albatta, har bir mamlakat o'z chegaralarini imkoni boricha himoya qilishga harakat qiladi. Masalan, Xitoy va Indoneziya birinchilar qatori internet xabarlarini uchun turli filtrlarni o'rnatdilar. Lekin bu borada bizning vazifamiz keng aholi qatlamida O'zbekiston manfaatlariga zid axborotga nisbatan immunitet hosil qilishdir. Agar internet tarmog'idagi saytlarni varaqlagan fuqaroda Vatan tuyg'usi, o'z xalqiga nisbatan e'tiqodi mustahkam bo'lsa, har qanday bo'xton va to'qimalarga ishonmaydi. Immunitetga ega, iymoni baquvvat, g'ururi baland, siyosiy madaniyati etuk insonlarga yot g'oyalar ta'sir o'tkaza olmaydi. “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda.

Shuningdek, internetdan foydalanishni tartibga solib, provayderlar nazoratini kuchaytirish kerak. Bu esa o'z navbatida, internetdagi salbiy axborotlarning oldini oladi. Yoshlar internetga kirib real hayotdan uzoqlashib qolayotganini xorij tajribasi misolida ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda internet-kafelarda

¹Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 113

bizning ayrim yoshlarimiz ham o'zlarining vaqtini yo'qotmoqda. Internet-kafelarga ish yuzasidan kirar ekanmiz, aksariyat holatda, dars payti maktabdan "qochgan" o'quvchi kompyuterda turli xil o'yinlarni o'ynayotganini va chat orqali gaplashayotganini ko'ramiz. Achinarlisi shundaki, ular o'zlarining vaqtini behuda o'tkazib, "ezgulik yo'lida" vahshiylarcha o'ldirib, dunyoni "kimdandir yoki nimadandir" xalos etadiganday o'yinlar girdobiga tushib bormoqda.

Malumki, ko'plab sayt va tarmoqlar katta mablag'lar evaziga filtrlab ko'yilgan va bu holatni ko'plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta ta'qiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning hatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va bu faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin. I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "...yoshlarimizning manaviy olamida bo'shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz kerak". Internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning foydali manbalari asosida o'z dunyoqarashini kengaytirish, g'arazli ma'lumotlarni inkor eta bilish idrokini, mafkuraviy immunitetni hosil qilish g'oyat muhim jihatdir. Har bir yosh malum bir ko'nikma va bilimlarga, diniy va dunyoviy ilmlarning mohiyatini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jaryonlarga befarq bo'lmasligi lozim. Buni avvalo, o'zining taqdiri, kelajagi oldidagi masuliyat deb bilsa, ikkinchidan, vatani va halqi oldidagi burchi sifatida tushunmog'i lozim

Internet, uyali aloqa vositalari orqali ma'naviyatimizga yot g'oyalarni targ'ib qiluvchilar asosan yoshlarning xis- tuyg'ulariga ta'sir qilish yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladilar. Katta yoshdagi, hayot tajribasiga ega bo'lgan ba'zi ota-

onalar farzandlarining kiyinishda, muomalada, atrofidagi odamlar bilan bo'lgan munosabatida, orzu va intilishlarida g'arbona xulq-atvordagi salbiy jixatlardan o'rnak olayotganliklariga beparvo bo'lishlari, ba'zan ularni rag'batlantirishlari yosh avlod tarbiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oramizda ba'zan bilib-bilmay ma'naviyatimizga tajovuz qiluvchilarga yon bosuvchilarning uchrab qolishi beshikdan to qabrgacha ilm izlash bilan bir qatorda tarbiya olishning zarurligini ham isbotlaydi.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi.

XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz avval ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shunday murakkab va tahlikali davrda hur fikrli kishilarning, birinchi galda ma'naviyat fidoyilarining xalqimiz, shu jumladan yoshlarimiz ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli, ta'sirchan so'zi har qachongidan ham muhim ma'no kasb etmoqda. "To'g'risini aytadigan bo'lsak, - deydi I. Karimov, - yoshlar bugun axborot va ma'lumotlarni asosan Internet orqali olayapti, dunyoni televidenie, kompyuter orqali taniyapti. Ota-onasi, o'qituvchilari ming targ'ib-tashviq qilmasin, bugungi yoshlar "O'tkan kunlar", "Urush va tinchlik" kabi mumtoz romanlarni yoppasiga o'qiyapti, deb ayta olamizmi? Modomiki, shunday ekan, endi odamlar, yoshlar kitob o'qimay qo'ydi, deb faqat nolib o'tirmasdan, ana shu ta'sirchan zamonaviy axborot vositalari orqali adabiyotimizni

keng targ'ib etish, xususan, Internet imkoniyatlaridan foydalanib, etuk badiiy asarlarni yoshlarga etkazish ustida ham jiddiy bosh qotirish zarur, deb o'ylayman".

Yoshlarimizning ajdodlarimizdan qolgan boy, ma'naviy merosini o'qib-o'rganish, teran anglashi ularni komillika etaklaydi. Internet tarmoqlari orqali dunyoni bilishlari esa ularning intellektual salohiyatlarini oshishiga zamin yaratadi. Shu ma'noda so'z yuritadigan bo'lsak, o'tmishini qadrlab, kelajakka yuz tutgan yurtning vorislari o'tmishi kabi kelajagi xam buyuk yurtni dunyoga tanitishadi.

Xullas, birinchidan, texnika, texnologiya hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Mamlakat taraqqiyotida ham bu texnika, texnologiyani roli beqiyos. Insonning sog'ligini tiklashdan tortib, iqtisodini yaxshilash, ma'naviyatini axborotlar bilan boyitish xususida va boshqa sohalar to'g'risida muhim fikrlarni aytish mumkin. Lekin inson qalbi va tafakkurida shunday tushunchalar borki, uni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Vatan tuyg'usi, millat g'ururi, o'zlikni anglash, yurt iftixori tushunchalari xususida pedagogik texnologiya, ota-ona ibrati, avlodlar merosi, mustahkam iroda, e'tiqod va imon butligi uyg'unlashganda inson komillikka intilib boradi. Ikkinchidan, internet tarmog'i ham, kashf qilingan har qanday fan yutuqlari singari o'zining ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Global tarmoqning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati taboro ortib borayotganligi, insoniyat uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini asoslashga hojat yo'q. Xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarni virtual olam orqali o'z tasirlarini o'tkazishga harakat qilishlari ham tabiiy holat. Qachonki hamma davlatlar terrorizm havfini, xalqaro, xududiy va milliy xavfsizlik va barqarorlikka, umuman insoniyatga fojeali global havfni tushunib, birgalikda harakat qilganlaridagina yaxshiroq natijalarga erishilgan bo'lardi.

OILAVIY MUHITNING BOLA TARBIYASIGA TA'SIRI

Hammaniz bilamizki, inson shaxsini shakllanishiga to'rt omil: nasl, tarbiya, faoliyat va muhit ta'sir etadi. Shu omillardan qaysi biri kuchli chiqsa, shaxs ham shunga yarasha shakllanadi. Agar biz hozirgi kundalik hayotimizga nazar solsak, va shuningdek, bola tarbiyasiga doir pedagoglar, psixologlar, sosiologlar va boshqa mutaxassislarining fikrlarini, tajribalarini hisobga olsak, oilaning sog'lom muhiti ham bolaning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishini tushunib etamiz. Sog'lom muhitni esa, inson uchun eng muhim va asosiy bo'lgan quyidagi tushunchalar shakllantiradi. Bularning birinchisi oila a'zolarining sog'lomlik darajasi, ikkinchisi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, uchinchisi yashash uchun etarli bo'lgan pul mablag'i, ya'ni oila byudjeti, oila a'zolarining kundalik kayfiyati, ya'ni har bir oila a'zosi o'z kayfiyatini qay darajada boshqara olishi va beshinchisi har bir oila a'zosining hayotdagi maqsadidir.

Endi yuqorida qayd etilgan oiladagi sog'lom muhitni yaratuvchi asosiy tushunchalarga chuqurroq to'xtalsak. Dunyoda eng katta baxt bu sog'likdir. Sog'lom insongina o'z oldiga qo'ygan maqsadga, baxt- saodatga erisha oladi. Sog'ligini yo'qotgan odam, katta boylikka ega bo'lgan taqdirda ham, o'zini baxtli his eta olmaydi. Bunga hayotda misollar ko'p. Har bir inson o'z salomatligi oldida birinchi galda o'zi mac'uldir. Har bir ota ona o'z farzandini sog'lom bo'lishini hohlar ekan, birinchi galda ota onaning o'zlari o'rnak bo'lib, sog'lom turmush qonun - qoidalariga rioya qilib yashashlari muhim ekanligini anglab etishlari zarurdir. Ota - ona o'zlarining sog'liklarini mustahkamlash maqsadida jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullanar ekan, bunday oilada o'sayotgan bola sportga befarq bo'lib qola olmaydi, chunki bolalar ko'pincha eshitganini emas, ko'rganini bajarishga moyildirlar.

Bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri-oiladagi munosabatlarga kelsak, oila a'zolari va umuman insonlar orasidagi munosabatlarga kirishganimizda, bunga mas'uliyat bilan yondashish muhim ekanligini avvalam bor biz yoshi kattalar chuqur anglab etishimiz zarurdir. Yovuzlikni ham, ezgulikni ham, samimiylikni ham, ikkiyuzlamachilikni ham, g'azab otiga minishni yoki mehr shavqatli bo'lishni ham bolalarga biz yoshi kattalar bir-birimizga qilgan munosabatlar orqali o'rgatamiz. Agar eru xotin o'rtasidagi munosabatlar samimiylikka, hurmatga, mehr-muhabbatga asoslangan bo'lsa, bunday oilada ulg'ayib, voyaga etgan insonlardan kamdan-kam ikkiyuzlamachilar chiqadi va ular hech qachon sevgi nimaligini hech kimdan so'ramaydilar. Ular buni eng boshidanoq his etib anglab etgan bo'ladilar. Agar ota - ona farzandini o'zining qadr-qimmatini biluvchi, o'zini hurmat qiluvchi shaxs bo'lib ulg'ayishini xohlasalar, unga go'dakligidayoq hurmat bilan munosabatda bo'lishlari zarurdir.

Oilada bola tarbiyasiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri oiladagi moliyaviy ahvol hisoblanadi. Hayot shuni ko'rsatayaptiki, oiladagi pul miqdori haddan tashqari ko'p bo'lishi ham, yoki haddan tashqari kam bo'lishi ham oiladagi muhitga salbiy ta'sir etadi. Pul miqdori hayot uchun eng kerakli ehtiyojlarni qoplashga etarli bo'lishi kerak. Agar oilaviy byudjet yashash uchun eng kerakli ehtiyojlarni (masalan, oziq-ovqat, kiyim kechak) qoplashga etmas ekan, unda inson uchun eng zarur bo'lgan sog'likka putur etishi mumkin va ayniqsa, o'sayotgan bolalar uchun bu xolat juda achinarlidir. Bundan tashqari, oilada pulning etishmasligi tufayli bolalar, ayniqsa, 14 - 16 dagi o'spirinlar kiyinishda va shunga o'xshash narsalarda tengdoshlaridan orqada qolsalar, bundan ruhiy aziyat chekishlari mumkin. Agar oila juda ham boy bo'lsa, ota-ona farzandlarining har qanday xohish istaklarini darhol bajarmasdan, pulga bo'lgan munosabatni to'g'ri tarbiyalab, pulning qadriga etishni va sabr-

qanoat hissini ularning yoshlik chog'idan tarbiyalashlari zarurdir, aks holda bunday farzandlardan kelajakda xudbinlar shakllanishi mumkin.

Oilaning sog'lom muhitiga ta'sir etuvchi yana bir omil bu oiladagi kayfiyatdir. Aslini olganda, har bir oila a'zosi o'zining yaxshi, yoki yomon kayfiyati bilan oila muhitiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin. Insondagi kayfiyat esa, insonning miyasida ayni paytda qanday fikrlar borligiga bog'liq. Tasavvur qiling, oila boshlig'i bo'lmish ota hozirgina ishdan yomon kayfiyatda keldi. Bunga turli xil sabablar, ya'ni boshliq, hamkasabalar yoki qo'l ostidagi ishchilar orasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, yoki ish jaryonida paydo bo'lib turadigan muammolar bo'lishi mumkin. Mana shu salbiy xolatlarning hammasini u o'zining miyasida fikrlar shaklida uyga, oilasining oldiga olib keldi. Yomon kayfiyat ham, yaxshi kayfiyat ham insondan insonga yuqumli kasallikka qaraganda ancha tez ravishda yuqadi. Ota o'spirin o'g'lining savoliga javob berish o'rniga uni jerkib tashladi. Endi u yo singlisini, yoki ukasining kayfiyatini buzadi. Shunday qilib, ko'pincha bir odamning aybi bilan oiladagi barcha kishilarning tabi xira bo'ladi. Bu xolatni ruhshunoslar «zanjir reakstiyasi» deyishadi. Har bir inson hayot qanchalik og'ir bo'lmasin, ijobiy fikrlashga harakat qilishi lozimdir. Chunki «Ijobiy fikrlar insonni muvoffaqiyatga olib kelsa, salbiy fikrlar omadsizlik va yolg'izlikka olib keladi» deb yozgan edi amerikalik mashhur doktor Poll Bregg. Keyingi tibbiyotdagi ilmiy-tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, insondagi kasalliklarning 80% i insonning ruhiy xolati, ya'ni kayfiyati bilan bog'liq ekan. Kayfiyatni boshqarish uchun esa, insonlar o'z fikrlarini boshqara olishni yoshlik paytidan o'rganib, buni bolalariga ham o'rgatishlari zarurdir.

Maqsadsiz insonni ummonda aniq bir manzilni ko'zlay olmay darbadar kezib yurgan kemaga o'xshatish mumkin. Albatta hayotiy maqsad faqat shaxsiy man'faatlardan iborat bo'lib

qolmasdan, balki unda umuminsoniy, oliyjanob qoidalar ham mavjud bo'lishi kerak. Insonga o'zining oldiga qo'ygan maqsadiga qarab baho bersa bo'ladi. Ota – onalar farzandlarini bolalik paytidan boshlab o'z oldiga maqsad qo'yishni va shu maqsad sari intilib yashash zarurligini anglatgani maquldir. Bunda albatta ota – onalarning o'zlari shaxsiy o'rnak ko'rsatishlari lozim. Agarki, insondagi hohish-istak o'ta kuchli bo'lsa, u deyarli har qanday maqsadiga erishishi mumkin. Shu o'rinda bir donishmandning “ O'z maqsadiga erishish yo'lida hamma narsadan voz kechishga tayyor insonni hech narsa to'xtatib qola olmaydi” deb bildirgan.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI

Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi xuquqiy va demokratik jamiyat qurish jarayoni barkamol avlodni tarbiya qilish, ma'nan va jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlash, nafaqat oila, balki hukumatimizning vazifasi sifatida davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz tomonidan 2014 yil “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilinishi ham bejiz emas.

Ma'lumki, bola tarbisida oilaning o'rni juda katta va muhimdir. Ota-onaning o'z xayotlari, turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy va axloqiy tarbiya va insoniy fazilatlarni shakllantirish ularning oldidagi asosiy maqsadidir.

O'qituvchi-tarbiyachi esa oilaviy ta'lim-tarbiyani hisobga olgan holda, ta'lim- tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini pedagogik jihatdan to'g'ri izohlashi va umumiy tavsiyalar berishi, mustaqil davlatimizning shaxs taraqqiyotiga ko'rsatilayotgan pedagogik ta'sirini aniqlash, kelgusida kutilayotgan natijalarni oldindan bilib borishi lozim. Demak, farzandlarimizni barkamol

avlod qilib tarbiyalashda maktab va oila hamkorligini amalga oshirish bugungi eng dolzarb masaladir.

O'qituvchi va ota - onalar bolalarning asosiy tarbiyachilari hisoblanadi. Shu sababli ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning ota-onalar bilan ishlash ko'nikmalari, ular bilan umumiy til topa bilishi, ularning yordami va qo'llab quvvatlashiga bog'liqdir.

O'qituvchining ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash usullari va shakllari xilma -xildir masalan: ota-onalar umumiy yig'ilishlarini o'tkazish; ota-onalar bilan guruhli va individual suhbatlar tashkil etish; sog'lom muhitni yaratish (kiyinish madaniyati, ozodaligi, madaniy dam olishi); ota-onalarni bolalar bilan bevosita ishlashga jalb qilish; ota-onalar orasida pedagogik bilimlarni keng targ'ibot qilish; o'quvchilarning oilasiga borib, ahvolini o'rganish; bolani qo'llab-quvvatlash; o'zaro hamkorlikka o'rgatish; ota-onalar bilan yozishmalar olib borish; na'munaviy oilalar ishini ommalashtirish.

Tarbiyaviy faoliyatning mazmuni va metodlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ota-onalar va o'qituvchi o'rtasida o'rnatiladigan munosabat usuli to'g'ri tarbiyaviy muhitni shakllantirishga va bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarning rivojlanishiga, bilimga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga sabab bo'ladi.

«O'qituvchi va ota-ona» munosabatida tarbiya ishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan ishlash mobaynida o'qituvchi doimo bolani xatti-harakatlarini, o'qishdagi yutug'i va kamchiliklarini, o'z vazifalariga bo'lgan munosabatini muntazam baholab beradi. Ota-onalar bilan o'qituvchining bir-birini tushunishlari, bolaning kamchiliklarini qanchalik darajada me'yoriy baholay olishlariga bog'liq bo'ladi. Bu erda pedagogga quyidagilarni e'tiborga olish to'g'ri keladi: bola shaxsini to'liqligicha emas, balki uning aniq hatti-harakatlarini baholash

maqsadga muvofiqdir. Ota-ona bilan birgalikda vaziyatdan qanday chiqish va uni yaxshilash yo'llarini izlab topishi lozim.

Pedagogik jihatdan munosabatlar o'rnatilishi uchun ota-onalar bilan o'qituvchi o'rtasida tarbiyaning maqsad va vazifalarini bir xilda tushunish, oilalar rivojlanishiga qarashlarning birligi, har bir bolaning kelajagini va rivojlanishdagi qiyinchiliklarini ko'ra bilishi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topishi zarur.

Pedagogning ota-onaga munosabati bolaga ta'sir ko'rsatuvchi doimiy tarbiya prinsiplariga, metod va vositalariga ega bo'lishni taqozo etadi. O'qituvchiga ham, ota-onaga ham boladagi ijobiy tomonlarni rivojlantirishga, kelajagiga ishonch bilan qaragan holda yondashish kerak bo'ladi, bolaning o'z kuchiga ishonishiga yordamlashish ota-ona va o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Bu o'ziga bo'lgan ishonchni tarkib toptirish tarbiya ob'ekti va sub'ekti bo'lgan o'quvchini keyinchalik o'z oldiga har xil vazifalarni qo'yishni o'rgangan holda ularni bartaraf etish shartlarini topishga odatlantiradi.

Yana shu narsani ta'kidlash joizki, o'qituvchi ota-onalar bilan ishlash vaqtida doimo tartib qoidalar va nazokatni saqlash, bolada shakllantirmoqchi bo'lgan insonparvarlik hislatlariga amal qilishi lozim.

O'qituvchi mahoratining nozik tomonlaridan biri ota-onalar va jamoatchilikning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini kuchaytirish hisoblanadi.

Xulosa qilib, aytganda o'qituvchi oila, mahalla va jamoatchilikning yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishini yo'naltirib boradi va o'zining ilmiy pedagogik bilimlarini ota-onalarning tajribalariga bog'lagan holda, maktabda va undan tashqarida bajarilayotgan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarga keng jamoatchilikning e'tiborini qaratadi.

BOLA TARBIYASIDAGI SALBIY O'ZGARISHLARNING OLDINI OLISH MUAMMOLARI

Ta'kidlash joizki, barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi og'ir va noqobil farzandlar mavjud bo'lib, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash azaldan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra (Dubinin N.P., Sergeyev B.F. va boshqalar) shaxsning genetik xususiyatlari, tug'ma kasallik va xususiyatlar ham uning xulq-atvoriga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatar ekan. Shu bilan birga, bu muammoning kelib chiqishiga bir qancha tashqi sabablar ham ta'sir qilishi mumkin (televizor, kompyuter va internetdagi axborotlar, kattalarning e'tiborsizligi, oiladagi krizis va boshqalar). Mazkur omillarni inkor etmagan holda ushbu muammoning asosiy sabablarini bolaning psixik shakllanishidan ham qidirish mumkin.

Ma'lumki, tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, u inson dunyoga kelishidan to umrining oxirigacha davom etadi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea-hodisalar shaxsga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin va bu uning shaxsiy fazilatlarining shakllanish darajasini belgilab beradi. Bu esa ta'lim sohasi oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, oxirgi paytlarda tarbiyasi og'ir bolalar bilan bo'g'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular sonining keskin oshganligi tasdiqlanmoqda. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni, hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor

ko'rish, kompyuterda har xil o'yinlar o'ynash, internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirish) yoki kattalarning e'tibori, oiladagi iqtisod va hokazolar. Amerikalik amaliyotchi pedagoglar tomonidan pedagogik xizmat doirasida bola tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi. Buning uchun bolaning o'zini o'zgartirishga tayyorlash, ya'ni: tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslik; turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim.

Olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Inson tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch - ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil - inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ma'lumki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan berilmaydi deb izohlanadi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

Boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.
- bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.
- tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir. Shunga amal qilgan holda:
- Maktab hududida ko'cha-kuyda, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota- onalar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
- Bolaga bo'sh vaqtdan unumli foydalanish yo'llarini o'rgata borish va uni nazorat qilish.
- Ijtimoiy foydali mehnat turlaridarf unumli va oqilona foydalanish.
- Bolani uning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda to'garaklarga qatnashtirish.
- Ijobiy qahramonlaming hatti- harakatlari, yutuqlari, shu yutuqlarga erishish uchun kurashlari kabilarga e'tiborni qaratish.
- Barcha darslarda o'sha tarbiyasi og'ir bolani iloji boricha bir daqiqa ham nazardan qochirmaslik.

Ota-onalarni psixologik bilimlardan xabardor bo'lishini ta'minlash;

- Maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar: har- xil kechalarda, o'z tengdoshlari davrasida, o'rtoqlari orasida unga so'z navbatini berish, ularda faol bo'lishini ta'minlash.
- Gazeta, radio, televidenie va jurnallardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.
- Rag'batlantirish metodlarini ishlatib ko'rish. Lozim topilaganda olgan baholarga yarim ball, bir ball qo'shish, yutuqlarini sinfda, maktabda me'yorida ta'kidlab qo'yish lozim.

Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o'ralashib kirib qolgan bo'lsa, uni tezlik bilan o'sha davradan ajratib olib, so'ng o'sha tarbiyasi og'ir bolani "yaxshi" va "a'lo" baholarga o'qiydigan intizomli o'quvchilarga biriktirib qo'yish kerak.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon jamiyatimizda kelajagimiz bunyodkori bo'lgan yoshlarga nisbatan bo'lgan e'tibor ancha kuchaydi. Ayniqsa xalq ta'limi sohasida jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Bugungi kunda o'quvchilar bilim tarbiyasidagi ijobiy o'zgarishlarni har damda sezish mumkin. O'zbekistonni butun jahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash muhim omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda. "Kelajakka qanday yoshlar kerak? Ularni qanday tarbiyalash lozim?" degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Bola maktab ostonasiga qadam qo'ygunga qadar oiladagi olti, yetti yillik hayoti mobaynida dunyoqarashi, xarakteri ozmi-ko'pmi shakllanib qoladi. Bola tarbiyasi maktab bilan oilaning birgalikdagi burchi ekanligini tan olgan holda bu jarayonda oila birinchi darajali tarbiyachi ekanligini ham nazarda tutish lozim.

Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o'zlariga baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo'ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydilar. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol toptirgan oilalardagi sofdillik, samimiylik biri-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarni kamol topishiga sabab bo'ladi. Ahil oilada bolaning hulq-atvori me'yorlari to'g'risidagi tasavvuri ota-onalarning hulqi bilan uyg'un bo'lsa farzandlarini oqilona so'rab-tergab tursalar bu uydin tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichiqoralik, loqaydlik, ma'naviy zaiflik, insoniy munosabatlardigi qashshoqlik, ahloqiy nopoklik hukm surgan oilalarda o'sgan bolalarning tarbiyasi ko'pincha izdan chiqadi. Bola yaxshilik va yomonlikka haq va nohaqlikka nisbatan juda

sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushunishi mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushunmaydi. Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolaning ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega deb bo'lmaydi. Ruhiy hola insonning biron-bir tarzda ta'sir etuvchi xatti-harakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotsional bahodir. Emotsional ta'sir bolaga xos holat.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham mazah qilishdan ham yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehdan ham, kattalarning bolalarga e'tiborsizligida ham nohaqlikni ko'radi.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehdan ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlikni ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsigaga tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv (nafrat) va passiv (g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli-tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin.

Ota - onaning yengil-yelpi mehnatni oqlab, oson pul topish yo'llarini bolalar oldida maqtab gapirishi, otaning o'z hamkorini mazax qilib, maqtanib aytgan gaplari bolaga axloqsizlik darajasini ochib beradi. Tarbiya to'g'ri va uzluksiz bo'lsagina ijobiy samara beradi. Odatda tartibsiz, intizomsiz, ishyoqmas, o'qishda qoloq va no'noq o'quvchilar "tarbiyasi qiyin" bola hisoblanadi. Tajribalardan ma'lumki, bolalar xarakter jixatdan har xil bo'ladilar. Bunday bolalarning ayrimlari anomal xulq-atvorli, ba'zilari sotsial va bir qismi tarbiyasi og'ir bo'lishi mumkin. Axloq normalariga jamiyat talablariga javob bermaydigan xulq-atvorli bolalar asotsial xulq-atvorli bolalar deb ataladi. Anomal xulq-atvor va harakat bola miyasining kasalligi bilan bog'liq bo'ladi. Tarbiyasi qiyin bolalar - bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan,

o'z xoliga tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondosha bilmaslik oqibatida paydo bo'ladi. Tarbiyasi qiyin bolalar murakkab tushuncha. Ularning har birida tarbiyasi qiyin boshqa bolalarga o'xshamagan, o'zigagina xos alohida individual xususiyatidir. O'z sababi, o'z xususiyati, o'zining normadan chetga chiqishi, o'zining tarbiya yo'li bo'ladi. Boshqacha aytganda, normal ta'lim-tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o'qituvchilar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnata olmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning to'g'ri usullarini topa bilmagan bolalar tarbiyasi qiyin bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin. Demak, "tarbiyasi qiyin" degan ibora o'ta salbiy ma'noni bildirmaydi. U yomon buzilgan, ishonchsiz bola emas. Tarbiyasi qiyin bolaga alohida munosabat, e'tibor va individual yondoshuv zarur. Har qanday kasalni vaqtida davolagan ma'qul. E'tiborsiz qoldirilgan mayda - chuyda narsadan katta baxtsizlikka duchor bo'lish ehtimoli tug'iladi. Bolani "tarbiyasi qiyin" holatga olib keluvchi yagona sabab yo'q. Shuningdek ularni axloqsizlik illatlaridan sog'aytirib, mo'min-qobil qilib qo'yadigan yagona shifobaxsh vosita ham yo'q. Lekin shunisi ham aniq-ki, jamoatchilik nazoratining bo'shligi tufayli og'irlashgan noqulay shart- sharoitlar, tarbiya ishlarida yuzakichilikga yo'l qo'yish o'smir hayotida salbiy oqibatlarga olib keladi.

Tarbiya inson uchun kurash demakdir. Bolaning qanday bo'lishi - bu shaxsiy ish bo'lmay, balki jamoatchilikni qiziqtirgan muammodir. Bolani tarbiyalaganda, u qilgan gunohining mohiyatini yaxshi anglamasligi oqibatida nima bilan tugashini hali tasavvur qila bilmasligini hisobga olish ham muhim. U chinakam mard yigit bilan do'st, chin o'rtoq bo'lishni orzu qiladi. Yanglishib

yoki adashib yomonlar ta'siriga tushib qolganda esa unga darhol to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI NIZOLI HOLATLARNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Bugungi globallashuv sharoitida nizoli holatlar ichida umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari va maktab o'qituvchilari o'rtasidagi kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi eng murakkab va dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Uning kelib chiqishining sabab va oqibatlari berilayotgan ta'lim - tarbiya hamda o'quvchilarda madaniy xulq-atvorni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bu borada pedagog va psixolog olimlar, tajribali o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar, mahalla faollari hamkorligida istiqbolli tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari va maktab o'qituvchilari o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni o'rganish, uni tizimlashtirish, jamiyatdagi salbiy illatlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga ko'mak bo'ladi.

Nizo – bu shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida biror muammo yoki qarashlar echimida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qarama – qarshi fikrlar to'qnashuvi oqibatida paydo bo'ladigan salbiy hissiyotlarga bo'lgan munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy – psixologik hodisadir. Bu jarayon kuchli emostional his-tuyg'ular va axloqiy kechinmalar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. O'tkazilgan tajriba - sinov natijalariga qarab o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizoli holatlarni shartli ravishda shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo, guruh ichidagi turlarga bo'lib o'rgandik.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, har qanday nizoli holatning kelib chiqishi muammoli vaziyatlar bilan chambarchas bog'liq. Muammoli vaziyatlar ta'lim tizimida alohida tadqiqot obekti ko'rinishida chuqur o'rganilmaganligi bois, shaklan va mazmunan turli xil nizoli holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'quvchilar bilan ta'lim - tarbiya jarayoniga kirishar ekan, o'quvchining xulq-atvorini bilishi va xatti-harakatlarini ma'lum darajada baholay olishi, ular bilan munosabat jarayonida jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishning oldini oladi. Shunga ko'ra har bir ta'lim muassasasida o'qituvchilar bilan o'quvchilar munosabatida o'zaro pedagogik-psixologik bog'lanish bo'lishi kerak. Ayniqsa psixologik bog'liqlik, ya'ni o'quvchining ruhiy holatini va qiziqishlarini bilish o'qituvchi uchun o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni ijobiylashtiradi. Agar o'qituvchi o'quvchiga nisbatan hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lsa, uning har bir so'zi va harakati ta'sirli bo'ladi. Aksincha bo'lsa, bu hol ularning o'zaro hamjihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to'sqinlik qiladi va muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Ijobiy munosabatlar psixologik bog'lanishning samaradorligiga kuchli ta'sir etadi.

Umuman o'quvchilar bilan munosabatda bo'lganda pedagogik-psixologik metod va usullardan samarali foydalanishni bilish, o'quvchilar bilan suhbat davomida ularga buyruq berish orqali emas, balki, iltimos va maslahat shaklidan ya'ni "marhamat", "iltimos", "juda yaxshi" kabi so'zlardan foydalanish o'quvchilar uchun ko'proq yoqimliroq bo'ladi. Chunki yuqori sinf o'quvchilari o'smirlikdan o'spirinlikka o'tish yosh davrida bo'lishadi. Bu borada qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaydi: "O'quvchi - to'ldirilib turilishi zarur bo'lgan bo'sh idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o'qituvchi biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek,

o'quvchi bilan erkin munosabatda bo'la olsa, o'z navbatida "o'qituvchi - o'quvchi" o'rtasida to'siq olib tashlansa, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida muammoli vaziyatlarning oldi olingan bo'ladi.

“BEMA’NI” BOLALAR YOXUD E’TIBOR TALAB O’QUVCHILAR

Ota - ona farzandini ruhiy - jismoniy, ma'naviy- axloqiy hamda aqliy sog'lom voyaga etishini astoyidil istaydi. Bolani kelajakda qanday kasb egasi bo'lishi ham ota - onani befarq qoldirmaydi. Boladagi xohish - istaklarning shakllanishi va o'sishi, qaysidir ma'noda undagi fazilatlarning nish ura boshlashidan darak beradi. Ayni paytda ota- ona o'z farzandining bo'y - basti, chiroyi, aql - zakovati hamda boshqa xususiyatlarini tengqurlari bilan o'ynashi va muloqotda bo'lishi sharoitida qiyoslaydi. Ammo, bola o'zi haqida qanday fikrda va o'z- o'zini qay darajada anglaydi? O'zining faoliyatiga to'g'ri baho bera oladimi? degan savol nafaqat ota- onani, balki o'qituvchilarni ham befarq qoldirmasligi lozim.

O'quvchini oilada, maktabda eshitgani, ko'rgani bilan hayotda eshitgani va ko'rgani bir-biriga to'g'ri kelmasa yoki bir-birini to'ldirmasa, bilingki oila va maktabda berilgan tarbiyaga ishonch yo'qola boshlaydi. Haqiqat qiyoslashda yuzaga chiqadi degan gap bor. Ammo tarbiyada qiyosiy tahlil metodining o'rni talablar darajasida emas desak o'rinli bo'ladi. Aksariyat muallimlar bolaga "Falonchini qaragin qanday yaxshi o'qiyapdi", " Falonchi dars qoldirmaydi, aytganingni bajaradi, senga nima bo'ldi?", "Oynaga bir qaragin, aftingni qandayligini ko'rasan, bet va bo'yinlaring ham yuviqsiz, kir, kiygan kiyimingni qara, umuman dazmol ko'rmagan "kabi tanbehlarni tez-tez berishadi.

O'z navbatida oilada ham bolani kamsituvchi (landavur, lapashang, isqirt, xomkalla, oshqavoq kabi) so'zlar aytilsa, kesatiq

gaplar bilan jismoniy jazolash tez - tez bo'lib tursa, bola qo'rqqoq va o'z kuchi hamda imkoniyatlariga ishonmaydigan bo'lib qoladi. Bola begonalar oldida uyaltirilsa yoki jismonan jazolansa, o'ziga nisbatan bo'layotgan hurmatsizlikdan qattiq eziladi. Dilidagini tiliga chiqara olmay xo'rlanadi. Bolada ota-onaga nisbatan emostional sovuqlik paydo bo'ladi.

Farzandga bo'lgan munosabat jihatidan avtoritar, liberal va demokratik yondashuvchi ota- onalar farqlanadi. O'qituvchi-tarbiyachilar misolida ham shunday xulosaga kelish mumkin. Yuqorida biz ko'rib o'tgan munosabatlar aytilgan avtoritar munosabatlarga kiradi. Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, metod sifatida bu jarayonning ilmiy mohiyati pedagogikada atroflicha o'rganilmagan. Chunki, oilada er - xotin munosabati ham avtoritar yo'sinda bo'lsa, uning nuqsi albatta farzandlarga ko'chadi. Bolani erkalatish, mehr berish, ko'ngliga qarash, uni himoya qilish, u bilan maslahatlashish, liberal va demokratik yondashuvli oilalarda ko'zga tashlanadi. Bunday oilalarda ko'proq o'zaro kelishuvchilikga yo'l qo'yiladi. Bolaning ozgina yutug'ini ko'rib ota - ona suyunadi, uni rag'batlantiradi. Boladagi yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarga tegishli sharoit yaratib beradi. Ammo, bu yondashuvlarga xos kamchiliklar bola ehtiyojlarini ko'proq, ba'zan ortiqcha qondirilishida ko'zga tashlansa, ba'zan bolaga keragidan ziyod erkinlik berish hamda o'z holiga tashlab qo'yish kabi holatlarda kuzatiladi. Yana bir jihat shulki, bu jarayonda bola "o'zim bilaman" deb, o'z kuchiga ko'proq ishonib, tajribasizligi tufayli o'zi va ota - onasini qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Nima bo'lganda ham bolani o'ziga xos imkoniyatlarini ota - ona va muallim bilgan holda, uni qo'lidan kelmaydigan, qurbi etmaydigan topshiriqlarni bermasligi kerak.

Avtoritar yondashuvdagi oilada bola uchun ko'proq " bilmayman", " xabarim yo'q", "xohlamayman ", " bajara olmayman

“, “ qo’limdan kelmaydi”, “bormayman”, “ qo’rqaman” kabi himoya reaksiyalarining kelib chiqishiga zamin yaratiladi. Bola o’zini ehtiyot qilish maqsadida ba’zan yolg’on gaplar ham ishlata boshlaydi. Chunki, bola yolg’onni ko’proq ota –onasidan, atrof – muhitdan o’rganadi. Endigi tarbiyaviy jarayonda ota–ona bolani tobora o’zidan uzoqlashib borayotganini kuzatadi. Haqiqat qanchalik achchiq va yoqimsiz bo’lmasin, baribir yolg’ondan yaxshida. Bu o’rinda aksariyat ota –ona xatosini tushunib etsada, bo’yniga olgisi kelmaydi. “Men ota –onaman, farzand meniki, farzandim men kutgandek bo’lishi lozim”, - degan fikrda qolishadi. Bolani taqqoslab tarbiyalash o’rinli emasligini xar doim xam tushunib etishmaydi. Chunki, bolani o’zidan kuchli, doim muvaffaqiyat qozonadigan tengdoshi bilan qiyoslashsa, bola kamgap va tortinchoq, o’z-o’ziga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatida o’sadi. Hatto sinfdoshlari bilan bo’ladigan muloqotda ham qiynaladi. Bunday holatda tengqurlari uning ustidan kulishi, hatto kamsitishi ham mumkin. Oila va maktabda bolaning kuchli jihatlari aytilib, o’rinli maqtalsa, bolada o’z-o’ziga bo’lgan ishonch ortadi. Unda ichki xotirjamlik paydo bo’ladi. Bola o’ziga qanday munosabatda bo’lsa, atrofdagilar ham unga shunday munosabatda bo’lishadi.

Har bir bola shaxs sifatida o’zining xulq-atvori, aqliy potentsiali, qobiliyati, ruhiy–jismoniy kuch–quvvatiga ega. Shu ma’noda bola o’zining kamsitilishi yoki past baholanishini istamaydi. Ammo, maktabda tarbiyaviy darslarda ibrat–namuna metodiga muvofiq boshqa o’quvchilarni qanday qilib a’lochilar safiga ko’tarilganligini, uning asosida izlanish, mutolaa yotganligini va a’lochilar safiga qo’shilish uchun qanday tavsiyalar kerakligi, mutaxassis tomonidan aytib o’tilsa, bolaga o’rgatilsa, uning ta’sir kuchi boshqacha bo’ladi. Bolalarni nimanidir olishga va xulosa chiqarishiga asos bo’ladi. Ammo, sinfda hammani baravar jazolab yoki rag’batlantirib bo’lmaydi. Bu holda

tarbiyaning ta'sir kuchi ham bo'lmaydi. Ayniqsa, sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar yoki tartib -qoidani buzadigan bola birinchi galda " muallim hammaga teng gapiradiku yoki hammani barobar jazoladiku, menga nima", degan xulosaga keladi.

Falsafada sabab va oqibat kategoriyasi bor. Ko'pincha ota-onaga va o'qituvchi-tarbiyachilar oqibat bilan ishlashadi. Bu jarayon aynan qayta tarbiyaning mazmun - mohiyatiga muvofiq keladi. Aslida bo'lib o'tgan voqea, hodisaga tegishli chora - tadbir belgilash o'rniga, uning kelib chiqishini oldini olmoq maqsadga muvofiq. Aniqrog'i, "sabab" bilan ishlash murakkab tus olishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini oladi. Bu jarayon pedagogikada qaytar aloqa prinsipiga muvofiq keladi. "Nima uchun? " degan savol o'rtaga tashlanib, sabab tahlil etilsa, ya'ni o'rganilsa, oqibatga o'rin qolmaydi. Bola hissiyotga beriluvchan bo'lishi barobarida ehtiyojmand ham bo'ladi. Hissiy ruh asosida ma'naviy - ahloqiy va aqliy tarbiyaning berilishi tafakkur va xotira ko'lamini kengaytiradi. Bolada o'ziga xos xarakter xislatlari shakllanadi. Bu jarayonda bola xulq - atvor me'yorlariga to'liq amal qilib faoliyat yuritish lozimligini anglab etadi. Har xil olatarsaki harakatlardan tiyiladi. Kimgadir taqlid qiladi, kimgadir ergashadi. Asta - sekin nimalarga yoki kimlargadir qattiq ishona boshlaydi.

Va shu ishonch o'laroq e'tiqod shakllanadi. Bolalikda ota-onaga, ustozga, do'stga, yosh ulg'ayganda Ollohga, diniy qadriyatlarga, turmush o'rtog'i hamda farzanlariga suyanish e'tiqodlilik alomatidir. Tadqiqotga oid olib borayotgan izlanishlarimiz o'laroq, oqibatgacha bo'lgan jarayonga bolaning xulq- atvoriga oid quyidagi holatlarni kiritish mumkinligi aniqlandi. Bular: to'g'ri salomlashishni bilmaydigan, olifta, saqich chaynaydigan, to'g'ri kelgan joyga tuflaydigan, telefon o'ynaydigan, har xil kiyimda yuradigan, o'ziga e'tibor talab, darsga kechikib keladigan, o'qituvchiga gap qaytaradigan, urishqoq, uyiga

ham kech keladigan, ko'cha –ko'yda sang'ib yuradigan, o'yinqaroq, bir oz yolg'onchi, darsda boshqalarga xalaqt beradigan, o'zi darsga tayyorlanib kelmaydigan, tarbiyaviy tadbirlardan ketib qoladigan, shanbaliklarda faol qatnashmaydigan, berilgan jamoat topshiriqlarini ko'ngildagidek bajarmaydigan, ammo liderlikni xohlovchi, ujar, noodatiy harakatlar qiladigan, erkinlikni xohlovchi va boshqalarni ham shunga da'vat etuvchi, xulqiga oid kamchiliklarni tan olsada uni isloh etmovchi, jamoada o'zining munosib o'rniga ega bo'la olmagan, chekish va ichishga moyilligi bor, ota – onalar yig'ilishida tilga olib o'tilgan o'quvchilar hisoblanib, ko'rib o'tilgan nuqsonlarning oldi olinmasa, ya'ni yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar olib borilmasa, axloq buzarlarning, ya'ni deviant xulq – atvorni kelib chiqishiga yo'l ochiladi. Bu toifaga kiruvchi o'quvchilarni hozircha to'laqonli "nazoratsiz" yoki "qarovsiz" deb bo'lmaydi.

Qolaversa, yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlarni bitta bolaga emas, balki bir nechta bolaga xos deb qabul qilish lozim. "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida (2010 y. 28 avg.) *nazoratsiz* – ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga etmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishidan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga etmagan; *Qarovsiz* – aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan voyaga etmagan;

Yuqoridagi sifatlarga ega o'quvchilarni "tarbiyasi og'ir" deb aytishga hali erta. Balog'at yoshining o'ziga xos ruhiy- fiziologik xususiyatlari ta'sirida bola atrofga ko'proq tanqidiy ko'z bilan qarovchi, izzat talab, o'zini kattalardek tutishga harakat qiluvchi, ancha-muncha to'g'ri gaplarni "menga aytilayotgan nasihat" deb qarovchi, o'zini ko'p narsani biladigan, o'z kuchi qudratiga

ortiqcha ishonadigan, ammo oyoq ostiga qarab ish yurituvchi, istiqbolni ko'p ham o'ylab o'tirmaydigan yosh davri hisoblanib, bunda ota- ona va pedagoglarni hamkorlikda, kelishib faoliyat olib borishlari talab etiladi. Ayniqsa, ota- onalar bu sohada o'ziga xos pedagogik bilim va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Bola bilan buyruq ohangida emas, ko'proq maslahat ohangida, ota- ona ham, o'qituvchi ham o'ziga yaqin olib muloqatda bo'lishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu qonunnig 3- moddasida *voyaga etmagan* – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs;-ekanligi ko'rsatib qo'yilgan. Shunday ekan, bu yosh davri ayni paytda bola hisoblanib, mustaqil fikri, bilimi, hayot tajribasi ham shakllanish bosqichida ekanligi nazarda tutiladi. Xulq – atvori pedagogik – psixologik nazoratni talab etadigan o'quvchilar toifasini tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali nazoratsizlik va qarovsizlikdan qaytarib qolish mumkin. Oilada va maktabda bolaning tarbiyasiga bir oz bo'lsada e'tiborsizlik bilan karash bolani bema'ni xatti –harakatlar kilishiga olib kelishini unutmash lozim.

Demak, bema'ni bolalarni xam "qarovsiz kolib ketgan" yoki "tarbiyasi ogir" demaslik maksadga muvofiq hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida "bema'ni" so'zi odob - qoida doirasidan tashqari; ma'nosi, mazmuni yo'q; bo'lmag'ur; nojo'ya; kabi ma'nolarni anglatishi keltirilgan Ba'zan "bema'nida nama'ni" so'zining ishlatilishi ham bejiz emasligiga e'tibor bersa bo'ladi.

"Sog'lom bola" Davlat dasturida belgilanganidek, shaxsni ruhiy-jismoniy, ma'naviy-ahloqiy hamda intellektual jihatdan tarbiyalash bilan izchil bog'liq bo'lgan uzluksuz ta'lim tizimi asosida har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirish nazarda tutiladi.

Barkamol shaxs shakllanishining poydevori oilada quyiladi. Oildagi ichki muhit, hayot tarzi hamda bola tarbiyasiga oid pedagogik – psixologik qonuniyatlarni bilish sog'lom bola shaxsi rivojining garovidir. Qolaversa, oila va maktabning bola

tarbiyasidagi rejali hamda maqsadli hamkorligi bolada yaxshi xulq hamda xarakter xususiyatlarini tarkib topdiradi. Bolani be'mani xatti - harakatlaridan saqlab, sog'lom o'sishini ta'minlashda oila tarbiyasiga oid quyidagi ichki qonuniyatlarga amal qilish tavsiya etiladi.

Birinchi qonuniyat. Bolani mehr bilan tarbiyalash, uni chaqaloqlik davridan gapga solish, alla aytish, vaqti –vaqti bilan bag'riga bosib suyush, o'z navbatida onaga nisbatan bolada ham mehr paydo qiladi.

Ikkinchi qonuniyat. Farzand tarbiyasi ota- onaning asosiy burchi hisoblanib, bolani sog'lom o'sishida uni faqat yaxshi kayfiyatda, ovozni baland ko'tarmay tarbiyalash lozim. Bolada biron bir kamchilik kuzatilsa, tanbeh berishga shoshilmaslik kerak. Avval uning sababini o'rganish va oldini olish yo'llarini belgilash lozim.

Uchinchi qonuniyat. Tarbiya ishida o'ta yumshoqlik va qattiqqo'llik ketmaydi. Bolaning individual xususiyatidan kelib chiqib, me'yorni aniqlang. Farzandga erkinlik bering. U nimani istashini aniq biling. Bolani har doim shoshmay va shoshiltirmay eshiting.

To'rtinchi qonuniyat. Ota – ona bola uchun har doim ibrat bo'lishi, nafaqat bolaning ko'z o'ngida, balki, u bo'lmagan paytlarda ham har narsadan tarbiyani ustun qo'yish lozim. Ayniqsa, ota bilan o'g'il, ona bilan qiz tarbiyasining o'ziga xos nozik jihatlariga e'tibor berish talab qilinadi. Chunki, bola ota-onaga albatta taqlid qiladi.

Beshinchi qonuniyat. Farzandingizni o'zi haqida qanday fikrda ekanligini aniqlab boring. Shunda kelgusida qanday kasb sohibi bo'lishi ayon bo'ladi. Bundan tashqari, farzandingizni siz haqqingizda ham qanday fikr- mulohazalari borligini bilib borishingiz oilada o'zaro munosabatlar muvozanatini ta'minlash omili bo'ladi.

Oltinchi qonuniyat. Farzandingizni oilaviy an'analar qatorida milliy an'analarimiz bilan ham yaqindan tanishishtirib boring. Lozim paytlarda birgalikda tug'ilgan kunlarga, to'y va turli marosimlarga olib borishni odatlantiring. Shunda mehmon kutish, mehmonga borish tartib- qoidalarini o'rganadi. Milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil eta oladi.

Ettinchi qonuniyat. Bolani har doim mehnat qilishga o'rgating. Qanday ishning boshini tutsangiz, imkon qadar farzandingiz yoningizda bo'lsin. Oila byudjeti, tejamkorlik, sarf – harajatlarni bola yaxshi bilishi lozim.

Sakkizinchi qonuniyat. Bolani yoshiga xos kundalik rejimi bo'lsin. Shunga ko'ra oilaviy sport- sog'lomlashtirish, kitob o'qish va madaniy dam olish, kundalik odat tusini olgan bo'lib, bo'sh vaqtni ijtimoiy faol harakat bilan uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, farzand tarbiyasida belgilab qo'yilgan alohida metod va usullar yo'q. Hamma gap ota – onani oilaviy tarbiyada pedagogik -psixologik bilim egasi bo'lishlari bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda bolaning xatti-harakatini qat'iy nazoratga olib, ongi shuuriga tayyor qoidalarni, navbatchi gaplarni singdirishga urinmang. Bolani shaxs sifatida hurmat qilib, erkinlik berish, o'zaro hamfikrlikda ish yuritish lozim.

BOLALAR JISMONIY TAYYORGARLIGI HARAKAT FAOLLIGINING ASOSLARI

Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotida jismoniy tayyorgarlik (tayyorlash) atamasi «Jismoniy holat», «Jismoniy rivojlanish», «Jismoniy sifatlar» kabi iboralarning asosini tashkil etish bilan birgalikda, ularni amaliy jihatdan foydalanishda muhim o'rinda turadi. Chunki bu ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida

kishilarning yoshi, jinsi, salomatligi, istak va qiziqishlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababdan jismoniy tayyorgarlik mazmun, shakl va mohiyat jihatidan hayotda o'z o'rniga egadir. O'quvchi-yoshlar, bolalarni jismoniy madaniyat dasturi talablarini bajarishga tayyorlash, sportchilarning mahoratini oshirishda ularning jismoniy tayyorgarliklarini ta'minlash kabi o'ta ma'suliyatli tarbiyaviy jarayonlar mavjud.

Mehnatkash aholini «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarini bajarish va turli musobaqalarda ishtirokini ta'minlashda ularning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash ham muhim ahamiyatga egadir. Bunday jihatlar turli tarmoqlarda mavjud bo'lib, ularni maxsus jismoniy madaniyatlash (sport komandalari, harbiylar, ichki ishlar, o't o'chirish va hokazo) amalga oshiriladi. Bular o'z navbatida o'ta murakkab va mas'uliyatli tarbiyaviy jarayon sifatida dolzarb muammolardan biridir. Shu sababdan barcha sohalaridagi bo'lajak mutaxassislarni bunday ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlar bilan tanishtirish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Vazifalar: Yuqorida bayon etilgan maqsadlar asosida quyidagi vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi, ya'ni:

1. Inson faoliyatidagi jismoniy holatlarni tasvir etish va ularni baholash.
2. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus xususiyatlari bilan bolalarni tanishtirish.
3. Jismoniy tayyorgarlikning ijtimoiy-mehnat sharoitlaridagi o'rni, vazifasi va mazmuni bilan qurollantirish.
4. Jismoniy tayyorgarlikning yosh, jins va salomatlikka qarab qo'llanilish usullarini o'rgatish va hokazo.
5. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi o'z tajribalari asosida har bir soha bo'yicha amaliy takliflarni tavsiya etishi lozim.
6. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus xususiyatlari

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-mehnat va sog'liqni saqlash tizimidagi barcha tadbirlar aholining sog'lom turmush tarzini yaxshilash, ularning mehnat qobiliyatini oshirish hamda uzoq yillar sog'lom yashashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Sanoat ishlab chiqarishi, qurilishlar, qishloq va suv xo'jaligidagi mehnat faoliyatlarda jismonan barkamol bo'lishni taqozo etadi. Shu sababdan kishilarning sog'ligini mustahkamlash, mehnat qobiliyatlarini takomillashtirish va mehnat samaradorligini oshirish yo'lida jismoniy madaniyat va sportga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (27 may 1999 y.) faqat sportnigina rivojlantirish, u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni (sport inshootlarini yaxshilash, kadrlar tayyorlash, xalqaro sport maydonlarida g'alabalarga erishish va hokazo) hal qilish bilan chegaralanadi. Aksincha, aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi-yoshlar va bolalarning jismoniy barkamolligini ta'minlash, mehnatkash ishchi-xizmatchi va ziyolilarni jismoniy madaniyat va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etishga qaratilgandir.

Mamlakatda aholi o'rtasida jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirishning asosiy maqsadi shundaki, insonlarning doimo sog'lom bo'lishi, bolalikdan jismoniy madaniyat bilan shug'ullanishga odatlantirish, iqtidorli yoshlarni sportga safarbar etish, sportchilarning jahon sport maydonlarida ishtirok etishi hamda yutuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston shuhratini jahonda yanada kengaytirishga qaratilgan. Ikkinchi tomondan esa, hozirgi davr texnik taraqqiyoti natijasida ko'pchilik mutaxassislarining o'tirib ishlashi, ijod qilishi kam harakat qilishiga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida qon aylanish tizimining o'ta susayishi, ya'ni gipodinamiya kasalligiga chalinishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan esa, tamaki chekish, turli giyohlar va spirt ichimliklarini yoshlikdan ko'p iste'mol qilish, turli xil yuqumli kasalliklarning (gripp turlari) kelib kirishi hamda shunga o'xshash turli xil sabablar orqali kasalmand kishilar ko'paymoqda. To'rtinchidan - maktabgacha tarbiya muassasalari, barcha turdagi ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat darslarining saviyasi pastligi, ommaviy sog'lomlashtirish jismoniy madaniyat - sport tadbirlariga yoshlarni ommaviy ravishda jalb etishining qoniqarsizligi 60-70 % o'quvchi-yoshlar va bolalarning jismoniy madaniyat dasturi talablari hamda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari normativlarini o'z vaqtida bajara olmasligi ma'lum bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan eng muhim muammolar tarkibida yana juda ko'p kamchiliklar oqimi davom etmoqda. Bularning mazmuni va negizida jismoniy madaniyat, jismoniy rivojlanish hamda jismoniy tayyorgarlik kabi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarning chuqur singib ketmaganligi aynan namoyon bo'lmoqda. Jismoniy tayyorgarlik tushunchasi shundan iboratki, har bir inson, ayniqsa, mehnatkashlar (aqliy va jismoniy sohada) va o'quvchi-yoshlarning har qanday mehnatga yaroqliligi (qobiliyati), doimo tayyor bo'lib turishi, jismonan baquvvat, chiniqqan bo'lishidagi faol harakatlardir. Bunday amaliy faoliyatlar faqat jismoniy mehnat va jismoniy mashqlarni bajarish yo'li bilan vujudga keladi va mustahkamlanadi. Xalq orasida «Sog'liq pulga topilmaydi» degan naql bor. Bu haqiqatdir. Kasallikka chalingan kishilar buni yaxshi idrok etishadi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlash va uni mustahkamlashda jismoniy mashqlarni (badan tarbiya) har qanday doridan ustun qo'yadi. Qadimgi davrlarda falsafachilar salomatlikni ulug'laganlar. Bir badavlat kishi falsafachidan so'radi: «Inson xayotida eng ulug' narsa nima, davlatmi yoki shon-shuhrat?» U kishi shunday javob qilibdi: «Na boylik va na shon-

shuxrat insonni baxtli qila olmaydi. Salomatlik baxt va quvonchning bir manbaidir». Haqiqatan ham insonlarga eng katta baxt, shodlik-quvonch keltiruvchi narsa sog'liqdir. Sog'liqdan ortiq qimmatli narsa yer yuzida yo'q. Bu qat'iy va haqiqiy (obyektiv) xukmdir. Inson salomatligi haqida mulohaza yuritilsa, albatta uni doimo saqlash, imkoniyat darajasida rivojlantirish lozim bo'ladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik (tayyorlash) eng ustuvor tadbir bo'lmog'i zarur. Boshda ta'kidlanganidek, jismoniy tayyorgarlik ko'rish shug'ullanuv-chilarning (tarbiyalanuvchilar) eng avvalo yoshi, jinsi va jismoniy holati (kasal yoki sog') e'tiborga olinadi. Shu asosda beriladigan (bajariladigan) mashqlarning turkumi (kompleks), miqdori va bajarish usullari belgilanadi (rejalashtiriladi).

Ta'kidlanganidek, shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy holatlariga qarab o'tkaziladigan mashg'ulotlarning ko'lami g'oyat keng. Ularning har biri alohida mavzudir. Shu sababdan jismoniy tayyorgarlikning umumiy xususiyatlarigagina qisman to'xtalish zarurdir.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik deganda, har bir shug'ullanuvchining jismonan barkamolligi tushuniladi, ya'ni tez harakat qilish, turli xil mehnatlarni yengil bajara olish, chaqqon, kuchli va boshqa jismoniy sifatlarga ega bo'lishdir. Bunday fazilatlar va jismoniy sifatlarga ega bo'lish uchun esa har doim jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish lozim bo'ladi. Bunda kundalik rejimga (ertalab, kechki bo'sh payt, dam olish kuni va hokazo) jismoniy madaniyat mashg'ulotlarni kiritish shartdir.

O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablari, akademik-litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat darslari umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini to'la bera olmaydi. Chunki haftada 1-2 soatlik darslar mushak va bo'g'inlarga to'la kuch,

harakatchanligini butun hafta davomida saqlashini ta'minlay olmaydi. Jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish uchun esa har kuni ertalab va kechki paytda jismoniy madaniyat va sportning u yoki bu turi bilan astoydil shug'ullanishni taqozo etadi. Buning o'rnini sport to'garaklari va sport musobaqalarigina bosishi (egallash) mumkin. Ya'ni jismoniy tayyorgarlikning asosiy yo'li har kungi jismoniy madaniyat yoki sport to'garaklari mashg'ulotlari (haftada 2-3 marta) hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotida umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosiy manbalari sifatida gimnastika, yengil atletika, suvda suzish, futbol, sport o'yinlari, xalq milliy harakatli o'yinlari, sayohatlar (turizm) va boshqa vositalarni tan olinadi. O'quvchi-yoshlar, bolalar va yosh mehnatkashlar yuqorida bayon etilgan jismoniy madaniyat vositalarini (sport turlari) darslar, mashg'ulotlar va musobaqalar orqali yaxshi tasavvur etishadi. qolaversa, sport turlari bo'yicha davlat tilida yangidani nashr etilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar ko'paymoqda. Shu sababdan ularning umumiy jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalashdagi mazmunlari hamda mohiyatlari haqida batafsil to'xtalishga hojat yo'q.

Xulosa qilib aytganda, umumiy jismoniy tayyorgarlikning belgisi va natijalari quyidagi yo'nalishlarda ma'lum bo'ladi, ya'ni:

1. Jismoniy mehnat qilishda tezda toliqmaslik, charchamaslik.
2. Ob-havoning issiq-sovug'iga chiday olish.
3. Turli xil kasalliklarga tezda chalinmaslik.
4. Jismoniy mashqlarni (qo'lda tortilish, yotgan holda tirsaklarni bukib-yozish, tosh (gir) ko'tarish, tez yugurish va hokazo) erkin bajara olish.
5. Futbol, basketbol, voleybol, tennis kabi sport o'yinlarida ishtirok etish.
6. O'zi sevgan sport turi bilan muntazam shug'ullanish.

7. O'rta va uzoq masofalarga yugurishda charchamaslik, chidash, suvda suzish va hokazo/

8. Maxsus jismoniy tayyorgarlikning xususiyatlari.

Insoniyat paydo bo'lib, ijtimoiy tuzilmalarning (farmasiya) o'zgarishi, rivojlanishi natijasida ularning mehnat va ijtimoiy turmushda eng asosiy o'rinni egallagan jihatlardan biri jismoniy jihatdan har tomonlama rivoj topish ustun bo'lgan. Bu, albatta, tabiiy bir holdir. Chunki hayvonlarni ov qilish yoki ularning hujumiga qarshi turish (ibtidoiy jamoa tuzumi). Yer va mulk egasi bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish ma'lum darajada tengsizlikni (feodalizm davri) vujudga keltirgan. Bunday jarayonlar urug'lar, qabilalar, davlatlarning o'zaro urushlariga sabab bo'lgan. Barcha ko'ngilsiz, noxush voqyealardan xalos bo'lish, qarama-qarshiliklarni yengish yoki ularga bardosh berish uchun jismoniy qobiliyatlarga (kurash, mushtlashish, nayza sanchish, qilichlashish, kamondan o'q otish va hokazo) ega bo'lishni taqozo etgan. Natijada barcha joylarda jismoniy chiniqish va tayyorgarlik jarayonlarining u yoki bu turi hamda usullariga alohida e'tibor berilgan. Ularni Markaziy Osiyo, ayniqsa, hozirgi O'zbekiston hududlarida yashab o'tgan avlod-ajdodlar misolida ham ko'rish mumkin. Bundan uch ming yillar avval yashagan zardushtiylar (hozirgi Xorazm vohasi va uning atroflari) hayoti haqida «Avesto» (zardushtiylar qomusi) kitobi dalildir. Unda faqat xudoga sig'inish va janglarda g'olib chiqishgina tasvir etib qolinmasdan, balki ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlar, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat ham yuksak darajada o'z ifodasini topgan. Uning negizida esa bolalikdan odob, mehnat qilish, jismonan chiniqtirish masalalari ustivor turadi. «Alpomish» dostonida qadimgi avlodlarning madaniy urf-odatlarini, oriyat uchun o'z jonini ham ayamasklik, Vatan, el-yurt uchun jasorat ko'rsatish hislatlari kuylanadi. Alpomish timsolida kurashda yengilmaslikka, chavandozlikda chidamlilik, kamondan o'q otishda mahorat, kuch

va merganlik kabi jismoniy sifatlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, «To'maris afsonasi»da (Tarixiy shaxs-ayol, taxminan eradan avvalgi VII-V asrlar) xotin-qizlarning Vatan uchun kurashi, oriyat uchun qasos olish kabi xislatlar, jasoratlar bayon etiladi. Shunga o'xshash voqeyeliklar va afsonalari «Go'ro'g'li» turkumidagi xalq og'zaki ijodi durdonalari, «Qirqqiz», «Kuntug'mish», «Tohir va Zuhra» dostonlarida ham uchratish mumkin.

Ayniqsa, hunarni egallash, harbiylikdagi jasorat ko'rsatish kabi maxsus tayyorgarlik jarayonlari buyuk sarkarda Amir Temur va uning sulolalari (Mirzo Ulug'bek, Bobur va hokazo) hayotida amaliy jihatdan o'z mazmuniga ega bo'lgan. Sharq she'riyatining sultoni, hazrat Alisher Navoiyning «Xamsa»sarida va undan keyingi davrlarda ijod etgan shoirlar, falsafachilar, solnomachilar (tarixchilar) va boshqalarning asarlarida qaxramonlik, jangovorlik, kasb-hunar egalari to'laqonlik bilan tasvirlangan. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Ahmad polvon, Hoji Abla, Hojimurod polvon kabi shaxslar butun Markaziy Osiyoda kurashlarda qatnashib, yelkasi yerga tegmagan. Bunday tarixiy shaxslar yurtimizning barcha hududlarida mavjud bo'lgan. Umuman olganda, jangovorlik, qahramonlik, kasb-hunar va oriyat yo'lida maxsus xizmatlar, tayyorgarlik faoliyatlar cheksiz ko'p va keng bo'lganligi haqida tarixiy manbalar, badiiy asarlar, tasvirlarda ularni uchratish mumkin.

Xulosa qilib, aytganda barcha jangovorlik va ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi tadbirlar mazmunida iqtidorli kishilarni maxsus jismoniy tayyorlash tadbirlari keng miqyosda olib borilgan. Bu meroslar bizning davrimizgacha yetib kelib, ularning shakllari, mazmunlari va mohiyatlari hozirgi davr talablari asosida takomillashtirilmoqda.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING O'RNINI

Oila mustahkamligini ta'minlash, bu qutlug' dargohni har tomonlama qo'llab quvvatlash borasida Bosh qomusimiz yaratilayotgan paytdayoq asos solingan edi. Chunochi O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasining 63-moddasi,1-qismida shunday deyiladi "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir va davlat muhofazasida bolishi huquqiga ega".Konstitutsiya asosida yaratilgan "Oila ko'deksi"ning ham alohida moddalarida belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, 2009-yil 13-apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimsha chora tadbirlar to'g'risida"gi Qarori o'sha yilning 1-iyulida qabul qilingan "2009-2013-2014 yillarda aholing reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish chora tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Qarori hayot uchun, kelajak avlod uchun nechog'li zarur ekanligi o'z tasdig'ini topmoqda. Bu borada viloyatimiz miqiyosida ham ko'plab tadbirlar o'tkazildi va o'tkazilyabdi.

Oila tarbiyasi ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi. Shaxs

shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga hos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmining ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo''tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg'u xalqimiz ruhiyatidagi o'ziga hos xususiyatlardan biridir.

Oila tarbiyasida ob'ektiv va sub'ektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar ob'ektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar sub'ektiv omillar sirasiga kiradi. Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo'lib, bu oila tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim.

Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari — jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan

iborat. Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya o'zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkamlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi. Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to'la orom olishini ta'minlaydi. Bu esa butun organizmning mo''tadil o'sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Inson salomatligini saqlashda ertalabki badantarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badantarbiya bilan shug'ullanishga ko'niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badantarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o'rgatib boradi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish

asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada g'iziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi.

Oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki hotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir.

Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yorida ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, hushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tabiat bag'riga, muzey, ko'rgazma, kino va

teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir. Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim.

Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi. Oilada mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajarilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibratini, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgarar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi. Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofiqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi.

Oilada muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan

ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi. Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog'liq. Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'lanadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodhonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir (iqtisodiy tarbiya).

I.A Karimovning "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida "Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning boy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak" deydi. Bunday avlodni tarbiyalash mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasiga, undan so'ng maktab va o'quv yurtlari zimmasiga tushadi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yillardanoq bolalar va o'smirlarning jismonan sog'lom va baquvvat, ruhan barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilishga katta e'tibor qaratildi. Hammamizga ma'lumki mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning, ayniqsa, o'smirlarning sog'lom o'sib ulg'ayishi, ilm olishi, kasb - hunar egallashi uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Bu

borada jamoat tashkilotlarining ham o'zni kattadir. Shubhasiz ota-ona, oila, mahalla, maktab bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizni chiroyli odob-ahloq, yahshi ta'lim-tarbiya asoslarida voyaga yetkazish davlat miqiyosidagi dolzarb masala ekanini har birimiz yahshi tushunamiz va bunga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Buyuk ham yurtimiz Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasi haqida bunday degan edi : "Yosh bola ta'lim-tarbiya oladigan joyda odob-ahloqni, turish-turmushi namunali bolalar bo'lishi lozim. Zero yosh bola har bir narsani taqlid qilib o'rganadi va ular bilan do'st bo'ladi".

OTA-ONALARNING TARBIYACHILIK MADANIYATI – SOG'LOM BOLA TARBIYASINING ASOSI

Shaxs va uning kamoloti muammosi o'z taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga intilayotgan jamiyatimiz uchun eng dolzarb masalalardandir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng davlatimiz tomonidan har bir fuqaroning ma'naviy, shaxsiy rivojlanishi va kamoloti, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligiga muhim qadriyat sifatida qaralmoqda. Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olish masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi, mana bir necha yildirki "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili", "Mustahkam oila yili", "Sog'lom bola yili" deya yillarga nom berilishi va shunga ko'ra davlat dasturlarining ishlab chiqilishi – bu fikrning yorqin isbotidir.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, inson omilini har tomonlama kamol toptirish, o'zaro yordam, o'rtoqlik munosabatlarini yanada yaxshilash, shaxsiy oilaviy va ijtimoiy hayotda oddiylik va halollik, xushmuomalalik va rostgo'ylik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar oilada shakllanadi. Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi va ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab etishtiruvchi muqaddas dargoh. Bugungi kunda mamlakatimizda

oilalar erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi. Oiladagi ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va yaxshilash o'sib kelayotgan farzandlar tarbiyasi samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yunon faylasufi Arastu aytganidek: "Tarbiya 3 narsaga ehtiyoj sezadi: ilmga, iste'dodga va mashqqa". Farzand tarbiyasi o'ta murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, u ana shu 3 narsaga har jihatdan bog'liq. Ayniqsa, bugungi shiddatli asrimizning tobora rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari davrida yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashda erkak va ayol faolligi va bab-baravar javobgarligi asosiy omil hisoblanadi.

Bolalarning tarbiyaviy taraqqiyoti saviyasi ko'p jihatdan quyidagi omillarga: 1) ta-onalarning savodxonligiga; 2) Oilaning moddiy ta'minotiga; 3) Oiladagi bolalar soniga; 4) Oilada ota yoki onaning borligiga yoki onaning borligiga yoki birortasining yo'qligiga; 4) Ota-onalarning ma'lumoti, kasbiga va hokazolarga bog'liq.

Bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va o'z hayot yo'lida mustaqil qadam tashlashida esa ko'p jihatdan oilaning ruhiy muhiti, oila azolarining o'zaro munosabatlari asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunday ekan, oila qurgan har bir yigit-qiz o'zlarining yangi mustaqil oilalarida birinchi navbatda sog'lom ma'naviy muhitni yaratishga intilishi kerak. Bunda esa: Tibbiy bilimlarga ega bo'lishi - o'z sog'ligiga bee'tibor bo'lmaslik, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sport va jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi, jismonan sog'lom farzandlarni dunyoga keltirish, oilasini va farzandalarin turli xil xavfli kasalliklardan (OIV, OITS, virusli infekstiyalar va hokazolar) himoya qilish uchun. Ekologik bilimlarga ega bo'lishi -farzandlarga ona tabiatni sevish, undan bahra olish va uni ehtiyot qilish, avaylab asrash va zarar etkazmaslikni o'rgatish uchun.

Ma'naviyatli va madaniyatli bo'lishi –samimiylik, xushmuomalalik, halollik, rostgo'ylik, mehr – oqibatlilik, insoniylik, vatanparvarlik va oilaparvarlik xislatlarini shakllantirish uchun; kiyinish madaniyati, odob –axloqli etib tarbiyalash, o'ziga va xalqiga ishonchi va sadoqatini mustahkamlash, millatiga, milliy urf – odatlari, udum va an'analariga xurmat bilan qarashni, o'z tarixi va ajdodlari bilan faxrlanishni o'rgatish uchun.

Diniy bilimlarga ega bo'lish – bu farzandlariga din to'g'risida to'g'ri tushunchalar berish, ularni iymon e'tiqodli,halol va vijdonli qilib tarbiyalash, ularni turli xil diniy oqimlar ta'siriga tushib qolmasligini oldini olish maqsadida. Ilmli va kasb – hunarli bo'lishi – farzandlarni o'z ustida ishlashga, izlanishga, kitob o'qishga, mehnat qilishga o'rgatish uchun, ularni yuksak ma'naviy ehtiyojlarini shakllanishiga, hayot va olamni anglashiga zamin yaratish uchun. Pedagogik bilimlarga ega bo'lishi – bolalarni tarbiyalash jarayonida ularning bilim va imkoniyatlarini anglash va to'g'ri baholash, qobiliyat, iste'dodi va qiziqishlarini o'z vaqtida aniqlab ularni rag'batlantirish uchun.

Psixologik bilimlarga ega bo'lishi – farzandalarning ruhiyati va unda kechayotgan o'zgarishlarni kuzatish, anglash va to'g'ri yo'l ko'rsatish, ularni o'z kuchi va imkoniyatlariga ishontirish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga, ularda “MEN” ni to'g'ri shakllantirish va ota-onalar va farzandlar o'rtasida do'stona munosabatni yaratish, boshqaruvchanlik va tashabbuskorlik kabi xislatlarni shakllantirish uchun.

Texnik va texnologik bilimlarga ega bo'lishi – zamonaviy texnika va texnologiya vositalaridan to'g'ri va me'yorida foydalanish, ularni tezda o'zlashtirishni o'rgatish uchun va hokazolar. Albatta, farzand tarbiyasida faqatgina ota-ona mas'ul va faqatgina ular bu jarayonda qatnashadi degan fikrdan yiroqmiz. Chunonchi, xalqimizda “bir bolaga etti mahalla ota- ona”, “Ustoz otangday ulug'” degan hikmatli naqlar bor.

Farzandlarimiz ulg'aygan sari ular maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, kollej va listeylarda, oliy o'quv yurtlarida o'zlariga ko'p do'stlar orttirishadi. Ularning tarbiyasiga do'stlarining, ustozlarining, qarindosh – urug'lari-yu mahalla-ko'yning ta'siri juda sezilarli. Ayniqsa, bugungi kunga kelib, bularning safiga qo'shilgan tezkor axborotlarni uzatuvchi kommunikation vositalar (multfilmlar, kino va seriallar, har xil ko'rsatuvlar) ham tarbiya jarayonida qatnashishmoqda va o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda. Lekin dono xalqimiz aytganidek “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, “Olmaning tagiga olma tushadi”. Oila tarbiyaning asosi hisoblanadi. Farzandga olam haqidagi ilk tasavvurni ota-onasi beradi, ilk yaxshiliklarni ota – onasi qiladi, unga eng yaxshi va eng yomon xislatlar ota-onasidan gen va tarbiya orqali o'tib boraveradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda oilalarni moddiy farovonligini oshirilishi va moddiy texnika bazasining rivojlantirilishi – bu oilalarimizda yuksak ma'naviyatli o'g'il qizlarning voyaga etishlari, ularni har tomonlama – ham ma'nau, ham moddiy jihatdan ta'minlash va rag'batlantirish uchun qilinayotgan ishlardir. Jamiyatimiz poydevori bo'lmish oilalarda sog'lom ma'naviy muhit barqaror ekan unda xalqimizning eng yuksak orzulari ushaladi, komil insonlar dunyoga keladi. Zero farzandlarni to'g'ri tarbiyalash nafaqat ota onalik burchi, balki har bir insonning muqaddas insoniylik burchi hisoblanadi.

PEDAGOGIK QOROVSIKLIKNI BARTARAF ETISHDA TARBIYACHINING KASBIY FAOLIYATI

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy tarbiyashunoslik nazariyasi va amaliyotida innovastion yondashuvlar, izlanishlar, tadqiqot muammolariga oid echimlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar namoyon bo'lmoqda.

Takidlovchi eksperiment jarayonida tadqiqotga jalb etilgan guruh jamoasi, ya'ni har bir ijtimoiy guruhning o'ziga xos «xulq-atvori», «xarakteri», o'rganildi. Guruh jamoasi a'zosining guruhdagi o'rniga qarab shaxslararo munosabat masalasi, shaxsiy va institustional (umumijtimoiy) ehtiyojlar va talablar muayyan faoliyat mazmunida aks etishiga e'tibor qaratildi. Bu o'rinda pedagogik maqsadga qaratilgan o'zaro munosabatlar tarbiyachi – murabbiy tomonidan nazoratda bo'lsa (87-88 foiz), nazoratdan tashqari, ya'ni tarbiyachi – murabbiy bilmaydigan, ba'zan bilib turib, e'tiborsiz qaraydigan yoki unga «bo'ysinmaydigan» ichki va tashqi munosabatlarga kiruvchilar ham mavjud ekanligi aniqlandi. Ichki munosabatlar deganda guruh jamoasi orasidagi alohida kichik guruhlarda kechadigan o'zaro munosabat, aloqa va hamkorlik tushunilsa, tashqi munosabatlarga esa, guruh jamoasi a'zosini boshqa guruh jamoasi a'zolari bilan munosabati, o'zining alohida do'st va tengqurlari bilan bo'ladigan muloqot, yashab turgan mahalla, qishlog'i hamda jamoat joylarida o'zini tutishi, boshqarishi bilan bog'liq bo'lgan aloqalar o'rnatildi.

Ichki munosabatlarga kirishuvchi yoshlar ko'proq o'zlarining qiziqishlari, xobbisi, xarakter xususiyatlarini nisbatdan mos kelishiga qarab darsdan so'ngi bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishlari tahlil etildi. Bu guruhga kiruvchilar 8-10 foizni tashkil etdi. Bunda aniq masadning o'zi yo'q. Shunday bo'lsada, o'zlari uchun «foydali ish» deb topilgan bekorchilikni kasb qilib olishlari pedagogik talablarga to'g'ri kelmaydi.

Tashqi munosabatlarda bo'luvchi yoshlar esa ko'proq yakka tartibda faoliyat yuritishni, birovlariga qo'shila bermaslikni ko'proq xush ko'rishlari o'rganildi. Bular joylarda 2-3 foizdan 5-6 foizgacha bo'lishlari mumkinligi aniqlandi. Bunday yoshlar avval o'zlarining ichki qiziqishlari, ya'ni «xobbi»lariga qarab jamoat joylarida, bozor-o'charlarda, savdo markazlari, saylgoh (park), kino, diskoteka, umumiy ovqatlanish markazlarida, restoran va

mehmonxonalarda, avtobus bekatlari atrofida aylanib yurishni, yangi tanishlar orttirishni, iloji bo'lsa qo'shimcha ish topish ilinjisida bo'lishni va jumladan qizlar bilan tanishishni xush ko'ruvchilar bo'lib chiqishdi.

Yakka tartibda, hech kimga qo'shilmay yuradigan va uni qaerdaligini atrofida bilib-bilmay qoladigan holatlar shubha va ba'zan xavf-xatar tug'dirishga olib keladi. Chunki bunday yoshlar yomon guruhlarga, niyati buzuq to'dalarga qo'shib qolishi mumkin. Bu tartibda yuruvchi yoshlar akademik listey o'quvchilari orasida 1-2 foizni, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari orasida 2-3 foizdan 5-6 foizgacha uchrash hollari aniqlandi. O'z vaqtida tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan bunday sayoq yuruvchi o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga, turli hil to'garak mashg'ulotlari hamda sport- sog'lomlashtirish ishlariga jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'lim muassasasidan sun'iy ravshda uzilib qolgan yoshlar o'zlarini muayyan jamoaning to'laqonli a'zosi sifatida his eta olmaydilar. Qolaversa, yolg'onchilik, pand berish, va'da berib bajarmaslik, surbetlik, agressivlik kabi salbiy xislatlarga yo'l ochiladi. Oilada ota-onani, o'qish joyida tarbiyachi yoki murabbiyni aldab yurgan yoshlar bilan o'tkazgan suhbatlarimizda "O'qishga qiziqmadim", "falonchi bilan urishib qoldim", "sog'ligim bo'lmadi", "qorindoshimiznikiga ketgan edim", "ish izlab yurgan edim" kabi turli xil bahonalarni ro'kach qilishdi. Aksariyat o'qishga bormay yurgan bolalar noto'liq oiladan chiqqan bo'lib, otasi yo'q, o'gay ota yoki o'gay onaning qo'lida bo'lib, pedagogik qorovsizlik oqibatida sayoq yurishni odat qilib, hatto ayrimlari mayda o'g'riliklar bilan qo'lga tushgan hollari aniqlandi.

Yaxshi o'qimagani, surunkunali dars qoldirib, o'quv muassasasidan uzilib qolgani uchun, bir necha bolalar Baxt shahridagi maxsus kollejga yuborilganligini aniqladik. Bu o'rinda eng asosiy aybdor oila bo'lib, ota-onaning o'zaro kelishmovchiligi,

oiladagi etishmovchiliklar, o'gaychilikning ta'siri, otasi yoki onasining ichkilikka moyilligi oqibatida begunoh bola tarbiyasini buzilishiga olib kelganligi ma'lum bo'ldi.

Oliy o'quv yurti talabalari, ya'ni guruh jamoalari orasida 93-94 foiz talabalar bilim olishga, vaqtni foydali ishlarga sarf qilishga intilayotganliklari aniqlandi. Qolgan 5-6 foiz talabalar kontrakt to'lovlarini qoplash maqsadida qo'shimcha ishlash, mavsumiy ish qidirish ilinjisida darslarga kechikib kelish yoki dars qoldirish hollari aniqlandi. Bunday talabalar oliy o'quv yurti jamoat ishlarida ishtirok etishmaydi. To'garak va klub ishlarida, yoshlar markazi faoliyatida ham qatnashmasliklari aniqlandi.

Pedagogik korrekstiya ishlari (tushuntirish, qiziqtirish, otanasi bilan suhbat, individual nazoratga olish va hokazo) tarbiyachi kasb faoliyatini texnologiyalashtirishning muhim xususiyatlari tarkibiga kirishi yuqorida ko'rib o'tildi. Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, juda ko'p hollarda ekstremistik oqimlar qo'lga tushib, yoki ularning ta'siriga berilib, bir gap bilan aytganda ma'naviyatida bo'shliq paydo bo'lib qolgan yoshlar, aynan mana shu guruhlar faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Bunday fojiali, alamli kunlarni bilib-bilmay boshidan o'tkazgan yoshlar, Prezidentimizning avf etish haqidagi fikr – mulohazalaridan so'ng sag'lom hayot tarzini qaytadan tiklash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Demak, tarbiyada, shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllanishida mutlaqo bo'shliq bo'lmasligi lozim.

Ta'lim jarayonida integrastiya bilim va ko'nikmalar majmuasini kengaytiruvchi manba vazifasini bajargan bo'lsa, tarbiya jarayoniga xos integrastiya uzluksiz tarbiya tizimini bog'lovchi mexanizm vazifasini o'taydi.

Bu o'rinda quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish lozimligi aniqlandi:

1) tarbiyachi kasb faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan shar-sharoitlar yaratish;

2) zamonaviy pedagogik texnologiyalar mohiyatini belgilovchi o'quv seminarlar, seminar-treninglar tashkil etish (yosh mutaxassislar va professor-o'qituvchilarga mo'ljallangan);

3) pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish borasidagi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish;

4) uzluksiz tarbiya tizimida pedagogik faoliyatning samaradorligini aniqlashdan iborat;

Tadqiqot jarayonida davr talabi qo'yayotgan ob'ektiv shart-sharoit va pedagogik-psixologik omillarga muvofiq, tarbiyachi faoliyatini texnologiyalashtirishga qaratilgan sub'ektiv talablar: zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ehtiyoj darajasiga ko'tarilganligi; zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiqiga oid innovatsion bilim va ko'nikmalarning shakllanganligi; ta'limga oid ilg'or texnologik tajribalarni keng qamrovda tatbiq etilayotganligi; barkamol shaxs tarbiyasini ijtimoiy-pedagogik zarurat ekanligi; tarbiya texnologiyasida tegishli samaradorlik va kafolatli natijaga erishish.

Xullas, komil shaxs maqomiga etishish orzusi, avvalo oiladan boshlanadi. Insonning yoshi ulg'aygani sari oilasi va jamiyatda tutgan mavqega bo'lgan mas'uliyati yanada ortadi. Tabiiyki, har qanday oila va uning vakili mukammal bo'lish sari intiladi. Tarbiya jarayonining xususiyatlaridan kelib chiqib, tarbiyachining kasbiy faoliyati oila, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorligida rivojlanib boradi. Tarbiyashunoslik nazariyasi va amaliyotida qaytar aloqa mexanizmining ishlab chiqilishi tarbiya samaradorligini oshiradi hamda kafolatli natijaga erishishni ta'minlaydi. Tadqiqotga oid izlanishlar va ilg'or pedagogik tajribalar tarbiyachilik kasbini o'z tabiatiga ko'ra hamisha ijodiy, yangilik va bunyodkorlikka boy bo'lgan amaliy faoliyatdan iborat

ekanligini ko'rsatdi. Tarbiyachi ko'z o'ngida Mamlakat fuqarosi shakllanadi. Shunga ko'ra tarbiyachi tarbiya ishida hech qachon hatoliklarga yo'l qo'yishga ma'naviy-axloqiy haqli emas.

BOLA TARBIYASIDA MUHITNING O'RNI

Ijtimoiy psixologiyada sostium, ijtimoiy muhit orqali bolaning umuman jamiyatga kirib borish jarayoni nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy muhitda inson munosabatlari va hayoti ijtimoiy shart-sharoitlari, o'zaro ta'sir etish xususiyatiga ega. Muhit – bu nafaqat ko'cha, uy va buyumlar, muhit – bu yana o'ziga xos munosabat va qoidalar, hamda turli xil insonlar birlidir. Shuning uchun, bir tomondan inson muhitga nimadir o'zinikini olib kiradi, ma'lum bir darajada unga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablarini qo'yadi. Muhitning insonga bo'lgan munosabati, uning o'zini namoyon etishi va qanchalik muhitga moslashganligida ko'rinadi. Insonning o'zini tutishi ko'p holda jamiyatda u qanday o'rinni egallashi bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtda bir qancha rollarni egallashi mumkin. Masalan, ayol kishi o'qituvchi, rafiq, ona, qiz bo'lishi mumkin. Har bir tutgan o'rin insonga muayyan bir talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga qandaydir huquqlarni beradi. Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sostiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi. Ba'zi bir maqomlar bizga tug'ilishimizdan beriladi. Insonlik maqomi, jinsi, millati, tug'ilgan joyi, ism-sharifi va boshqalar. Bunday maqomlar tug'ma yoki orttirilgan deb ataladi. Boshqalari esa insonning o'zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlariga ko'ra erishgani bilan aniqlanadi. Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson kerakli kasbiy faoliyatni

egallaganligi va diplom olgani uchun oladi. Bu holda erishilgan yoki olingan maqom haqida gap yuritiladi.

Maqom insonning jamiyatda o'zini tutishini aniqlaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda shaxs o'zini istaganicha emas, balki o'z maqomiga ko'ra faoliyat yuritadi. Atrofidagi insonlar undan bu vaziyatlarda muayyan me'yorda ish tutishini kutadi, lekin bu me'yorlar sof individual xususiyatlarga mos kelishi kerak.

Jamiyatda nafaqat muhit bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rolni va shu bilan birga negativ rolni ham o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollar: oila a'zosi (ota va ona, buva va buvi, o'g'il yoki qiz, aka va singil, nevara va b.), jamoa a'zosi (o'quvchi, o'rtoq, do'st, etakchi va b.), iste'molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoq kiyim va b.), fuqaro (Vatanni sevadi, u bilan faxrlanadi, vatanparvar bo'lish), mutaxassis (o'qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandis va b.). Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har biri u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi. Ijtimoiylashuv jarayonida, xususan, bolaning ijtimoiy moslashuvida insonning "hammadek" bo'lishi ob'ektiv ehtiyoji namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada - boshqa ehtiyoj - o'zini o'z individualligini ko'rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidiradi, namoyon qila boshlaydi, natijada uning individuallashtirilishi sodir bo'ladi. Bola individuallashtirishida u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o'zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o'xshashiga qaramay betakror, individuallik qirralarni egallaydi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi shunday qilib ikki yo'nalish bo'yicha sodir bo'ladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajribani egallash) va individuallashuv (mustaqil bo'lish). Agar bolani sostiumga kiritishda ijtimoiylashuv va integrastiya jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya'ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o'zlashtirilgan me'yor va qoidalarni o'zlashtirsa, boshqa tomondan unga o'z ahamiyatli "umumiy"ni individualligini qo'shsa, sostiumda bolaning integrastiyasi sodir bo'ladi.

Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo'lmasa, unda o'ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo'lishi mumkin, bu shaxsni jiddiy deformastiyaga olib kelishi mumkin.

Agar bola moslashuv bosqichidan o'ta olsa va atrofdagilarga o'z individual xususiyatlarini ko'rsatishni boshlasa, atrofdagilar esa uning individualizmini jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydi deb hisoblasa, unda bolada negativlik (gumonsirashlik, agressivlik, o'ziga yuqori baho berish) rivojlanadi.

Bola rivojlanishiga tarbiya ham ta'sir ko'rsatadi. Hozir ijtimoiy psixologiyada "ijtimoiylashuv" va "tarbiya" tushunchalari keng muhokama qilinmoqda. Tarbiya shaxs ijtimoiylashuvida asosiy omillardan biri. Agar bola ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirmasa (muhitning negativ ta'siri natijasida), unda tarbiyachilar va mutaxassislar harakatlari ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shunday qilib, rivojlanish jarayonida bola sostiumda ijtimoiy moslashuvni o'z ichiga oladigan, uning ijtimoiylashuvi amalga oshirilishi kerak. Agar bu jarayon sodir bo'lmasa, boshqa hol - qarshi moslashuv holi kuzatiladi, unda bolani ijtimoiy qayta tiklash zaruriyati yuzaga keladi

DARS INTIZOMIGA SALBIY MUNOSABATDA BO'LGAN O'QUVCHILARGA NISBATAN ChORALAR KO'RISH

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida sifat bosqichiga o'tilgan ekan, o'quvchilar va o'qituvchilar oldiga barcha turdagi ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standartlari asosida o'zlashtirish talablari qo'yilmoqda. Ta'lim mazmunida aks ettirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash esa dars intizomiga rioya qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Lekin ta'lim jarayonida o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining o'qishni istamasligi, darslarni qoldirish hollariga tez-tez duch kelmoqdalar.

Bunday holda bolalarda maktab bilan bog'liq barcha narsalarga salbiy munosabat yuzaga keladi. Amalda shunday o'quvchilar ham uchraydiki, ular sinf rahbari yoki o'qituvchining pedagogik ta'siriga qarshilik qiladilar. Ular maktabdagi darslar vaqtida ishlamaydilar, uy vazifalarini bajarmaydilar, keyinchalik esa o'zlarini oqlash uchun turli bahonalar topadilar. Odatda, bunday o'quvchilarga nisbatan qo'llangan jazolar ularga vaqtinchalik ta'sir ko'rsatadi, keyin esa hammasi boshqatdan boshlanadi, darslarga bo'lgan salbiy munosabat esa o'zgarmaydi. Shu bilan birga, jazodan qo'rquv, o'qituvchi va o'rtoqlari tomonidan kulgi, yomon baholar bilan ta'sir ko'rsatilayotgan o'qish hech qanday yaxshi natija bermaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, ko'pchilik maktablarda o'quvchi-o'smirlarning darsga bo'lgan salbiy munosabati muammosi etarli darajada dolzarb hisoblanadi. Salbiy munosabatning o'zi o'rganishga bo'lgan motivastiyaning pastligi bilan, faqat natijaga (juda bo'lmasa past bahoga) bo'lgan qiziqishning mavjudligi bilan, qiyinchiliklarni engib o'tishni istamaslik yoki eplay olmaslik bilan, o'quv ishlariga, o'qituvchilarga, umuman maktab muhitiga nisbatan salbiy hissiyotli munosabat bilan tavsiflanadi.

Ushbu muammoni o'rganayotgan zamonaviy pedagoglar ilmiy ishlarining ko'pchiligida quyidagi umumiy sabablar ko'rsatib

o'tiladi: o'quv-tarbiya jarayoni, darsni rejalashtirish, tashkil qilish va o'tkazishning kamchiliklari, shaxsiy psixologik xususiyatlari; o'smirlarda o'qish, o'rganishga bo'lgan qiziqishning butkul yo'qligi; o'quv ishlariga va o'qituvchining topshiriqlarini bajarishga bo'lgan motivastiyaning pastligi.

Nazarimizda, o'quvchi-o'smirlarning o'qishga bo'lgan munosabati ularning qiziqishi, tafakkurining rivojlanishi, shaxs sifatida o'z o'ziga baho berishi, fan bo'yicha bilimlarining hajmi va mustahkamligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Shu bilan bir qatorda, o'smirlarning u yoki bu fanga bo'lgan munosabati ko'pchilik hollarda shu fanni o'qitayotgan o'qituvchiga bo'lgan munosabati bilan ham bog'liqdir.

O'zlashtirmaslik, o'quvchilarning deviant xulqi muammolari bo'yicha o'zbek va xorijiy olimlarning tadqiqot materiallari, bizning yuqori sinflarning rahbarlari va o'quvchilari bilan o'tkazgan suhbatlarimiz ko'rsatdiki, o'smirlarda odatda o'zining tengdoshlari bilan guruhlashishga, ko'chadagi guruhlar bilan vaqt o'tkazish va muloqot qilishga, qarama qarshi jins vakillari bilan erta munosabat o'rnatishga qiziqish paydo bo'ladi. O'smir o'g'il bolalarda katta yoshdagi sudlangan kishilardan olingan axborotlar qiziqish uyg'otishi mumkin. Ular jinoiy guruhlar to'g'risidagi tushunchalar haqida, erkaklar kuchi va ularning mustaqilligining ustuvorligi, jamiyatdan erkin bo'lgan hayotning romantikalari to'g'risida so'zlaydilar. Bu esa o'smirlarda insoniy qadriyatlar to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar, egoizm, o'qishga bo'lgan salbiy munosabatlar va delinkvent (xuquqbuzarlik) xulqini shakllantiradi.¹

¹ Делинквент (ингл. delinquency – айбдорлик) хулқ – бу ўсмирларнинг ҳуқуқбузарлик ҳаракатлари, ҳуқуқни бузишга бўзлган мойиллик ва қайтариладиган аксил ахлоқий ва аксил ижтимоий ҳаракатлар.

O'smirning o'qishga munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa sabablar – bular: ota yoki ona bilan nizoli munosabatlar; ota-onalarning o'zlarining aksilijtimoiy xulqlari (janjallar, alkogolizm, urishlar va h.k.z); oilada tarbiyaning kamchiliklari kabilar o'quvchi-o'smirlarning psixik rivojlanishida va ularning o'qishida nuqsonlar keltirib chiqaradi. Shular bilan bog'liq holda bolalarda depressiyalar, maktab dezadaptastiyasi (maktabga moslashganlikning buzilishi), xulqidagi va tengdoshlari, o'qituvchilari, oila a'zolari bilan munosabatlarning buzilishlari paydo bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik hollarda ota-onalar bolaning intizomni buzishiga yomon o'qitish va yomon tarbiyalashni yo'lga qo'ygan maktab aybdor deb hisoblaydilar. Bolaning o'qishga bo'lgan salbiy munosabati va uning yomon o'zlashtirishiga o'qituvchilarni, aksil axloqiy harakatlar va deviant axloqqa “ko'chani” ayblaydilar. Lekin, ish bilan band bo'lgan ota-onalar ko'pchilik hollarda bolalar tarbiyasidan o'zlarini chetga oladilar, ularning bolalari bilan bo'lgan munosabatlaridagi xatolari ko'pchilik hollarda maktabning o'quvchilarga salbiy ta'siri orqali qilingan xatolari: o'quvchilarga nisbatan avtoritar, buyruqbozlik turfasida munosabat ko'rsatish, qo'pol psixologik ta'sir, o'qitish metodlarining passiv va majburiy tavsiflanishi, pedagogik muloqot texnikasi darajasining pastligi bilan qo'shib ketadi.

Amaliyot ko'rsatadiki, o'qishga bo'lgan salbiy munosabatli o'smirlarga pedagoglar va ayniqsa ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan jazoli ta'sir choralari kam samarali bo'lib, ba'zan esa teskari natijaga – o'qishdan butunlay bosh tortishga ham olib kelishi mumkin. Bunday o'smirlarga nisbatan diqqat, e'tibor, sabr-toqat ko'rsatish lozim. O'rganishga bo'lgan salbiy munosabatni engish o'quvchi-o'smirning fanlar bo'yicha bilimlarni egallash maqsadida o'quv ishlariga rag'batlantiruvchi o'qishning ijobiy motivlarini tarbiyalash, yaxshi hissiyotlar va intiluvchanlik

sifatlarini shakllantirish bilan bog'liq. Bu yo'nalishda ota-onalar va pedagoglar uchun quyidagi tavsiyalar yordam berishi mumkin.

O'quvchilarga beriladigan yordam va ko'riladigan choralar:

Bola bilan ijobiy hissiy muloqot o'rnatish.

Agar munosib bo'lsa bolani maqtashni unutmaslik.

Darslarni tayyorlash uchun vaqt va doimiy joyni belgilash.

Uy vazifasini bajarishni har kuni nazorat qilish.

Bolani topshiriqni bajarayotgan vaqtda chalg'imaslikka o'rgatish.

Bolaga o'qishida yordam berish uchun barcha ishlarni chetga surish.

Tezda samaraga erishilmaganidan umidsizlanmaslik.

Muvaffaqiyatsizliklarga bosiqlik bilan yondashish, jazolamaslik, bolaga baqirmaslik.

Ota-onalarning o'zlari bolaga yordam berishni taklif etishlari.

Bola bilan ijobiy aloqa o'rnatish yo'llari:

Nizoni keltirib chiqaradigan barcha narsalarni to'g'rilash;

Dakki berishni to'xtatish;

Agar munosib bo'lsa bolani maqtashni unutmaslik;

O'quv ishlarini to'g'rilashga katta umid bog'lamaslik;

Bolangiz nima bilan yashayotganligiga, uni nima qiziqtirishiga qiziqish va bilish;

Bolaning shaxsiy hayotiga kirishish va unga oila nima bilan yashayotganligini tushuntirish;

Uning xarajatlarini birgalikda rejalashtirish.

O'smirlarga darslarga bo'lgan salbiy ta'sirni va o'zlashtirmaslikni engishda o'qituvchining maqbul choralari:

O'quv ishlarini rejalashtirishda yordam: takrorlashlarni va o'tkazib yuborilganlarni yo'qotish uchun mashqlar minimumini rejalashtirish.

O'quv faoliyatini maqtoV, muvaffaqiyatli holatlarni yaratish, darslarda faol ishlash va uy vazifalarini bajarishga undash orqali rag'batlantirish.

Doimiy nazorat, o'quvchini tez-tez so'roq qilish, barcha uy vazifalarini tekshirish, o'quv ishlarida o'z-o'zini doimiy nazorat qilishga o'rgatish.

O'quvchining mustaqil ishini tashkil qilish orqali o'zlashtirmaslikni engish mumkin bo'lmagan holda, o'zlashtirmagan o'quvchi va unga biriktirilgan yordamchi o'quvchiga yo'riqnoma bergan holda o'zaro yordam tashkil qilish.

Dasturiy materialning katta qismi o'tkazib yuborilganda o'qituvchining o'zi o'quvchi bilan qo'shimcha dars o'tkazadi.

So'rash davrida alohida hayrixoxlik muhitini yaratish. So'rash sur'atini pasaytirish, doska oldida uzoqroq tayyorlanishga ruxsat berish.

O'quvchiga javobning namunaviy rejasini taklif qilish, shunga asoslanib u doska oldida javob beradi. Baho, qo'llab-quvvatlash, maqtoV bilan rag'batlantirish.

Yangi materialni bayon qilganda mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni qo'llab quvvatlash choralarni ko'rish. Past o'zlashtiruvchilarga o'quv materialini tushunganligi darajasini aniqlash uchun savollar bilan tez-tez murojaat qilish.

Darsda mustaqil ishlarni tashkil qilishda past o'zlashtiruvchi guruhlar uchun mashqlarning sonini ko'paytirish emas, balki ularning samarali tizimini tanlab olish. Topshiriqni bajarish ketma-ketligini mufassalroq tushuntirish.

Kutilishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar to'g'risida ogohlantirish, yo'naltiruvchi harakat rejasini bo'lgan kartochkalardan foydalanish. Topshiriqlarni bajarish bosqichlariga bo'lib chiqish. Avvalroq bajarilgan o'xshash topshiriqlarni eslatish.

Topshiriqni bajarishning uslubi yoki amallarini eslatish. U yoki bu harakat, qoidani aktuallashtirishning zaruratini ko'rsatish.

Ushbu masala yoki mashqni bajarish uchun zarur bo'lgan qoida yoki xususiyatni eslatish.

Topshiriqlarni bajarishning maqbul yo'llari, ularni rasmiylashtirishga bo'lgan talablar to'g'risida yo'riqnoma berish. Past o'zlashtiruvchilarning mustaqil harakatlarini rag'batlantirish, ularning faoliyatlari ustidan yanada qattiqroq nazorat o'rnatish, xatolarni ko'rsatib berish, xatolarni tekshirish va ularni tuzatishga yordam berish.

VOYAGA ETMAGANLAR NAZORATSIZLIGINI OLDINI OLISHNING AYRIM PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Aksariyat hollarda voyaga etmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi deyilganda, huquq nazoratchilari ro'yxati hisobiga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimlik ichishga, bezorilik va o'g'rilikka moyil o'quvchilar nazarda tutiladi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, bunday o'quvchilar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, ularning hulqida o'zini biz xohlaganday, ya'ni ijobiy-axloqiy me'yorlarga to'liq rioya qilmaslik holatlari yaqqol sezilib turadi.

Nazoratsiz va qarovsiz o'quvchilarning kelib chiqishining asosiy sabablari avvalo oiladagi ma'naviy muhitning yaxshi emasligi, maktablarda o'qituvchilarning bilimining sayozligi, pedagogik-psixologik qobiliyatlarining nomukammalligi, o'quvchilarining individual va intellektual imkoniyatlariga e'tibor bermasligi, maktablarda o'quv jarayonining etarlicha tashkil etilmaganligi va darslarning zerikarliligi hamda past saviyada o'tkazilishi kabilardir.

Bunday illatlar o'quvchilarni qonunbuzarlikka undaydi va giyohvandlikka berilish kabi salbiy xatolarning kelib chiqishi

uchun imkoniyat yaratadi. Natijada o'quvchi uchun kelajak rejalarining paymol bo'lish xavfi tug'ilib, o'qishdan va jamoadan yuz o'g'irgan o'smir o'z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va tengdoshlari faoliyatlariga bag'ishlashdan ko'ra noto'kis davralardan orttirgan "do'stlari" bilan aloqa o'rnatishni afzal ko'radi va boshqa kishilardan «najot» izlaydi, o'ziga "maslakdosh" guruhlariga intilishi natijasida u nosog'lom xulqli bolalar to'dasiga tushib qolgach, ularga moslashadi. Voyaga etmagan nazoratsiz va qarovsiz o'quvchilarning asosiy qismi o'smirlardan iboratligini hisobga olib ular bilan ishlash jarayonida o'smirlik davri psixologiyasini quyidagi tiplarga bo'lib o'rganish va amalda qo'llash maqsadga muvofiq.

Gipertim tip. Bunday tipdagi o'smirlar serharakat, sho'x, zavqi baland «liderlik»ka moil bo'ladilar. Ular har qanday davrlarda o'zlarini erkin his etib notanish bolalar bilan ham, kattalar bilan ham tez til topishadilar. Tengdoshlari, o'rtoqlari ularni jismoniy kuchli, topqirligi, dadilliklari uchun yoqtirishadi. Gipertim tipga mansub o'smirlarda erkinlikka, mustaqillikka, tashabbuskorlikka intilishi kuchli bo'lib, ular kattalar tomonidan ko'rsatiladigan mehribonchilikni unchalik yoqtirmaydilar. Ko'pincha ularda o'zlarini kattalardek tutish holatlari kuzatiladi.

Xatti- harakatlari buzilgan gipertim yo'sindagi o'smirlarga qo'llanilgan o'rinsiz jazo, ota – onalarga, tarbiyachilariga nisbatan norozilik hislarini kuchaytiradi.

Shuning uchun ota – onalar, va tarbiya bilan ma'sul shaxslar gipertim tipdagi o'smirlarning shaxsiga ta'sir ko'rsatishda psixologik – pedagogik metodlardan mohirona foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'lib, bu o'smirlardagi "rostlanish" imkoniyatini tiklaydi.

Isterik tip. Isterik tipga mansub o'smirlarda manmanlik, tannozlik, o'zlarini "ko'rsatish" ga moyillik kuchli bo'ladi. ular hattoki, o'zlariga "ishongan" tengdoshlariga ham "rahbarlik"

qilmoqchi bo'ladilar, lekin bu "rahbarlik" uzoqqa cho'zilmaydi va yaxshi natija bermaydi.

Bunday tipdagi o'smirlar orasida sust, jur'atsiz, uyatchan o'smirlar ham uchraydi. Ulardan ba'zilari yaxshi o'qiydilar, intizomli bo'ladilar, gohida esa ularni "ishonchsizlik" tuyg'ulari ham qiynab turadi.

O'smirlar orasida zehni pastroq, bo'sh o'zlashtiruvchilari ham uchraydi. Ularda sustkashlik, bo'shanglik mavjud bo'lganligi sababli ba'zilari qoloq o'quvchilar hisoblanadilar.

Bunday bolalarning xatti – harakatlari oilalarda, maktablarda sinchikovlik, ehtiyotkorlik bilan tuzatilishi tavsiya etiladi, chunki ularning ruhiy dunyosiga- tarbiyasiga noto'g'ri yondoshilsa, ular bu noxush holatni engishga bardoshlari etmaganligi sababli ular o'z jonlariga qasd qilishlari ham mumkin. Mahalalarda nazoratsiz va qarovsiz deb hisoblangan o'quvchilar bilan ishlashda mahalla faollari quyidagilarni bilishlari maqsadga muvofiq: o'quvchilarning tarjimai holini o'rganish; tibbiy kartasi bilan tanishib chiqish; ijtimoiy turmush tarzini tahlil etish; o'quvchilardagi tipik jarayonlarning o'ziga hos hususiyatlarini quyidagicha o'rganish va baholash maqsadga muvofiq bo'ladi:

O'quvchi har qanday emostional harakatlarida o'zini tuta oladi. "5" (a'lo.)

Murakkab vaziyatlarda, kuchli emostional holat tufayli bolaning ijobiy yo'nalishi qisman buziladi. "4" (yaxshi.)

Ijobiy va salbiy xatti – harakatlari, tez – tez o'zgarib turadi. "3" (qoniqarli.)

Emostional holatlarda o'zini tuta olmay, keskin kuch sarf etadi. "2" (qoniqarsiz.)

Emostional xatti- harakatlar jarayonida o'zini umuman to'xtata olmaydi. "1" (mutloqa qoniqarsiz).

1.-Xolerik- temperamentga mansub bolalarning asab tizimi sog'lom, tuyg'ulari beqaror, tez izdan chiquvchi va tez izga

tushuvchi bu tip vakillarini ko'pincha "sho'xlar", shaddodlar, ya'ni "hech narsadan tap tortmaydiganlar" deb ataymiz.

2.- Sangivinnik – tipga mansub bolalarning asab tizimini sog'lom, xatti – harakatlari bir muncha tez. Tuyg'ulari goh beqaror, ko'pincha barqaror, ular jo'shqin va boy lug'atga ega.

3.- Flegmatik – asab tizimi sog'lom, baqquvat bolalarga xos ushbu tip vakillari namunali xulq – atvorga ega. Ular vaziyatlarga odilona va oqilona tarzda vazminlik bilan yondoshadilar. Tuyg'ulari doimo barqaror.

4.- Melanxoliklarning asab tuzilishi zaif bo'lganligi sababli ular bilimlarni tez o'zlashtira olmaydilar va vaqti-vaqti bilan xastalanib turadilar. Bular "bo'shanglar", "itaotgo'ylar", "qo'rqqoqlar" deb baholanadilar. Mazkur tempermaentga mansub bolalar doimo e'tiborga, g'amxo'rlikka moyil bo'ladilar.

Ayrim oilalarda bola uchun zarur sharoitlarning, yoki ota-onaning e'tibori etishmasligi sababli bolaning dunyoqarashlarida norozilik hislari kundan-kun avj olib, bu norozilik ichki tug'yonga aylanadi.

O'quvchilardagi nazoratsizlik va qarovsizlikni oiladagi va ta'lim tizimidagi nuqsonlar "mahsuli" desak xato qilmagan bo'lamiz.

O'quvchining maktabga, bilim olishga va maktabdoshlarining unga bo'lgan munosabatini aniqlash metodikasidan tashqari "Intervyu" metodi va bir qancha boshqa metodlardan ham foydalanishning ijobiy natija berishi aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, voyaga etmagan yoshlarning nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olishda ularning shaxsiy-individual xususiyatlarini o'rganish, temperament tiplariga mos holda munosabatda bo'lish ularning barkamol bo'lib ulg'ayishiga imkon yaratadi.

SOG'LOM VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MAHALLANING O'RNI

Har bir millat va xalqning azaliy orzu istaklaridan biri bu kelajak avlodni sog'lom, barokamol qilib tarbiyalashdan iborat. Bu jabhada yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar nafaqat jamiyatimiz hayotida, balki bir qancha xorijiy davlatlarda ham namuna qilib qo'llanilmoqda. Yosh avlod tarbiyasida oila, mahalla, ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir, zero bu ijtimoiy tashkilotlarning o'zaro hamkorligi tizimli va doimiy yo'lga qo'yilgan tarzda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Yurtimizda mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va roli azaldan otabobolarimiz tomonidan anglab etilganki, uning tarixi uch yarim ming yildan oshiqni tashkil etadi.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan habar olish, etim-esirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalombor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan... Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz.

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanib, globallashuv jarayonlari, turli madaniyatlar va qarashlarning ta'siri doirasi

kengayib bormoqda. Ana shunday sharoitlarda bizning mentalitetimizga mos bo'lmagan odatlar, buzg'unchi fikr va g'oyalarni mahallalarimizga, xalqimiz, yoshlarimiz hayotiga olib kirishga bo'lgan urinishlar kuzatiladi. Ana shunday sharoitda har bir millatning o'z turmush tarzini, urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolishi o'ta muhimdir.

Bunda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha bilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zgalarning madaniyatiga, ularning turmush tarziga mahliyo bo'lib, o'zlikni boy berishdek keng tarqalayotgan eng yomon kasallikdan yoshlarni asray olishdek dolzarb vazifani amalga oshirishda mahalla institutlarining o'rni benihoya kattadir.

Mahalla institutlari bu masalalarda butun jamoatchilikning fikrini o'rganib, uni ta'lim-tarbiya maktabi darajasiga ko'tarib tizimli faoliyat olib borishlari zamon talabidir. Albatta, biz faqatgina ota-bobolarimizdan qolgan moddiy-ma'naviy meros va qadriyatlarni bilish, ularga amal qilish bilan cheklanmasdan, zamon bilan, davr bilan, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan hamkorlik qilgan holda, ularning ilg'or, milliy umuminsoniy demokratik qadriyatlarimizga mos keladigan tajribalaridan unumli foydalanishimiz ham maqsadga muvofiqdir.

Mahallada ma'naviy ishlarning muhim va dolzarb yo'nalishi-g'oyaviy tarbiyadir. Bu esa farzandlar ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni milliy g'oya ruhida maqsadli shakllantirishning ijtimoiy pedagogik jarayoni demakdir. Chunki mahallada kechadigan mafkuraviy ta'lim va tarbiya jarayonlari yoshlar dunyoqarashini bunyodkor g'oyalar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bular yoshlarni g'oyalarimizni va ularning o'ziga xosliklari haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda mahalla–tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning ilk asosi, poydevoridir, ya'ni mahallalar oilalarni, oilalar esa kelajak avlodlarni tarbiyalab voyaga etkazadi. Bugungi kunda yot g'oya va mafkuralardan saqlanish ularga qarshi kurasha olish uchun mahallalarda aholi, ayniqsa yoshlar va uyushmagan yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini, nimaga qiziqishlari va qanday faoliyat bilan mashg'ulliklarini chuqur o'rganish talab etiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarni muntazam ravishda izchil va tizimli amalga oshirib borishimiz lozimdir.

Mahallalardagi ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni turli to'garaklarga, sport musobaqalariga jalb etish;

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida turli tanlov va musobaqalarni doimiy o'tkazib borish;

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar davomida ularni O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan muntazam tanishtirib borish;

Mahallalarda yurtimizning eng ibratli, obro'-e'tiborli kishilar–olimlar, yozuvchi va shoirlar bilan yoshlarning uchrashuvlarini, davra suhbatlari, muloqotlarini tashkil etish; Mahalla fuqarolari ayniqsa yoshlarning muammolarini chuqur o'rganish va aniqlangan muammolarni tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda bartaraf etish borasida jonbozlik ko'rsatish;

Mahallalarda o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, to'y-marosimlarda, umuman mahalla hayotida diniy va dunyoviy qarashlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik;

Fermerlik, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashga hissa qo'shish;

Yoshlarimizning madaniy-tarixiy an'analarmizga hurmat, Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida

tarbiyalash maqsadida ota-onalar va yoshlar bilan alohida-alohida uchrashuv va suhbatlar o'tkazib borish;

Yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash ishlari bilan shug'ullanish;

Mahallalarning, oila va ta'lim muassasalari bilan tizimli va doimiy hamkorlik aloqalarini olib borishda, turli tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki yosh avlodning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish bu ijtimoiy nazorat mexanizmlaridan biri hisoblanadi va o'z navbatida ijtimoiy taraqqiyotga ham ta'sirini ko'rsatadi. Aslida ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiy tartibni talab etadi, ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun ijtimoiy nazoratni kuchaytirish lozim bo'ladi, ijtimoiy nazorat eng birinchi navbatda oilada shakllantiriladi, oilada tartib bo'lishi uchun mahallalarda tartib bo'lishi talab etiladi.

Ijtimoiy nazorat o'z navbatida ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadi, xalqimizning ijtimoiy buyurtmasi esa har tomonlama etuk, sog'lom va barkamol avlodni shakllantirishdan iboratdir.

VOYAGA ETMAGAN BOLALARDA O'G'IRLIK QILISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH

Ko'pchilik bolalar hayoti davomida bir marta bo'lsa ham o'g'irlik qiladi. Odatda, bolaga biror buyum juda yoqib qoladi va u o'zidagi shu narsaga ega bo'lish xohishini eng olmaydi. Buyumni olishi bilan unda boshqa his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Orzu qilgan narsasiga egalik qilish- bu tuyg'ularning faqat bittasigina bo'lib, bundan tashqari boladagi nojo'ya ish ustida qo'lga tushish xavfi, qilgan ishi uchun uyaliq hissi, aybinig fosh bo'lib qolishidan qo'rquv kabi bir qator tuyg'ular uni qiynay boshlaydi. Birozdan keyin buyumning qaerdan kelganini aytmay turib, undan foydalana olmasligini tushunadi. Agar ota-ona e'tiborli bo'lsa, bu

ishning uddasidan chiqish bola uchun ancha mushkul kechadi. Biroz muddatdan keyin esa buyum egasining iztiroblariga guvoh bo'ladilar. Buning sababchisi o'zi ekanligini yaxshi biladi. Atrofdagilarning o'g'rlining sha'niga aytayotgan gaplarini eshitadi. O'sha odam o'zi ekanligini bilib qolishlaridan qattiq qo'rqadi. Shuning o'zi bolada o'g'irlik qilmaslik hissini shakllantiradi, agar uning bu ishi fosh qilinmay qolsa ham.

Agar o'g'irligi fosh bo'lib qolsa, bola taftish jarayonini, undan keyin esa odamlar ichida uzr so'rash holatlarini boshidan o'tkazadi. Bularning hammasi uning kelgusi hayoti uchun dars bo'ladi. Bunday holatlarda jazo me'yorini to'g'ri belgilash juda muhim. Bir tomondan, bola o'zini yomon ko'rib qolishmaganini, gunohi kechirilishi mumkinligini va ishonchni yo'qotmaganini his qilishi lozim bo'lsa, ikkinchi tomondan, qilgan aybining jiddiyligini ham tushunib etishi kerak.

Ayrim bolalar o'g'irlikni bir necha marotaba qilishadi. Bunday bolalar sirasiga asosan e'tiborsiz qolgan bolalar kiradi. Ular atrofdagilardan o'ziga nisbatan hech qanday mehr-muhabbat kutishmaydi. Bunday bolalar odamlar ko'zi o'ngida hech narsa yo'qotmaymiz, deb o'ylashadi va fosh qilinmay qolgan o'g'irliklarini omad deb tushunadilar. Ular o'g'irlikni o'ylab, ehtiyotkorlik bilan amalga oshiradilar. Nojo'ya ish ustida qo'lga tushmaslik uchun barcha ehtiyot choralarini ko'radilar. Qo'lga kiritgan narsalarining paydo bo'lib qolganiga sabab va bahonalar topadilar. Arzimagan narsalar uchun esa tahlikaga tushib o'tirmaydilar.

Ayrim bolalar o'g'irlik qilib, ota-onalaridan o'ziga nisbatan e'tiborsizliklari uchun qasd olmoqchi bo'ladilar. Bunday holatlar ko'pincha ota-onalik tuyg'ularini odamlar ichida ko'z-ko'z qiladigan, asl holat esa buning teskarisi bo'lgan oilalarda sodir bo'ladi. Bu kabi oilalardagi bolalar o'zlarini qafasdagi g'aroyib timsohchadek his qiladilar. O'g'irlik sodir qilish bilan ular go'yoki

atrofdagilarga: "Hamma narsa siz o'ylagandek yaxshi emas, sizni aldashyapti, menga yordam bering", deya ogohlantirish berayotganga o'xshaydilar. Bu ogohlantirish bir vaqtning o'zida ota-onalarga ham yo'naltirilgan bo'lib: "Agar ko'zbo'yamachilikni to'xtatmasangiz, men sizni fosh qilaman va ikkiyuzlamachilik qilishingizga yo'l qo'ymayman", degan ma'nolarni bildiradi.

Bunday holatlarda ota-onalar farzandlari bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqishlari lozim. O'g'irlik o'ch olish sifatida faqat ota-onaga emas, balki boshqalarga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, bola o'ziga yoqib qolgan narsani bir muddatga so'raganda rad javobini olgan bo'lsa: "Men sendan so'radim, sen esa qizg'anding. Shuning uchun mana senga!" degandek ish tutadi. Bunday o'g'irliklar bola uchun odatdagi holga aylanib qolishi mumkin. Bu kabi hodisalar ko'proq noroziliklarini ochiq-oydin ifoda qilmaydigan, arazchi o'g'il-qizlarda sodir bo'ladi. Ular to'planib qolgan noxush kayfiyatlarini chiqarish uchun sabab qidiradi va ko'pincha o'g'irlik yoki shunga o'xshash boshqa holatlarda (masalan, "aybdor"ning narsasiga ziyon etkazish) namoyon bo'ladi. Agar bolaga norozilik his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalash o'rgatilsa, unda o'g'irlik qilishga moyillik asta-sekin kamayib, o'z-o'zidan yo'qoladi.

O'spirin bolalar hamrohlarining talablariga ko'ra o'g'irlik sodir qilishlari ham mumkin. Bunday paytda bolalarni noma'qul hamrohlardan ajratish ko'riladi. O'g'irlik hech narsa bilan band bo'lmagan bekorchi bola uchun qiziqarli hodisa bo'lishi mumkin. Bunday bolalar, odatda g'ayratlarini nimaga sarflashni bilmaydilar. Ular haqida "To'qlikka sho'xlik qilibdi", deyishadi. Bunday bolalarni "davolash"ning eng yaxshi yo'li ularni tekinxo'rlikdan chiqarib, xohlagan narsalariga faqat o'z mehnatlari bilan erishish yo'liga yo'llab qo'yishdir. Farzand tarbiyasi va o'g'irlik holatlari haqida qanday xulosa qilish mumkin?

Ota-onalar bolalarida paydo bo'lib qolgan buyumlarga bee'tibor bo'lmasliklari zarur. Ularning "topib olgan" narsalarini o'zlashtirib olishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Topib olgan joylarini aniqlab, narsani o'qituvchiga, qorovulga yoki mas'ul biror shaxsga topshirgan ma'qul. Bolani asossiz ravishda o'g'rilikda ayblash mumkin emas. Uning gaplarini to'g'ri deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar bolaning qilgan o'g'riligi fosh qilinsa, uni jazolash lozim. Jazo jiddiy bo'lib, u jismoniy bo'lmasligi va bu kabi ishlarning takrorlanmasligiga asos bo'lishi kerak. Jazo me'yorini oshirib yuborib, bolaning ruhiyatini sindirib qo'yishdan saqlanish zarur. Bola jazoni o'tab bo'lgach, bu voqeani unutib, unga boshqa qaytmaslik kerak. Agar o'g'irlik takrorlansa, mavjud holatni diqqat bilan o'rganib, uning oldini olish uchun bolani jazolashdan tashqari, o'g'irlikni keltirib chiqargan sabablarni ham bartaraf qilish lozim. Qilingan o'g'irlikka asosli sabab topilmasa yoki qo'llagan omillar ish bermasa, tuzatib bo'lmaydigan xatolar sodir etilmasdan oldin mutaxassislarga murojaat qilgan ma'qul. Axloqni surunkali og'ish holatini tuzatish ancha qiyin bo'ladi. Avval ruhshunos bilan maslahatlashiladi. Agar zarur bo'lsa, u psixonevrolog va psixiatrqa uchrashish uchun tavsiya qilinishi lozim.

BOLA HUQUQLARINI TA'MINLASHDA JAMOAT TASHKILOTLARINING IJTIMOYIY HAMKORLIGI

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Zero, yoshlarimiz tarbiyasiga nega bu qadar muhim vazifa sifatida qaralayotgani Birinchi Prezident quyidagi so'zlarida o'z ifodasini topgan: "O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni

modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim printsiptial va hal qiluvchi ahamiyatga ega". Biz bugun barpo etayotgan yangi, hayot, yangi – adolatli fuqarolik jamiyatini avvalambor o'zimiz uchun o'sib kelayotgan, bugun boshlagan ishlarimizni ertaga davom ettirishga qodir farzandlarimiz uchun qurmoqdamiz.

Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan 2008 yil "Yoshlar yili", 2010 yil "Barkamol avlod yili", "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilingani har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash yo'lida navbatdagi zalvorli qadam bo'ldi. Mazkur yillar dasturlarida boshqa ko'plab sohalar qatori yoshlarning, bolalarning manfaatlarini yanada to'liq ta'minlash va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonuniy asosni takomillashtirish borasida ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratildi – bir qator qonunlar qabul qilindi va ularda bola huquqlari kafolatlab qo'yildi. Xususan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2008 yilning 8 yanvaridan e'tiboran kuchga kirdi. Bola huquqlari sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo'li bilan bolalarni, shu jumladan etim bolalarni va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilishning amaldagi tizim samaradorligini oshirish mazkur qonunning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yurtimizda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e'tirof etiladi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha oltmishdan ziyod xalqaro hujjatlar, shu jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bu sohada qabul qilingan oltita asosiy xalqaro shartnoma qatnashchisi

sifatida o'z zimmasiga olgan holda xalqaro majburiyatlarni muntazam ravishda bajarib kelmoqda. Inson huquqlari haqida so'z borar ekan, eng avvalo, bola huquqlari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Zero, inson shaxsi aynan bolalikda shakllanadi, toblanadi. Bola huquqlari himoyasi ta'minlangan jamiyatdagina kelajakning chinakam vorislari kamol topadi, o'ziga bo'lgan ishonch va hurmat tuyg'usi ortadi. YUNISEFning yurtimizdagi vakolatxonasi rahbari shunday ta'kidlaydi: "Bolalar bolalikning beg'ubor damlaridan bahra olishga haqlidirlar".

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" O'zbekiston Respublikasi tomonidan dunyoning 193 davlati qatorida 1992 yil 9 dekabrda ratifikatsiya qilingan. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda Bola huquqlariga oid davlat siyosatining shakllanishi uchun mustahkam asos yaratilgan. Bola huquqlari haqidagi universal rasmiy kodeks hisoblangan konvensiyaning bosh maqsadi bolalar manfaatini yuqori darajada himoya qilishdan iborat. Uning moddalari bola huquqlari himoyasini kuchaytirishga — yashash, rivojlanish, jamiyat hayotida faol ishtirokini himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan. Ular zamirida bolalarda vatanparvarlik, do'stlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlar shakllantirilishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi xalqaro va umummilliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan huquqiy manbadir. Unda bola tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, onalik va bolalikning muhofaza qilinishi, voyaga etmaganlar ta'minoti, oilaviy muhitdan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoyalash, farzandlikka olish, muruvvatga muhtoj bolalarga yashash, tarbiyalanish va ta'lim olish uchun sharoitlar yaratish, o'z fikrini erkin ifoda etish hamda huquqlarini mustaqil ravishda himoyalash masalalariga alohida ahamiyat berilgan.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti sog'lom oila muhitiga bog'liqdir. Sog'lom oilada farzand har tomonlama barkamol bo'lib etishadi. Shuningdek, ruhan nosog'lom oila muhitida tarbiya topayotgan bolalar oiladagi doimiy ziddiyatlardan bezib, ko'pincha ko'chaga chiqib ketadi. Bevaqt ko'chada yurgan bolalarning ko'pchiligi jinoyat ishtirokchilari bo'lib qolmoqda. Nosog'lom oila muhitida yashaydigan shaxslarda jinoyatga moyillik darajasi ko'proq bo'lib, bunday holat ularning ruhiyatidagi buzilishlar sababli yuz beradi.

O'zbekistonda voyaga etmagan bolalar muammosiga u yoki bu darajada aloqador bo'lmagan birorta tashkilot yoki shaxsning o'zi yo'q. Biroq, bu tashkilotlar va shaxslarning bolalar bilan ishlashda har birining o'z o'rnini, o'z ahamiyati va ta'sir kuchi bor. Bizning fikrimizcha, voyaga etmaganlar qarovsizligi va huquqbuzarlikning oldini olishning eng samarali yo'li bu jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot organlari va oilaning mustahkam hamkorligini ta'minlashdan iboratdir. Mavjud "Oila - mahalla - maktab" konstepstiyasini bu hamkorlikdagi ishlarda yanada kuchaytirish kerak.

Davlatimiz Qomusida ham ana shu masalaga bevosita oid 64-moddasida shunday deyilgan: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar...", 65-moddada esa "Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", deb kafolatlangan.

Demak, ota-ona jamiyatning asosi bo'lgan oilaning etakchi a'zolari, voyaga etmagan farzandlari uchun davlat va jamiyat oldida birinchi ma'suldirlar. Ma'lumki, milliy mentalitetimizda buva, buvi, ota-ona, o'g'il-qiz farzandlar ahil, tinch yashayotgan oila mukammal oila hisoblanadi. Afsuski, kundalik turmushimizda nafaqat noto'liq va notinch, yolg'iz onalik, balki to'liq oilalarda

ham balog'atga etmagan yoshlarning qarovsizligi va huquqbuzarligi uchraydi.

“Oila – mahalla - maktab” konstepstiyasini amalga oshirishda mahalla posboni, ma'naviy-ma'rifiy maslahatchilar, xotin-qizlar qo'mitalari ya'ni, jamoatchilik nazoratining o'rni katta hisoblanadi. Agarda jamoatchilik organlarining oila bilan hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola hech qachon nazoratsiz qolmaydi va bola tomonidan sodir qilinadigan huquqbuzarliklarning oldi olingan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabr № O'RQ – 263- sonli “Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi Qonun jamiyatda voyaga etmagan bola tomonidan sodir qilinadigan tartibsizliklarni, huquqbuzarliklarni vaqtida oldini olishga xizmat qiluvchi hujjat hisoblanadi va ushbu qonunning asosiy maqsadi voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning – profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni - tartibga solishdan iborat.

Insonga, yaxshilikka ishonchini yo'qotgan bolani yomon yo'ldan qaytarish juda qiyin bo'ladi. Mahallarlarda tarbiyasi og'ir, voyaga etmay jinoyat ishiga qo'l urib, qaytib kelgan yoshlar bilan ishlashda xotin-qizlar qo'mitalarining huquq-tartibot organlari bilan hamkorligi yaxshi natijalar bermoqda. Ammo bizning maqsadimiz voyaga etmaganlarning jinoyat yo'lga kirishlariga yo'l qo'ymaslik, mabodo shu yo'lga kirib, jazoni o'tab qaytgan bo'lsa, uning ongiga jamiyat, mahalla uni chiqitga chiqarib tashlamaganiga, kelgusida bu ko'ngilsizliklar unutilib, ular ham jamiyatning ilg'or kishilari bo'lishi mumkinligiga ishontirishdan iboratdir.

Bu ishonchni oila va jamoat tashkilotlari organlari mustahkamligi ta'minlay oladi. Shuningdek, “Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvenstiya”sining 40-moddasida

ta'kidlanganidek: "Jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilgan, qonunni buzishda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilayotgan har bir bolaning unda qadr-qimmat va ahamiyatiga moliklik his-tuyg'usini tarbiyalaydigan, bolada inson huquqlariga va boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan hamda bunda bolaning yoshi va o'zini o'nглаb olishi, jamiyatda foydali o'rin tutishiga ko'maklashish istagi hisobga olinadigan huquqini e'tirof etadilar."

Oila mustahkamligi voyaga etmaganlar huquqi ta'minlanishining eng oliy ko'rinishigina bo'lib qolmay, ularning qarovsizligi va huquqbuzarliklarini oldini olishning ham eng asosiy poydevoridir.

Voyaga etmaganlar huquqini ro'yobga chiqarishning yana bir yo'li, ular huquqini buzayotganlar, salbiy ta'sir ko'rsatayotganlarga qarshi kurashdan iboratdir. Bola tabiati nozik va hissiyotga beriluvchan bo'ladi. Ular eng kichik nohaqlikka ham chiday olmaydilar va osongina jinoyat yo'lga kirib ketadi. Jinoyatchilar u uchun haqiqat uchun kurashuvchanlar bo'lib tuyuladi.

Ayrim ota-onalarning o'z bolalari taqdiri bilan qiziqmayotganligi, hatto ba'zi bolalarning voyaga etgunga qadar tug'ilishi qayd etilmasdan kelinayotgan holatlar mavjudligi, bu esa bolalar o'rtasida huquqiy jihatdan himoyalangan qatlamning vujudga kelishiga, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar sonining oshib ketishiga, shunday guruh bolalarni zarur vaqtlarda farzandlikka berish, ularga vasiy va homiy tayinlash, ularni ijtimoiy himoyalash maqsadida nafaqa tayinlash, o'quv muassasalariga joylashtirish jarayonlarida bir qator huquqiy muammolarni vujudga keltiradi. Biz bolalarni nopok ota-onalardan himoya qilishimiz kerak. Afsuski, ota-ona jabridan qochib, daydib yurgan bolalar ham talaygina.

Bu borada huquq-tartibot organlarining samarali xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Ular ana shunday bolalarni topib, ota-onasi yoniga qaytarishga, ota-onalar o'zlari tarbiyaga muhtoj bo'lsalar davlat qaramog'iga o'tkazish borasida xayrli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Bozorda shirinlik o'g'rilagan yoki mayda bezorilik qilgan daydi bolaning yuziga tarsaki tortish, so'kish yoki qo'rqitishdan oson ish yo'q. Uni bu yo'ldan qaytarish, nima uchun bu ahvolga tushib qolganini aniqlash va to'g'ri yo'lga solish qiyinroqdir. Shuning uchun bu ishlarda sabrli bo'lib, hamkorlikda bolani kelajakda to'g'ri yo'lga solish borasida chora-tadbirlarini uzluksiz tarzda olib borishimiz talab etiladi.

Voyaga etmaganlar orasida qarovsizlik va huquqbuzarliklarni oldini olish uchun biz bir qancha tavsiyalarimizni qayd etib o'tmoqchimiz:

1. Mahalla joylashgan hududni hisobga olgan hola bola nazoratini olib borish. Chunki, mahalla hududida bozorlar, ko'ngilochar hiyobonlar mavjudligi bolani nazoratda ushlab turish va huquqbuzarlikka nisbatan profilaktik ishlarni olib borishda bir qancha muammolarni tug'diradi. Shu qatorida mahallalar ko'p qavatli binolar, hovlilar, kottedjlar, dala hovlilar, qishloq, ovullardan tarkib topganligini qayd etib o'tish kerak. Chunki hovlilardan iborat mahallalarda milliy an'analarimiz kuchli bo'lgani uchun bolalar tarbiyasini kuzatish va uni huquqlarini himoya qilish biroz qulayliklarni yaratadi. Ammo, afsuski, ko'p qavatli binolardagi xonadonlarda yashayotgan insonlar ba'zan kimligini ham bilmaydi. Bu erda qo'shni bolalar nimalar bilan mashg'ul ekaniga ahamiyat bermaydilar. O'z eshiklarini yopib olib, hududda hatto pod'ezdlarida huquqbuzarlik sodir etilayotganini bilsalar ham, "menga nima" qabilida loqayd bo'ladilar. Bu esa hammamizni qiynayotgan muammolardan biridir.

2. Mahallalarda 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning aniq ma'lumotlar bazasini oila, maktab bilan hamkorlikda shakllantirish zarur. Shu o'rinda bu ma'lumotlarda bolaning yashash sharoiti, sog'lig'i, xulq-atvori, qaysi maktab, o'rta maxsus ta'lim muassasasiga borishi, u erdagi davomati haqida qaydlar bo'lishi kerak. Chunki, bolaning surunkasiga o'qishga bormay qolgan holatlarini sezgan mas'ullar o'z vaqtida nazoratni qo'llariga olishga muvaffaq bo'ladilar.

3. Bolaning qarovsizligi, o'qishga bormay qo'yganligi va boshqa salbiy holatlar sababini hamda oila muhitini doimo nazoratda ushlab turish. Bola umuman qarovsiz bo'lsa, ota-ona o'z mas'uliyatlarini bajarmasa, u holda ularni mehribonlik uylariga joylashtirish masalalarini ko'rib chiqish kerak.

4. Bolalar bilan ishlash, mahalla-oila hamkorligini ta'minlashda psixolog va pedagoglar bilan ishlash juda muhim. Chunki, har bir ota-onaga o'z bolasi aziz bo'lganidek, garchi bola huquqbuzarlik holatlarini sodir etgan holatlarida ota-ona uchun "bolang yomon", degan gaplar yoqmaydi. Bunday holatlarda ota-onaga ham, bolaga ham qo'llanilgan to'g'ri psixo-pedagogik yondashuv huquqbuzarlik bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning aks ta'sirini bermaydi.

Odatda, voyaga etmaganlar huquqlari deganda, ularni moddiy jihatdan ta'minlashni tushunamiz. Bu qismangina to'g'ri. Yuqorida qayd qilganimizdek, Qomusimizning 64-moddasida esa bolani faqat boqish emas, tarbiyasiga ham teng urg'u berilgan. Bu esa voyaga etmaganlarning ma'naviy huquqlarini ro'yobga chiqarish demakdir.

Jamiyat bor ekan, bolalar bilan ishlash muammosi mavjud bo'ladi. Hozirgi avlod o'rniga yangisi keladi. Ularning yutuqlari, kamchiliklari, huquqbuzarliklari ham o'ziga xos bo'ladi. Shunga qarab, voyaga etmaganlarning qarovsizligi va huquqbuzarliklarini bartaraf etish yo'llari ham o'zgarib boradi. Biroq, bu ishlarda oila

va jamoat tashkilotlari va huquq-tartibot organlarining hamkorligi eng maqbul tadbir bo'lib qolaveradi. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Har qanday millatning, ota-ona bo'lish baxti nasib etgan har qanday insonning eng mo'tabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi – sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga etkazishdan iborat bo'lib kelgan."

O'SMIRLIK YOSHIDA TARBIYA JARAYONINI HISOBGA OLISH

Bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri barkamol avlodni tarbiyalash muammosidir. Shaxs shakllanishidagi eng muhim davrlardan biri o'smirlik davridir. O'smirlik davri bolalikdan balog'atga o'tish davri sifatida har doim qiyin davr hisoblanadi.

Bu bosqich davomida bolaning (o'ziga xos) atrofdagilarga bo'lgan munosabati tubdan o'zgaradi. Bolaning kattalar olamiga kirib borishi bir lahzada ro'y beradigan hodisa emas, balki, uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda boladan biologik, psixologik va ijtimoiy tomondan voyaga etishi talab qilinadi. Bu davr taxminan bolaning 5-9 sinflarda o'qish paytiga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha davr oralig'ida bo'ladi. Bu davr o'g'il bolalarga nisbatan qizlarda 1-2 yil oldin boshlanadi. O'smirlik davri nafaqat bolaning o'zi uchun balki, u bilan muloqotga kirishuvchilar uchun ham og'ir davr. Ko'pchilik holatlarda o'smirlar bilan kattalar (ota-ona, o'qituvchilar) orasida kelib chiqadigan ziddiyatlarga ularning yosh davriga xos xususiyatini hisobga olmasliklari, yoki umuman bilmasliklari sabab bo'ladi.

O'smirlik davrida bolaning ijtimoiy munosabatlarida va dunyoqarashida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrga kelib uning qadriyatlarini ham o'zgaradi, ilgari uning uchun qadrlil

bo'lgan narsalarning ahamiyati yo'qoladi. Bola ilgari o'zi uchun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarga nisbatan befarq bo'lib qolishi yoki aksincha, yangi mashg'ulotlarga qiziqib qolishi mumkin. O'smirning jismoniy va psixik rivojlanishi jarayonida unda juda ko'p ehtiyojlar paydo bo'ladi. Bu davrga kelib, o'smirning intellektual imkoniyatlari oshadi, dunyoqarashi kengayadi, yangi qiziqishlar paydo bo'ladi. Unda hayotiy aloqalar doirasini kengaytirishga ehtiyoj paydo bo'ladi, tengdoshlari bilan ko'proq muloqotda bo'la boshlaydi. Avvallari ota-onasi va o'qituvchisini har doim haq deb hisoblagan bo'lsa, o'smirlik davriga o'tgandan keyin tengdoshlarining fikrini ota-onasining va o'qituvchisining fikriga qaraganda ahamiyatliroq hisoblaydi.

O'smir o'zida yuz berayotgan o'zgarishlarni his qiladi, ammo barcha hissiyotlarini ham to'liqligicha anglamaydi va tushunmaydi. O'smirlik davrida bola endi "bola" emas, shu bilan birga hali "katta ham emas". Ammo, u o'zini "katta odam" deb hisoblaydi, o'zining muammolarini o'zi hal qilishga harakat qiladi. O'smir uchun o'z "men" ining ahamiyati ortadi. Bu davrda shaxs egosintezmi boshqa davrlarga qaraganda eng yuqori darajaga etadi, o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan yuqori qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bo'lib qoladi. O'smir o'zining tashqi qiyofasiga ko'proq e'tibor bera boshlaydi.

Shu davrda o'smirning tashqi qo'rinishi yoki shaxsiyatiga tegishli aytilgan arzimagan nojo'ya gap yoki hazilni u jiddiy qabul qiladi va bu unda og'ir salbiy kechinmalarni keltirib chiqarishi mumkin. Kattalar uchun arzimas gaplar tufayli ham o'smir o'ziga past baho beradigan, o'zini kamsitadigan bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli, o'smirlar bilan muloqotda nihoyatda ehtiyotkorlik lozim.

Ota-onalar o'zlarining yoshliklarini unutib yubormasdan, ota-onalik nuqtai nazaridan emas, o'smir farzandini ham o'z fikr-mulohazasi, shaxsiy qarashlari borligini inobatga olib, unga

hamdard, hamzamon sifatida muomilada bo'lganida bir-birlarini tezroq tushungan bo'lar edilar.

Ota-ona! Sizdan yosh o'smir bolangiz biron narsa so'raganda haqiqatni gapirish kerak, o'g'lingiz, qizingiz tushungan holatda faqat nasihatgo'ylik nuqtasidan emas, unga hamfikir, hamdard, hamzamonlik holatidan kelib chiqib yondashing.

Shundagina farzandingiz har qanday vaziyatda sizga suyanishga o'rganadi, sizga talpinadi, katta-kichik maslahati bilan avvalo sizga keladigan bo'ladi. Farzandingizni boshqaring, unga yo'l ko'rsating ammo, uning o'zligiga, shaxsiyatiga shakllanib kelayotgan go'zal ichki dunyosiga tajavvuz qilmang. Ikkilanish, aldanish, izlash, topish lazzatidan mahrum qilmang. Adashish, yiqilish, muvaffaqiyatlar va mag'lubiyatlar ayb emas.

Ota-onalar yodingizdan chiqarmang, siz ham yosh bo'lgansiz, siz ham adashgansiz. O'zingizni farzandingiz o'rniga qo'yib ko'rishni unutmang. Tanqidchilik, ayniqsa hadeb jazo beraverishlar tarbiyada yaxshi natija bermasligi sizga yangilik bo'lmasligi kerak. Hayotning qaynoq qozonida pishib etilish jarayonini boshidan kechirayotgan yosh o'smirga eng asosiy, eng ishonchli suyanchiq, buzilmas qo'rg'on bu ota-onadir.

VOYAGA ETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH MUAMMOSI

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar ongli intizomga yo'naltiriladi. Aslida ilk bolalik davridan boshlab shakllanib kelayotgan xulq-atvor tarzi, fikrlash na'munalari, toki odatiy tus olib ulgurmaguncha o'zgarib, rivojlanib boraveradi. Bu jarayon dinamik strootip deyilib, insonning ijtimoiy xulq-atvori tabiatan programmallashtirilmagan bo'lib, shaxs kamolatiga ta'sir etuvchi omillar (irsiyat, muhit, tarbiya, faoliyat)asosida shakllanib

boradi. Zero, ahil oila, mustahkam nasl, bolalarni komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan ezgu maqsadimizdir.

Voyaga etmaganlarning eng ko'zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri xarakter hisoblanadi. Bu yosh davriga xos xarakterli o'rganish, ko'plab ob'ektiv ma'lumotlar olish imkonini beradi. Xarakter xislatlari asosan ma'naviy va irodaviy deb nomlanadigan jihatlarga bo'linadi.

Ma'naviy xarakter xislatlari o'spirin o'z-o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatida ko'zga tashlanib, uni ongli intizomi, yaxshi va a'lo o'qishi, o'zini har qanday sharoitda tuta bilish, o'zgalarga lozim paytlarda yordam qo'lini cho'za olishi jamoat topshiriqlarini vijdonan a'do etish, hurmati va o'rniga ega bo'lishida ko'rinadi. Irodaviy xarakter xislatlari ko'pincha ong bilan xatti-harakatlarni uyg'un kelishida ko'rinib, o'smirning intizomlilik, sabr-toqatliligi, qatiyatliligi, barqarorligi, sabotlilik, intiluvchanligida ko'zga tashlanadi.

Voyaga etganlarda emotsional holatlarning qay tarzda namayon bo'lishiga qarab, ulardagi xarakterning ma'naviy yoki irodaviy xususiyatlarni bilib olish mumkin. Albatta bu o'rinda temperament tiplarining ham o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ammo xarakter tarbiyasi aytaylik boladagi xursandchlik, xarakatchlik, qaxir, g'azab va gina his- tuyg'ularning namayon bo'lishida, biron qiyinchilikni qatiyatlik bilan engish yoki engi olmasligida, xarakterini barqaror yoki beqaror shakllanib kelayotkanligiga oid tegishli xulosa chikarish mumkin.

Yuqorida takidlanganidek, o'smirni jamoada o'z o'rnini belgilay olishi, guruhga ta'siri, guruhni bolaga ta'siri shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo har bir davrning taraqqiyot omillari bilan birga, elga soya soluvchi, jiddiy to'siq bo'ladigan salbiy omillar ham mavjudki, buni voyaga etmaganlar misolida ham ko'rib o'tish mumkin.

Ma'lumki, o'smirlik yoshi davri o'ziga hos tarbiyani ta'lab etadi. Bu jarayonda o'smir har narsaga jiddiy va tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Unga nisbatan tanqidiy yondoshgan odamni o'smir unchalik xushlamaydi. Bu yosh davrida oilaviy munosabatlar, oilada ota-bola munosabati muxim o'rin tutadi. Otasi bolasiga "Yaxshi o'qi, to'g'ri yur, odobsizlik qilma" desayu, o'zi oilada baqir-chaqir qilsa, ichsa, so'kinsa buni bola o'ziga tez kabul qiladi, tadqiqiy kuzatuvlarning ko'rsatishicha o'smirlik yoshida spirtli ichimlikka va sigaret chekishga o'rgangan bola keyingi davralarda ham bu illatni izchil davom ettirishi mumkin ekan. O'smirlik yoshida tenqurlari bilan kelisha olmagan, jamoada o'z o'rnini topa bilmagan o'smir, keyingi hayot davrida ham ko'pchilikka qo'shila olmaydigan, hech kim bilan yaqindan do'stlasha bilmaydigan, qo'rs, qo'pol bo'lib yashar ekan.

O'smirlik yoshida turli xil salbiy omillar ta'siriga tushib qolgan bolaning xarakter xususiyatlarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda mustaqil ma'naviy qarashlar to'liq shakllanib bo'lmaganligi bois, bolaning axloqiy xususiyatlarida ham o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Ota-ona va o'qituvchilar o'zaro hamkorlikda o'smirda bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida ilg'ab o'rganib, uning oldini olish choralari qo'llanmasa, tarbiyaviy qarovsizlik boshlanadi. Chunki kattalardan farqli o'laroq o'smirilar o'zlarining salbiy tajribasiga tahlil etishga qodir bo'lmaydilar. Ular hali jazo, jinoyat, qamoq nima ekanligini anglab etmaydilar. Ulardagi xuquqiy bilim nazariy xarakterda bo'lib, ko'p illat amalda sodir bo'lishini tushinib etmaydilar.

Qayta tarbiyaga moyil tenqurlari yoki yoshi kattalar ta'siriga tushib qolgan o'smir, qisqa vaqt ichida maktab ta'limi va oilani yig'ishtirib qo'yib, "Yaxshi hayot"ni topib olishlari mumkun.

Bordiyu o'smir muntazam ravishda mayda jinoyatlar sodir etuvchilarning ilmog'iga ilinsa, ularga ergashsa (taqlid qilib yoki qiziqib) bunday faoliyatga qarshi bo'lganlarga o'smir o'zining

kesgin noroziligini bildiradi. “O’zim bilaman”, “Menga aql o’rgatmanglar” deyildimi, bilinki, bola muammoli, u muammoli vaziyatlar qurshovida. Galdagi vazifa bola ko’ngliga qattiq tegadigan qaltis xatti-harakatlar bilan shaxs, unga bir oz yon bosgandek, uncha imkoniyatlar bergandek bo’lib, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish lozim.

Xarakter xususiyatlarida birdaniga o’zgarishlar sodir bo’ladigan muammoni o’smirlarda deviant xulq-atvorlar kabi qator xususiyatlar ko’zga tashlanadi, ya’ni:

- o’smirlarning xulq-atvoridagi muayyan og’ishlar, o’zgarishlar huquqiy bilim va tarbiyani bilmaslik hamda rioya qilmasligi;

- jamoda o’z o’rnini topa olmaslik oqibatida turli salbiy illatlarga (ichish, chekish, giyohvandlik) ko’r -ko’rona taqlid qilishda;

- kompyuter o’yinlariga mukkasidan ketishda;

- ijtimoiy tartib- qoidalar to’liq tushinib etmaslik, unga nisbatan befarq hamda bepisand qarashda;

- kattalar orasida uchraydigan ichkilikbozlik, giyohvantlik, doimiy ta’limdagi chalasavodliklarga qiziqish bilan qarashda, shuning oqibatida o’smirlik yoshiga mos kelmagan illatlarga ko’r-ko’rona qo’l urishda;

- turli muammoli vaziyatlarda bildirilgan yoki ko’rsatilgan tarbiyaviy ta’sirlardan o’zini chetga olishda va shu kabi boshqa holatlarda kuzatiladi.

Yuqoridagi illatlarning oldini olishda:

- oilada ota-ona va farzandlarni ahl bo’lishi, bir-biriga mehr berib yashashi;

- kattalarni har xil illatlardan (ichkilik, giyohvantlik kabi) xoli bo’lishi;

- oilada qadimdan saqlanib kelayotgan an’analarni buzmaslik va unga rioya etib yashash;

- oila byudjetini bilish va unga rioya etib yashash;

- bola tarbiyasida “oila-maktab-mahalla” hamkorligining bo’lishi;

- ijtimoiy hayot normalari va madaniyatini o’zlashtirish va unga amal qilib yashash;

- ota-ona va farzandlarni o’z faoliyatlarini tahlil etib, baholay olish xususiyatlarini o’stirish va hokazo.

Voyaga etmaganlarni imkon qadar bilim egallash, to’g’ri kasb tanlash va orzu-intilishlar bilan yashashga o’rgatish, ota-ona va o’qituvchi-ustozlarning asosiy vazifasi bo’lib, turli xil muammo hamda salbiy illatlarning oldini olish omili hisoblanadi.

SOG’LOM BOLA TARBIYASIDA OILANING O’RNI

O’sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy sog’lom bo’lib voyaga etishi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan eng muhim vazifa hisoblanadi. Mamakatimizda «Sog’lom avlod, sog’lom kelajak negizi», degan shiorning kun tartibiga qo’yilganligi bejiz emas.

O’zbekiston Konstitutstiyasi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi konseptual hujjatlarda jismoniy tarbiya va sportga alohida e’tibor berilishi, 1992 yilda “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida ” Qonunning qabul qilinishi va 2000 yilda uning yangi taxririni joriy etilishi, “O’zbekistonda jismoniy tabiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” gi qarorlar, 2002 yil 24 oktyabrda PF 3154 sonli “O’zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasi” ni tuzish to’g’risidagi farmonini izchillik bilan hayotga bosqichma-bosqich joriy etilayotganligi jismoniy tarbiya va sport jumladan, bolalar sporti davlat siyosatining ustivor yo’nalishlari doirasida ravnaq topayotganidan dalolat beradi. Ushbu qonun, qaror va farmonlar shu sohada faoliyat yurtib kelayotgan mutaxassislar zimmasiga yuksak ma’suliyat yuklash barobarida yuritimizning har bir

fuqarosini jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishga, hamda tasavvurini kengaytirishga undaydi. Ayniqsa davlatimiz tomonidan turli yillarning "Oila" (1998), "Sog'lom avlod" (2000), "Ona va bolalar" (2001), "Sihat-salomatlik" (2005), "Yoshlar" (2008), "Barkamol avlod" (2010), "Mustahkam oila" (2012), "Obod turmush" (2013), "Sog'lom bola" (2014) yillari deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan ishlab chiqilgan uzoq muddatli davlat dasturlarining izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotganligi bolalar salomatligini mustahkamlash, ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishga olib kelmoqda.

Bolalarni yoshlikdan sportga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida, uzluksiz ta'lim jarayonida ham talaygini ishlar amalga oshirilmoqda. Buni Respublikamizda tashkil etilgan uch bosqichli maktab o'quvchilari uchun "Umid nihollari", akademik listey va kasb-hunar kollejlari uchun "Barkamol avlod", Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Universiada" sport musobaqalari misolida ko'rishimiz mumkin. Eng quvonarlisi o'ziga xos kichik olimpiada deb nom olgan ushbu musoboqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlarimiz Jahon arenarida Yurtimiz sharafini himoya qilib, bayrog'imizni yuqori ko'tarishmoqda.

Sog'lom oila, sog'lom ona, sog'lom bola, sog'lom turmush tarzi tushunchalarini anglab etish o'quv maskanlarida sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishga odatlanish, sog'lom bolani voyaga etkazishning poydevori desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismidir. Shuningdek, insonning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy sohalardan biridir. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport har tomonlama barkamol insonni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish inson organizmini mustahkamlaydi. Ish qobiliyatini

o'stiradi, sog'lom hayot tarzidagi ehtiyojini qondiradi. Bu esa uzoq yillar davomida salomatlikni ijobiy bo'lishiga olib keladi. Jismoniy harakat insonning ruhiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U salbiy, ruhiy ta'sirlar, aqliy charchashni bartaraf etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Jismoniy mashqlar natijasida bola organizimida qon aylanishi yaxshilanadi. Jajjigina beshik ostonasida emaklay boshlayotgan go'dak ota-onasining imo-ishoralari bilan harakatlana boshlaydi. Qay tomonga yo'naltirilsa, qaysi harakatni ko'rsatsa shunga qarab takrorlaydi. Shunday ekan, bolani kichikligidanoq hayotga to'g'ri tarbiyalash ota-onalarning kechiktirib bo'lmas mas'uliyatlari sanaladi.

Zero, kelajak bugundan boshlanadi. Bolani yoshligidan tarbiyasiga e'tibor berilmasa kelajak boy beriladi. Oilada bola tarbiyasi uning jismoniy va ma'naviy sog'lom bo'lib etishishini o'z vaqtida bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga yanada kengroq jalb qilinsa oila sog'lom bo'ladi, sog'lom bola dunyoga keladi. Buning uchun mahalla va xotin-qizlar qo'mitalarining faolligini oshirish, oilalar bilan doimiy ishlashni yanada kuchaytirish lozim.

I. Karimov aytganlaridek, oila qachon baxtli bo'ladi? Ayol baxtli bo'lsa! Ayol qachon baxtli bo'ladi? Farzandlari sog'-salomat bo'lsa! Buning uchun oilada sog'lom muhit shakillanishi, avvalo ota-ona sport bilan shug'ullanishi farzandlarini sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratib berishlari zarur.

Bolalarni har tomonlama sog'lom bo'lib ulg'ayishida joylarda tashkil etilayotgan turli sport tadbirlari va musobaqalari muhim ahamiyat kasb etadi. 2014 yilni "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi, bu masalaga yangicha qarashni, mas'uliyatni yanada oshirishni talab etadi. Bu haqda suz borganda, xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, ezgu da'vatga aylanib borayotgan bir shiorni eslash o'rinli deb o'ylayman. Ya'ni sog'lom bola avvalo sog'lom va

ahil oilaning mevasidir. Sport ana shunday oilalarni shakillantiradigan eng yaxshi vositalardan biridir.

Sport bilan shug'ullangan yigit-qizlar sog'lom va baquvvat, fikri tiniq bo'ladi. Kelgusida farzandlarini ham shu ruxda tarbiyalaydi. Bunday oilalar ko'paysa butun jamiyatimizning sog'lom muhiti yanada mustahkamlanadi. Ta'kidlash joizki, sog'lom oila deganda eng avvalo barcha oila a'zolarini jismoniy barkamolligi va ma'naviy-ma'rifiy madaniyat jihatdan mustahkamligi hamda doimiy ravishda barqarorligi tushuniladi. Buning uchun esa katta yoshdagilarning samarali mehnatlari, kichik yoshdagilarning esa yaxshi va a'lo o'qib, kasb-hunarni egallashga astoydil intilishlarini xayot, turmush taqazo etadi. Bu yo'lda esa, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish muxim ahamiyat kasb etadi.

Bugun xech kimga sir emas, yoshlikdan sport bilan muntazam shug'ullanib boradigan bolalargina jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga etadilar. Shu asosida har bir ota-onaning ezgu orzusi bo'lmish sog'lom farzandini o'stirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Har bir ota-ona farzand tarbiyalar ekan, o'z zurriyodining jismonan barkamol bo'lib shakillanishi istaydi. Jismoniy tarbiya va sport bilan do'stlashgan bolani har qanday kasallik chetlab o'tadi. Darhaqiqat, 2002 yilda tashkil etilgan "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" da amalga oshirilayotgan islohatlardan ko'zlangan maqsadlardan biri sog'lom turmush tarzini yaratishdir. Yoshlarni kelajakda komil inson bo'lib voyaga etishida oila katta imkoniyatlarga ega. Bolalarni yoshlik chog'idan gigena qoidalari va jismoniy mashqlarni bajarishga o'rganib borish oila, ota-onalarning vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda ota-onalarning namunasi katta rol o'ynaydi. Bolalarning jismoniy va ma'naviy shakillanishini to'g'ri yo'lga qo'yish va jismoniy ehtiyojlarni qondirish uchun zaruriy sport anjomlari olib berish, sayir-

soyohatlarga olib chiqish, ularni sport to'garaklarga yo'naltirish yaxshi natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, sog'lom bolani shakillanishi va rivojlanishida oila, ota-onaning o'rni beqiyosdir. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish yoshlarni yanada sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayishini ta'minlaydi.

BOLALAR TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI

Bizga yaxshi ma'lumki, bola ta'lim muassasasiga o'qishga kelgunga qadar, o'qishga kelgandan keyingi davrda ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning har tomonlama tarbiya topishida dastlabki qo'rg'on hisoblanadi. Ayniqsa, ota-onalar o'zlarining mehnat faoliyatlari, xulq-atvorlari orqali o'z farzandlariga namuna bo'lishadi. Oilaviy muhitda yaxshi iborali so'zlashuvni doimiy ravishda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar o'z ma'suliyatlarini his qilgan holda maktab o'quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilarga rioya etsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Farzandlarning dars qoldirmasligi va kech qolishlariga yo'l qo'ymaslik va darslar tugagach uyga o'z vaqtida qaytishlarini nazorat qilish;

- farzandlarining uy vazifalarini bajarishlari uchun uyda ularga sharoitlar yaratib berishlari, uy vazifalarini shoshilmay, aniq bajarish imkoniyatini vujudga keltirish lozim va hokazo. Bola tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Biz bilamizki har bir ota-ona farzandi ta'lim olayotgan maktab jamoasining a'zosi hisoblanadi. Ota-onalar orasida turli kasb egalari va jamoatchi kishilar ko'p bo'lib, ular umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiya targ'ibotini olib

borishda, maktabning iqtisodiy bazasini mustahkamlashda o'zlari kelishgan holda yordam beradilar. Maktab bilan ota-onalarning hamkorligini tashkil qilish va mustahkamlashda ota-onalar qo'mitasi tashkil qilinadi. Bu qo'mitaga ota-onalar orasidan saylab qo'yilgan rais va maktab direktori rahbarlik qiladilar. Bundan tashqari har bir sinfdan ham sinf ota-onalari qo'mitasi tuziladi. Ularning ish mazmuni ota-onalar qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda belgilangan. Hamma ota-onalar qo'mitalari har bir o'quv yilining boshida butun o'quv yili uchun ish reja tuzadilar. Sinf ota-onalar qo'mitasi ota-onalar yig'ilishida 3-5 kishidan iborat qilib saylanadi. Sinf ota-onalar qo'mitasining raisi maktab ota-onalar qo'mitasiga a'zo qilib hisobga olinadi. Shu sababli maktab ota-onalar umumiy yig'ilishda sinf ota-onalar majlisi tavsiya etgan kishilardan saylanadi. Maktab ota-onalar qo'mitasi a'zolarining soni har bir maktabning katta-kichikligi, ish sharoitiga qarab ota-onalar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi, lekin uning tarkibida har bir sinf ota-onalar vakili bo'lishi shart.

Qo'mita a'zolari umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishda, maktab yoshidagi bolalarni hisobga olishda, ularni maktabga tortishda, maktabni tamomlagunga qadar muvaffaqiyatli o'qishini tamomlashda maktabda yordam beradilar. Ota-onalar qo'mitasi maktabda "Ota-onalar" burchagi tashkil qilib, u erga o'quvchilarning namunali kundalik ish reja va tartibini, ota-onalar uchun nashr etilgan yangi adabiyotlarni, o'quvchilar qoidasini, maktab tarbiyaviy ishlarining istiqbolli rejasini osib qo'yadi. Bulardan tashqari ota-onalar bilan suhbatlar, majlislar va boshqa ko'rinishdagi hamkorlik ishlari haqidagi ma'lumotlar aks etgan bo'ladi.

Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yishda sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatlari nihoyatda muhimdir. Masalan, sinf rahbarlarining har bir oilaga kirib borishi, shu oilaga va ota-onalarga hurmat sifatida baholanadi. Sinf rahbarining ota-

onalar bilan birgalikda tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilashlari, sinf rahbarining o'quvchilar ko'z oldida ota-onalari bilan suhbatlashishlari ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda jamoatchilikning tarbiya borasidagi metodlari, shakllari mazmunan boyib bormoqda, jumladan, maktab o'quvchilarini rag'batlantirish maqsadida stipendiya berish yoki turmush tarbiyasi og'ir bo'lgan oilalarga moddiy va ma'naviy yordam beruvchi tadbirkor tashkilotlarning ko'payib borishi ham fikrimizning dalili hisoblanadi. Bu borada "Bolalar jamg'armasi", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armalarining faoliyatini aytib o'tmay ilojimiz yo'q.

Xulosa o'rnida shularni aytishimiz mumkinki, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi bolalar tarbiyasida asosiy hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi.

BOLA TARBIYASIDA OTA-ONANING BURCHLARI

Oila haqida gap ketganda ko'z oldimizga ikki yoshning aniq maqsad asosida birgalikda yashashlari tushuniladi. Bu bog'lanishni asoslab beruvchi hujjat nikoh tushunchasidir. Nikoh – bu erkak bilan ayol o'rtasidagi muayyan ittifoq va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining huquqiy shaklidir.

Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tibbiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar orasida axloqiy, huquqiy majburiyatlar o'rnatadi.

Demak, tarkib topgan har bir oilaning, ya'ni er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari mavjud. Bu huquq va majburiyatlar ikki yosh er-xotin hisoblanib, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingandan boshlab vujudga keladi. Bizga ma'lumki, oilada er va xotinning teng huquqliligi, ularning teng majburiyatga egaligi to'g'risida

Konstitustiyada ham belgilab qo'yilgan. "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

Darhaqiqat, nikoh natijasida vujudga kelgan er-xotinning teng huquqlari shaxsiy va mulkiy yo'nalishlarga bo'linadi. Bundan tashqari er-xotin o'rtasida shaxsiy tengliklar ham mavjud. Bular quyidagilarni tashkil etadi.

Familiya tanlashdagi teng huquqlilik.

Nikoh tuzish vaqtida er va xotinning familiya tanlashi ularni oilada to'liq teng huquqligi tamoyilidan kelib chiqadi. Ular o'zaro kelishib er yoki xotinning familiyasini umumiy familiya qilib tanlashlari, yoki har biri nikohgacha bo'lgan familiyasini saqlab qolishlari mumkin. Bu masala er va xotinning har biri tomonidan ikkinchisining yoki boshqalarning tazyiqsiz erkin hal qilinishi lozim. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishdagi tengliklari.

Oilaviy turmushning barcha, jumladan, bolalar tarbiyasi masalalarini er va xotin birgalikda hal qilishi lozim. Haqiqatdan ham oilaviy hayotda er va xotinning birontasi ikkinchisiga nisbatan biron-bir ustun huquqdan foydalanishi mumkin emas. Ular o'rtasidagi tenglik oiladagi barcha masalalarni birgalikda hal qilish tamoyillari bilan ta'minlanadi. Bu teng huquqlilik oila mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi.

Er-xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlashdagi teng huquqlilari.

Er-xotin turmushda o'zlari sevgan, tanlagan kasblarida ishlash, mashg'ulotlar bilan shug'ullanish huquqlariga egalar. Oila qonunchiligi er-xotining turar joy tanlashda ham teng huquq beriladi. Ular erining yoki xotining uyida yoki kelishgan holda boshqa joylarda yashashi mumkin. Aslida bu masalalar oila manfaatini hisobga olgan holda o'zaro hurmat va ishonch asosida

hamjihatlik bilan bamaslahat hal qilinsa, oilada tinchlik, mustahkamlik hukm suradi. Er va xotin farzand tarbiyasida teng ishtirok etishlari.

Farzand tug'ilganidan so'ng uni boqish, sog'lom muhit yaratish ota-onaning burchi hisoblanadi. Ota-ona bolaning oldida teng huquqli javobgar shaxs ekanliklarini unutmasliklari lozim. Chunki, sog'lom munosabatda tarbiya olgan, o'sgan bola jamiyatimizga unumli foyda keltiradi.

Xulosa qilib aytish joizki, oila-nikoh munosabatlarning eng muhim jihatlarini oilaviy hayot sharoiti, oila tarkibi, oila funkstiyasi, oila turmush tarzi, oilaviy mafkura va boshqalar ifodalaydi. Oila jamiyat ijtimoiy tarkibining muhim elementi sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifasi deganda, oila va uning a'zolari hayotda faollikni namoyon qilish usuliga biologik ko'payish, tarbiyaviy, xo'jalik-iqtisodiy, o'zaro yordam, kommunikativ, regulyativ kabilar kiradi. Jamiyatimizning bir bo'lagi sanalmish oilani qurishdan oldin uning inqilobini va istiqbolini o'ylamoq oqillarning ishi, bir-biriga bo'lgan mehr-vafosi esa ota-bobolarimizdan qolgan merosdir.

O'SMIRLAR O'RTASIDAGI NIZOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA HAMKORLIKNING O'RNI

Har bir shaxs o'z shakllanishda rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tadi, bu xislat nafaqat tashqi olamga emas, balki o'z individualiga bog'liq bo'ladi. So'nggi vaqtlarda bolalar va o'smirlar orasida negativ-salbiy tendentsiyalarning kuchayishi o'tkir ijtimoiy muammo hisoblanadi. Jinoyatchilikning o'sishi nizolarning kelib chiqishi, shu jumladan, guruh bo'lib jinoyatchilikka qo'l urish, huquqbuzarlar kontingentining yosh bo'lib borishi, giyohvandlik va toksin moddalarni iste'mol qilish,

o`z-o`zini o`ldirishga urinishlar va o`ldirishlar shular sirasiga kiradi.

O`smirlik davri-jadal va tekis bormagan jismoniy rivojlanish, jinsiy yetilish, shaxsiyatning o`zida, atrof-muhitni o`rab turgan kishilar bilan o`zaro munosabatda jiddiy o`zgarishlar bo`ladigan davrdir. Ijtimoiy muhitning asosi bo`lgan oila, o`smir xulqi shakllanishiga katta ta`sir o`tkazadi. An`anaviy tarzda tarbiya asosiy instituti oila hisoblanadi. O`smirning oilada olgan tarbiyasi keyin bir umrga saqlanib qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatida muhimligi shundaki, o`smir unda hayotining ko`p qismini o`tkazadi va shaxsga ta`sir etuvchi muddati bo`yicha birorta ham tarbiya institutlari oilaga teng kela olmaydi.

O`smirlik chog`ida yuz beradigan fikrlash jarayonlarining murakkablashuvi, mavhumlashtirish, yaxlit holga keltirish va darajalash qobiliyatlarining shakllanishi, atrofdagi voqelikni tanqidiy anglash, ijtimoiy talablari, kechagi bolaning o`zining yangi ijtimoiy rolini qabul qilishi bilan o`zaro ta`sir etib, uning ma`naviy-axloqiy rivojlanishini rag`batlantiradi.

O`zbeklarning aksariyati o`zining shaxsiy faravonligi to`g`risida emas, balki oilasining, qarindosh urug`lari va yaqin odamlarining, qo`shnilarining omon-esonligi to`g`risida g`amxo`rlik qilishni birinchi o`ringa qo`yadi. Bu esa oliy darajada ma`naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir¹.

Huquqiy davlat qurishga intilayotgan O`zbekistonning asosiy konstitutsiyaviy talablaridan biri huquqiy-tartibotni mustahkamlash, jinoyatlarni oldini olish va ularni tugatish hisoblanadi. Keyingi paytlarda o`smirlar o`rtasida giyohvandlik va nashavandlik, o`z joniga qasd qilish, yoshlikdan ichkilikbozlikka

¹ I.A.Karimov. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: “O`zbekiston” nashriyoti, 1998, 21-bet.

ruju qo'yishdek salbiy holatlarning o'sishi keskin ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda.

O'smirlik davrini qiyin o'tish davri deb bekorga aytilmaydi. Ana shu o'smirlik yoshida turli huquqbuzarliklar vujudga keladi. Bu davrda har bir shaxs bolalikdan o'smirlikka qadam qo'yadi, kuchli jismoniy hamda atrofdagilar bilan o'zaro munosabatda jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunday qaltis davrni muvaffaqiyatli o'tishi faqat shaxsning o'ziga emas, balki uning ota-onasiga, atrofdagi katta yoshdagilarga ham bog'liqdir.

Shaxsning shakllanishida o'smirlik yoshi, o'zining ijtimoiy va biologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi. Ulkan hayot yo'lining mana shu muhim bir qismida, katta yoshdagi o'smir o'z oldiga kim bo'lish, nima, qanday va nima uchun erishish kabi masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Masalalarni qanday qo'yishni va jamiyat bilan uyg'unligi shaxsning kelajakdagi keng istiqboliga bog'langan holda, uning faolligi, barqarorligi, ma'naviy pokligi, maqsadga yo'nalganligi, betakrorligi, ijtimoiy va psixologik jihatdan mazmundorligi jamiyat uchun ham qimmatlidir. O'smirlik davrining qiyin davr bo'lishi ko'p jihatdan o'smir ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olmagan holda nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish sababli namoyon bo'lishi mumkin.

Shu sababli o'smirlik yosh davrida mavjud nizoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'smirlik inqirozlarining yengil bartaraf etilishiga va pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu davrda nizoli vaziyatlarning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'ladi. Jumladan, o'smirning o'z tengdoshlari orasida qulay mavqega erisha olmasligi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarning maqsadga muvofiq emasligi, oilaviy munosabatlardagi tushunmovchiliklar va hokazo.

O'smirlarning o'z tengdoshlariga intilishi o'zgacha bo'ladi. O'z tengdoshlari orasida o'zining sifatlarini boshqalar sifati bilan solishtirish, tenglik sharoitida u kimgadir boshqacha ko'rinish

xususiyatlarini o`smirlar guruhida yaqqol kuzatish mumkin. Tengdoshlari orasidagi taniqli bo`lish va ularning hurmatiga sazovor bo`lish bu yoshdagi o`quvchilarning xususiyatlaridan yana biridir. O`smir o`zining ichki "qarash" lariga suyangan holda guruhda qo`llab-quvvatlovchi tayanch qidiradi. Tengdoshlari unga qanday baho berishida ular o`rtasidagi munosabatlar doirasida xilma-xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Bunday vaziyatlar o`smirda o`z mavqieyini tiklash uchun ijobiy harakatlarni tanlash yoki aksincha ko`rinishda bo`lishi mumkin. Shu kabilarning barchasi bevosita jamiyatning psixologik iqlimiga ta`sir ko`rsatadi.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ta`lim jarayonida o`smirlar o`rtasidagi shaxslararo nizolar, ularning xususiyatlari va nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarning tabiati turli-tuman ekanligining guvohi bo`ldik. Maktab psixologi faoliyatida o`smirlik davriga xos shaxslararo nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va uni negativ asoratlardan saqlashning profilaktikasini faqat psixokorreksion usullarning muayyan shakllarini ya`ni, psixokorreksion ta`sir o`tkazish yo`li bilan bartaraf etish mumkin.

O`smirlik davriga xos nizolarning psixologik mohiyati, taxlili ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyatini beradi:

- O`smirlar o`rtasidagi nizolar, ularga xos sub`ektlilikning turli shakllarini faollashtirib, shaxslilik xususiyatlarining rivojlantirishga sharoit yaratishi;

- O`smirlar o`rtasidagi shaxslararo nizoli vaziyatlarda hamkorlikdagi munosabatlar ko`rinishdagi alternativ (mumkin bo`lgan qarama-qarshi ikki xoldan birini tanlab olish zaruriyati) larni anglash, sharoitini yaratish maktab psixologi faoliyatining predmeti bo`lishi;

- Maktab psixologi va o`smirning o`zaro hamkorlikdagi faoliyati o`smirlarning shaxslararo nizolarni bartaraf eta

olishlarida o'z - o'zlarini rivojlantirishlari uchun muhim imkoniyat bo'lishi mumkin.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki maktabda psixologik xizmatni rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlarini kengaytiradi va maktab psixologlari faoliyati va tarbiyaviy ishlarining dasturini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar, inovatsion dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Mavzudan kelib chiqib o'smir yoshga kiruvchi bolalarni psixologik xususiyatlarini organgan holda mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektorlari tomonidan doimiy nazoratda bo'lishlarini va ularning ish jarayonlari bilan tanishib chiqdik. O'smirlik davriga 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalar ya'ni 5-sinfdan 9-sinfgacha va KXK, ALlarning I-bosqich talabalari kiradi. O'smirlar o'rtasida nizolarning kelib chiqish sabablarini, nizolarni hal etishda va ularning kelib chiqishini oldini olishda, nafaqat ota-ona, maktab jamoasi balki mahallalarda faoliyat yurituvchi pedagog tarbiyachi va inspektorlar ish olib borishadi.

O'smir yoshlar va voyaga yetmaganlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni ommaviy sportga jalb etish, huquqbuzarlikka moyil va ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar hamda farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar o'rtasida tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni olib borish maqsadida fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari tarkibiga pedagog-tarbiyachi lavozimining kiritilishi yoshlarga qaratilgan barcha ishlar Davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Tarbiyalanib kelayotgan o'smirlarning bilish jarayonlari psixologik xususiyatlari ham rivojlangan bo'lib, ular ruhiy holatida buzilishlar uchraydi. Do'stlar o'rtasidagi arziyas kelishmovchilik, ota-ona va farzand o'rtasidagi tushunmovchilik, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi muammoli vaziyatlar

nizolarning kelib chiqishiga va ularni yoki to`g`ri hal etilishi, yoki chuqurlashib ildiz olib ketishiga sabab bo`lishi mumkin. Maktab ota-ona, mahalla hamkorligi mustahkam bo`lsa bunday nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi kamayadi va uning yechimini topish oson kechadi.

Shularni hisobga olgan holda mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari tuzilgan bo`lib, ularning tarkibiga mahalla nozirlari, maktab rahbarlari, mahalla fuqarolar yig`ini raisi, tajribali o`qituvchi, sport murabbiylari va mahalla faollari a`zo etib kiritilgan. Mavzudan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maktabning yuqori sinf o`quvchilari, voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari bilan hamkorlikda izlanish olib bordik. Maktabda o`quvchilar o`rtasida ijtimoiy fikr so`rovnomasi o`tkazildi

So`rovnoma natijalariga ko`ra osmirlarning ijtimoiylashuviga oila, maktab, tengdoshlar ta`siri 62 nafar o`quvchini tashkil etadi. OAV ta`siri 66 nafar o`quvchini tashkil etadi. O`smirlarni o`z-o`ziga baho berishi 70 nafar o`quvchi, va suitsid holga tushishi esa afsuski-22 nafar o`quvchini tashkil etdi. Xulosa qilib aytganda ijtimoiy fikr so`rovnomasi o`smirlar o`rtasida ziddiyatlarni paydo bo`lishi ularni hal etish bo`yicha o`smirlarni mavjud imkoniyatlarni, bilimlarini aniqlashga yordam berdi.

O`smirlar o`rtasida nizolarni paydo bo`lishi yuzasidan mahalla inspektorlariga murojaat etdik. Nizolarning oldini olish y`ani profilaktika ishlari bo`yicha joylarda yoshlarning bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazishni tashkil etish, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning sonini kamaytirish borasida tushuntirish ishlari, suhbat munozaralar o`tkazilganini ko`rib chiqib, hujjatlar, bayonnomalar bilan tanishdik. IIB voyaga yetmaganlar o`rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining

xizmat vazifalari va burchlari bilan ham tanishib chiqdik.Unga ko'ra,

-Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o'z ish faoliyatida voyaga yetmaganlar qarovsizligi, ular orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish ishlarini amalga oshirib, ichki ishlar idoralari profilaktik xisobda turgan voyaga yetmaganlar va farzandlari tarbiyasi bilan shugullanmayotgan, o'zlarining jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ota-onalar bilan profilaktik tadbirlarni, mahalliy hokimiyat, maxalla fuqarolar yig'ini, xalq ta'limi bo'limi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, mahalla diniy ma'rifiy maslahatchilar va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni tashkillashtirish;

-Voyaga yetmagan yoshlarni Vatanga sadoqat, kelajakka ishonch, milliy qadriyatlarimiz va o'zligimizni anglash, ularda vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy mafkura, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish, oila, mahalla, maktab, xududni muxofaza kiluvchi idoralar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy xarakati, xokimlik xuzuridagi voyaga yetmaganlar ishi komissiyasi, xalk ta'limi, Oliy va urta maxsus ta'lim, mexnat va axolini ijtimoiy muhofaza qilish, Sog'likni saqlash vazirliklari, Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi va keng jamoatchilik hamkorligida ishlarni tashkil qilish;

-Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida ishlab chiqilgan ish rejalari asosida ish yuritish kabi ma'suliyatli vazifalar belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda o'smirlar o'rtasida nizolarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etish fikrimizcha ota-ona, maktab, mahalla hamkorligiga bog'liq. Hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilsa, mahallalarda inspektorlar va maktab rahbariyati tomonidan

profilaktik tadbirlar, uchrashuvlar, suhbatlar ko`proq tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

TARBIYASI “OG‘IR” O‘SMIRLARNI OILADA TARBIYALASH MUAMMOLARI

Ota – onalar tomonidan ishlatiladigan har qanday tarbiya vositalari o‘smirda ijobiy xususiyat va yuqori g‘oyaviy ko‘zlangan maqsadni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Abdulla Avloniy XX-asr boshlarida o‘z davrining yetuk ma‘rifatparvari, usta murabbiysi, boshlang‘ich o‘zbek ta‘limiga salmoqli hissa qo‘shgan va birinchilardan bo‘lib axloq, ta‘lim-tarbiya masalalariga oid o‘ziga xos “Qobusnoma”ni yozib qoldirdi. Bu asar 1913 yilda yozilib, 1917 yilda ikkinchi bor nashr qilingan bo‘lib, “Turkiy Avloniy” o‘z ijtimoiy va axloqiy, ta‘limiy qarashlarini bayon etgan holda umuman tarbiya haqida fikr-mulohaza yuritib, uni to‘rt turkumga; “Tarbiyaning zamoni”, “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi” va “Axloq tarbiyasi”ga bo‘ladi. Insonni tarbiyalashda bu to‘rt masala g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

A.S.Makarenkoning ta‘kidlashicha, aniq tarbiyaviy, siyosiy maqsadni qo‘ymay turib, insonni tarbiyalab bo‘lmaydi. «Har bir ota va har bir ona o‘zining farzandiga nimani va qanaqa tarbiya berishi kerak. O‘zlarining shaxsiy ota-onalik xohish – istaklariga nisbattan hisobot bera olishi lozim. Siz o‘z vatanining haqiqiy fuqarosi, g‘ayratli shijoatli, vijdonli, o‘z halqiga va ishiga sadoqatli, mehnatsevar, tetik hamda xushmuomala insonni tarbiyalashni xoxlaysizmi? Yoki farzandingizni xudbin, ko‘rqoq, xasis va qandaydir mug‘ombir bo‘lishini xoxlaysizmi? O‘zingizni o‘ylashga majbur qilib, yuqoridagi savollarga javobni o‘ylang, bunda siz tarbiya jarayonida yo‘l qo‘ygan xatonlarimizni ko‘ramiz va oldinda

to'g'ri yo'llarning mavjudligini aniqlab olasiz», - degan edi A.S.Makarenko.

Maqsadga yo'naltirilgan tamoyillar ota-onalarning o'smirlarni rostgo'y va vijdonli, ularning ijobiy xulq – atvorini o'yg'otish, nohaqlik, aldov, yolg'onni chetlab o'tishni taqozo etadi. O'smirlarni qayta tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'yib, tarbiya uslublari tizimini o'rganish, ya'ni zaruriy xulq-atvorni shakllantirish maqsadida, shaxsga tarbiyaviy – tashkiliy ta'sir ko'rsatish yullari va uslublari majmui orqali singdirish lozim. Tarbiya uslubining to'g'ri tanlanganligi o'smirlar tarbiyasiga ijobiy turtki bo'ladi. Oilada o'smirlarni tarbiyalashning ishontirish, ijobiy natija, rag'batlantirish va jazolash kabi uslublar asosiy o'rin tutadi.

Bolalarni qayta tarbiyalashda ishonch yoki ishontirish uslubi yetakchi o'rin egallaydi. Bu uslubni qo'llashda ota-onalardan samimiylik va rostgo'ylik talab qilinadi. Ishontirish uslubining asosiy shakllaridan biri suhbat bo'lib hisoblanadi. Bunda puxta tayyorgarlik talab etilib, u asosan, gurux rahbari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Suhbat, asosan, o'smirning nojuya hatti-harakatini tahlil qilgan holda ko'riladi. Ishontirish bilan birgalikda ota-onalar boshqa, ya'ni buyruq berish, pand-nasixat qilish, ehtiyotkorlik shakllarini ham ko'llashlari lozim. Nasixat qilish jonga tegadigan va har qanday holatda injiqlik qilishga majburlashga aylanmasligi kerak. Ehtiyotkorlik, o'smirni har qanday nojuya harakatlarni amalga oshirishdan saqlaydi. Ishontirishning asosiy shakllaridan biri – do'stona maslaxat berish.

Qayta tarbiyalashning boshqa uslublaridan yana biri – mashq bajarish uslubi hisoblanadi. Bunda ijobiy – axloqiy tajriba to'plash maqsadida, o'smirning o'zi jamiyat uchun foyda keltiradigan faoliyatga ishtirok etadi. Bu esa, ongli-axloqiy xulq-atvor malakasini shakllantirish imkonini beradi. Mashq bajarish uslubi tizimlilikni talab etadi, qaysiki, uning doimiy qo'llanilishi ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Tizimlilikka ko'nikma hosil

qilish hakida gap ketganda, A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, agar biron-bir narsa «bir kun qilinsa, bu juda qiyin kechadi, agar bu ish bir oy bajarilsa, osonrok kechishi mumkin, agarda bir yil bajarilsa, juda ham oson kechadi».

Ma'naviy – ahloqiy odatlarning hosil bo'lishi xulq-atvor va hatti- harakatlarning ijobiy siljishini ta'minlaydi. Oilada o'quv mehnati ko'nikma va malakasi shakllanishi jarayoni yanada yaxshiroq natija beradi, agar ota-onalar:

Bilim olishda qiziqтира oladigan dalillarni ishlata olish, ya'ni bilim olishga bo'lgan intilishlarini yaxshi tomonga o'zgartirish, guruxdagi namunali o'kuvchilar darajasiga ko'tarilishi, obro' qozonishsa;

O'smirni yomon o'zlashtirishi uchun jazolamasdan, qiynalayotgan fanlariga ko'maklashishsa;

O'smirga bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishiga yordamlashish, unda jamiyat oldidagi mas'uliyatini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash;

Jamoaga bo'ysunish, jamoa ishiga faol qatnashishga ko'maklashish.

Axloqiy ko'nikmalarni shakllantirishda o'smirlarga unga tizimli talablar ko'rsatish zarur, shakllanadigan malakaning maqsadini tushuntirish lozim. O'smir axloqiy ko'nikmaning hayotiy mazmunini bilmay turib, uni qabul qila olmaydi. Buning uchun tarbiyachi malakani mustaxkamlash uchun uning shakllanish bosqichlarini inobatga olishi lozim:

Shakllanayotgan malaka asosida axloqiy hatti – harakatlarning bajarilishi;

Malaka rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan sabablarning bartaraf etilishi;

Har kunlik mashqlar orkali shakllanayotgan malakani mustaxkamlash.

Axloqiy malakaning shakllanishida shaxsiy namuna asosiy o'rin egallaydi. Afsuski, ko'pchilik oilalarda katta kishilarning

xulq-atvorning salbiy hatti-harakatlari holati ko'zatiladi. Shu sababli, o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onalar, avvalombor, kattalarning o'zlari namuna tariqasida, bolalar va oilaning boshqa a'zolari bilan yaxshi, samimiy munosabatda bo'lishlari kerak, aksincha holatda, oilada «tarbiyasi o'smirlarni tarbiyalashda yaxshi natijalar bermasligi mumkin.

Ijobiy namuna o'smirlarga, nafakat namunali hatti-harakat namunasi bo'lib, balki chiroyli xulq-atvorni chuqurroq anglashiga yordam beradi, ma'naviy tushunchaning shakllanishiga imkon beradi. O'smir uchun shaxsiy namuna bo'lib uning ota-onasi hisoblanadi. Shu ma'noda A.S.Makarenko quyidagi fikrni aytadi: Gapirganda tondagi kichkina o'zgarishni bola ko'radi va his qiladi, fikrimizdagi barcha burilishlar unga ko'rinmas yo'llar orqali borib yetadi, Siz esa, buni payqamaysiz. Agar Siz uyda qo'pol yoki baxil, yoki aroqxo'rlik, yoxud bundan ham yomon holatlarni sodir qilsangiz, agar siz onasini hakoratlasangiz, bu holda siz tarbiya haqida o'ylamasangiz ham bo'ladi; siz allaqachon farzandingizni tarbiyalab bo'lgansiz va yomon tarbiyalayapsiz, endi Sizga hech qanday tarbiyaga oid maslaxatlar va usullarning hojati qolmaydi».

Ota-onalar o'rtasidagi shavkatsiz, sovuq munosabatlar, ishonchsizlik, ziqnalik, ko'pollik o'smirni ulardan o'zoqlashtiradi. Bolalarni tarbiyalash tizimida ota-onalar oldida turgan asosiy vazifa – bu o'smirlarga, murosasiz munosabatlarga, axloqsiz xulq-atvoriga befarqlik hissini uygotish hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandini to'g'ri tarbiyalashni xoxlashadi. Ammo hamma ham o'zining xulq-atvoriga tanqidiy qarash qobiliyatiga ega emas, qayta tahlil qilish orqali o'smirlarga buning o'zi qanday ta'sir ko'rsatishini anglay olish kerak.

Shahar va tumanlardan tanlab olingan talabalarning oilalarini o'rganib, ularning turlarini guruxlarga ajratish imkonini berdi.

Oilada otasi yuq, onasi esa axloqsiz hayot tarzini olib boryapti va o'z farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanmayapti;

oila, bunda fakat ota bor; ota-onasi yuq oila, farzand qarindoshlarinikida yashaydi; to'liq oila, ammo na ota va na ona farzandi tarbiyasi bilan shug'ullanishmaydi; to'liq oila, ammo ota-onalar o'z ishlari bilan band; oila, bunda ota-onalardan biri baxtsiz xayot tarzini kechiryapti; oila, bunda ota-onalardan biri ijtimoiy foydali mexnat bilan shug'ullanmaydi; oila, bunda yaqin qarindoshlardan biri jinoiy hayot tarzini olib boradi; ko'p bolali oila, bunda ota-onalar o'rtasida murosasizlik mavjud.

Bir necha misollar keltiramiz: Raxmonov B. Buxoro shahar, A.Jomiy ko'chasida yashaydi. O'smirning otasi yo'q. Onasi farzandining tarbiyasidan bosh tortgan, bu esa uning qarovsiz qolishiga olib kelgan. Raxmonov o'g'irlik bilan shug'ullanadi, chekadi, spirtli ichimliklar iste'mol qiladi, karta o'ynaydi, onasiga, uning axloqsiz hayot kechirayotganligi uchun unga jismoniy jazolashni aytib, tahdid o'tkazadi.

Andrey B. Buxoro shahrida yashaydi. Ota-onasi bor, ularning "ichishga" berilib ketishi, 5- nafar bolani qarovsiz qolishiga sabab bo'lgan. Qarovsiz qolgan Andrey soat, pul va narsa o'g'risiga aylanib qolgan.

X.Asadning 4- nafar ukasi va singlisi bor. Ota-onalar bolalar tarbiyasi uchun bir-birlari bilan janjallashib, farzandlari tarbiyasiga qaramay qo'yishgan. Buning oqibatida, Asad huquqbo'zarlik yuliga kirib qoldi.

Tarbiyaga loqaydlikni oldini olishning asosiy sharti, tarbiyaning tarbiyaning to'g'ri olib borilishi hamda ota-onalar va boshqa oila a'zolarining hulq-atvoridagi salbiy holatlarning bo'lmasligi hisoblanadi. Bunday usullardan yana biri, rag'batlantirish va jazolash choralaridir. Bolalarni tarbiyalash jarayonida, ba'zida jazolash usulini ko'llashga to'g'ri keladi, donishmandlar o'g'itlari bo'yicha, tartib intizom bo'zuvchilariga qarshi kurashda *«targibot va tashvikot olib borish bilan konikmay... kurashni majburlash orqali olib borish kerak»*. O'smir

har doim jazolash sababini bilishi lozim, aks holda, unga beriladigan jazo hech qanday naf bermaydi. O'smiringa beriladigan jismoniy jazo, uning tarbiyasiga katta zarar yetkazadi, qaysiki, bunda o'smir bilan kattalar o'rtasidagi nizoga sabab bo'ladi. *Rag'batlantirish va jazolash* o'rtasida ziddiyat bo'lmasligi kerak. Bo'larni qo'llashda huquqiy normalarni inobatga olish hamda fuqarolar huquqi hamda bolalar majburiyatlari hakidagi tushunchalarni to'g'ri qabul qilish lozim. Jazolashning maqsadi, uning o'z vaqtida qo'llanilishi, zarurligi hamda extiyotkorligi, shaxs va uning hatti-harakatlarining me'yorida bo'lishidan iborat. Bolaning rag'batlantirishdagi va jazolashdagi hissiyoti xolati xakidagi tushunchani to'g'ri qabul qilish juda zarur, chunki ko'rsatib utilgan usullarning tarbiyaviy maksadga yunaltirilganligi asosida ushbu masalalarning mosligi yuqoriligiga erishish yotadi.

Rag'batlantirish va jazolash – bu munosabatlarni tartibga solish vositalari majmui bo'lib, pedagogik holatni tashkil etib, bunda munosabatlar o'zgaruvchanligi hisoblanadi. Rag'batlantirish va jazolashning turlari va shakllarini guruhlanishining asosiy belgilari bo'lib, bolalar faoliyatini rag'batlantirish va to'siklar uslubi, ularning munosabatlariga o'zgartirishlar kiritish usullari kiradi. A.S.Makarenkoning fikricha, tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy masalalaridan biri – bu tarbiyalanuvchilar hayot tarzi to'zilishini «faollik va to'sqinlik» munosabatlarining to'g'ri yo'lga quyilishi hisoblanadi. «O'ziga to'skinlik qilish – bu juda murakkab ish, asosan, bolalikda, u oddiy biologiyadan emas, balki u fakat tarbiyalanishi mumkin. Agarda tarbiyachi bolaning o'ziga to'sqinlik qilish hissini tarbiyalamagan bo'lsa, unda buni keyinga amalga oshirib bo'lmaydi. O'zini tiyib turish har bir kadamda amalga oshirilishi lozim, aks holda bu oddiy holga aylanishi lozim».

Oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, xotirjamlik hissiyoti muhiti – albatta, bola tarbiyasining to'g'riligidan dalolat beradi. Oila

xotirjamligi hissiyoti muhitining asosida ota-onalar va farzandlari o'rtasidagi samimiylik, bir-birlariga ishonch munosabatlari yotadi, u ijobiy yoki salbiy harakterda bo'lishidan kat'iy nazar... «Bolalar baxtli bo'lishadi, - kaysikim, ota-onalari ularni bag'riga olishga tayyor, ularning farzandlari hak yoki nohaq bo'lishlaridan qat'iy nazar, va farzandlari ham hech qanday qo'rquv va shubhasiz o'z ota-onalari bag'riga talpinsalar».

Dunyoga kelishdan maqsad yashashdir, yashashdan maqsad esa halqimiz uchun foydali mehnat, xizmat qilishdan iborat.

Chindan ham ko'xna dunyoda mehnatsiz turmushning vaxshiylik ekanligi insoniyat hayotida sinab ko'rilgan. Halqimiz azaldan o'z ma'naviy qadriyatlarini va diniy e'tiqodini qadrlab kelgan, shuning uchun u eng mushkul damlarda ham o'zligini yo'qotmagan.

Hayotda, shu narsa ma'lumki, tarbiya ko'rmagan odamga ta'lim berish ham mushkul vazifadir, zotan ta'lim-tarbiya mujassam bo'lgan insondagina hayot yo'llaridan qoqilmay olg'a borish, ko'ngil orzulari-o'ylariga yetishish, elu-yurt xizmatida bo'lish ufqlari keng bo'ladi. Shu nuqtai nazaridan qaraganda kamol topayotgan avlodga o'zbek halqining milliy qadriyatlarini, boy milliy me'rosimizni, o'zbekona insoniylik fazilatlarini singdirish biz o'qituvchi, pedagoglar oldidagi eng muhim vazifalardandir.

Hazrat Bahovuddin Naqshband o'g'itlari har bir insonni doimo Xudoni dilga jo qilgan holda, uni doimiy o'ziga madadkor deb bilib, kasb o'rganishga, o'z ishining ustasi bo'lishiga, mehnat qilishga undagan.

Tarbiya jarayonida qo'yilgan talablarning yuqoriligi, hozirgi zamon o'smiri shaxsini murakkabligini va ko'p qirraligini namoyon etadi, agar tarbiyaviy ish o'smirning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib amalga oshirilsa, unda o'smirlar tarbiyasining natijaviyligi oshadi. Tarbiya borasida qarovsiz

qolgan o'quvchi va talabalar o'rtasida qo'pollik, dag'allik, ko'rsatish, kattalarga nisbattan hurmatsizlik kabi xulq-atvor kamchiliklari keng tarqalgan. Qo'pollik va qo'rslik ularda kattalar tomonidan qilingan noto'g'ri munosabatlar oqibatida paydo bo'ladi, ammo ko'pincha, kupollik ular uchun ulgayish, mardlikning belgisi sifatida tushuniladi, ezgulik va ko'ngilchanlik ko'ngilbo'shlik va kuchsizlik belgisi deb baholanadi.

Ba'zida ularning hatti-harakatida «*yolg'on*» kabi kamchilik namoyon bo'ladi, bu esa, do'stlik va birodarlik hakidagi tushunchani noto'g'ri anglashga olib keladi, ya'ni yomon ish tutgan do'stini o'smir, qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi. Tarbiyadan chetda qolgan o'smirlarda ko'zatiladigan dangasalik hissi ota-onalarning aqlsizlik bilan olib borgan tarbiyasi mahsuli hisoblanadi, ya'ni bu ularning o'z farzandlarini mehnat faoliyatidan asrab qolishlari natijasida sodir bo'ladi.

Oilaning farzand tarbiyasida asosan farzandning kelajakdagi baxti ko'proq ota-onaga bog'lik, ularning farzandini tarbiya kila olishi, ota-onada farzandidagi barcha yomon illatlarni ildiz bilan sug'urib tashlab, yaxshilarini rivojlantirish qo'bilyatining mavjudligi hisoblanadi. Oilada farzandining to'g'ri o'sishi uchun ota-onalarning bolalari tarbiyasiga yuqori darajada mas'ul bo'lishlari, ularning hatti-harakatlariga maksadli yondashuvi hamda individual ravishda ta'sir ko'rsatishning to'g'ri tanlanishi talab etiladi. Yomon oilalarda tarbiyalangan bolalarni ko'zatisht natijasi shuni ko'rsatdiki, ularning qahri qattiqligi va chikishmasligi o'smirlarning hissiyotiga tashnaligidan dalolat beradi, oilada paydo bo'lgan hamda bola dunyosi hissiyotining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bola tarbiyasining asosiy tomonlaridan biri bo'lib, oila hamjihatligi tushuniladi. Buni to'g'ri tashkil etish natijasida o'smirlar o'z tengdoshlariga yomon ishlarni amalga oshirishga tuskinlik kilishga erishadilar. Ko'zatuvtlar natijasida shu narsa

ma'lum bo'ldiki, o'smirlarning 5 – 6 % i o'z oilalari bilan bo'sh vaqtlarini utkazishgan. Ko'pchilik ota-onalar turli xil baxonalar bilan o'z farzandlariga diqqat-e'tiborini karatishmagan, bo'sh vaqtdan foydalanish bo'yicha hech qanday ma'lumot berishmagan.

«Ko'pchilik ota-onalar ba'zida farzandlarini har kuni «mashq qildirish», ya'ni rostgo'ylik, so'zining ustidan chikishni, noto'g'ri kilgan hatti - harakati uchun uyat hissini tarbiyalash, ularni halq boyligini asrab avaylashga o'rgatish kabilarni o'rgatishni eslaridan chiqarishadi. Muntazam ravishda yolg'on gapirish, kerak bo'lmagan narsalarni va'da berish «tinch qo'yishsin» maksadida, o'zlarining axloqsiz hatti-harakatlari bilan ma'naviy qoloqligini ko'rsatib beradilar».

Ota-onalarning nohaqligi bolalar ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Ota yoki onasining noto'g'ri hatti-harakatini kurgan farzand, buni oddiy hamda to'g'ri holat, deb qabul qiladi.

Xudbinlik ruhida tarbiyalangan bolalar ota-onalarining qiliqlarini o'zlariga qabul qilib olishadi, o'zgarlar karamogida bo'lish hissi bilan kun kechirishadi. Tarbiya bobida yul quyilgan qarovsizlikni ogohlantirish maksadida, o'smirning hatti harakatlari majmuini o'rganish va unga individual yondashish lozim. O'smirni o'rganish quyidagi xolatlarda amalga oshiriladi:

Turli xil sharoit va vaziyatlarda, shaxslararo munosabatlar jarayonida ota-onalari, tengdoshlari, dustlari va boshqa kishilar bilan olib borilgan muloqoti;

Yetuklik va o'zgarishlar jarayonida, ya'ni bunda bola o'sishi bilan birgalikda u o'zgaradi ham, uning dunyoqarashi boyiydi, ba'zida unda «shaxs» ekanligi tushunchasi shakllanadi;

Har tomonlama (barcha hayotiy sharoitlarda o'smirning hatti-harakatini bilib turish zarur);

Bolaning yashash sharoitini hisobga olgan halda;

Uning tabiati va xulq-atvorini har tomonlama ajralmasligi;

Xulq-atvori sababini, uning sodir bo'lish hollarini, shuningdek, bolaning ichki xolatini hisobga olgan halda.

O'SMIRNING PEDAGOGIK QAROVSIZLIGINI OLDINI OLISHDA PEDAGOGNING O'RNI

Davlat fuqarolar huquqini, nafakat bilim olishga karatdi, balki uni moddiy, ma'naviy, yuridik va pedagogik kafillikni uning xakkoniyligi hamda mustaxkamligini ta'minlagan halda e'lon kildi. Birok, halq ta'limi muammolari davlat tomonidan konuniy ravishda tartibga solish orkali ham hal qilib bo'lmaydi. Hali hal qilinmagan, murakkab, asosan, pedagogik qarovsizlik sabablari masalalar ham mavjud. Shuning uchun, har bir maktab oldida turgan o'zlashtiraolmaslik ogohlantirish va bartaraf etish muammolarini ilgari surish muximlik kasb etadi.

Pedagogik qarovsizlikni oldini olish barcha masalalarni to'g'ri yechimini topish, tashki imkoniyatlarga va yuqori baxolarga bog'lik bo'lmasdan, balki maktabdagi ta'lim va tarbiyaning barcha tizimlarini takomillashtirishdan iborat. Bu ishlarda hal kiluvchi, harakatlantiruvchi kuchlari sifatida maktablar va barcha ukituvchilar har bir past o'zlashtiruvchilar uchun ma'naviy javobgar hisoblanishadi. Bu qoida bolalarning huquqbuzarligini oldini olishda ham o'zining to'la aksini topadi.

Maktab dasturidagi barcha fanlarni o'tish sifatining yaxshilanishi ba'zi respublikalarning maktablarida ijobiy natijalar berdi. Buning misolida Gala-osiyo shaxridagi 12 - maktab ukituvchilari barcha o'quvchilarining bilim sifatini yuqori darajaga kutarishga muvafak bo'lishdi, okibatda, tarbiya borasida qarovsiz kolgan o'quvchilar soni kamaydi.

Buxor, Kogon, G'ijduvon, Shofirkon, Peshko' tumanining bir kator maktablarida olib borilgan tarbiyaviy ishlar tajribasida, shu holat ma'lum bo'ldiki, qiyin tarbiyalanadigan o'quvchilar bilan

ba'zi o'qituvchilar o'rtasidagi nizolarning bartaraf yetilishi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aqlli muloqotni o'rnatmay turib, psixologik – pedagogik hatolarni oldindan aytib bo'lmaydi. O'smirlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda xosil bo'ladigan kiyinchiliklar, ularda bilim olishdagi ijobiy munosabatlarning shakllanishi davrida bir kancha kiyinchiliklar paydo bo'ladi. Agar ukituvchilar pedagogik qarovsiz kolgan o'quvchilarning ulgayish tuygusiga befark munosabatda bo'lishsa, o'smirlarning bilim olishidagi ijobiy munosabatlarning shakllanishi davrida bir kancha kiyinchiliklar, ular bilan utkaziladigan tarbiyaviy ishlarda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy bosqichdagi umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'kuvchilarga vatanparvarlik ruxini, milliy istiqloq g'oyasini, milliy tafakurni, shakllantirish bo'yicha barcha ishlarning samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Bunday mas'uliyatli masalalarni yechishda umumijtimoiy va shaxsiy-pedagogik harakterdagi murakkab muammolar yotadi. Bunday muammolardan biri bo'lib, o'quvchilar bilan ularning ota-onalari va maktabning pedagogik jamoaci urtasidagi nizoli vaziyatlar hisoblanadi. Insonning dastlabki vujudga kelishi ijtimoiy uyaning (yacheykaning) o'zida sodir bo'ladi, ya'ni oilada.

Oilada ma'naviy mikromuxitning bo'zilishi, oila a'zolari urtasidagi o'zaro munosabatlarning yomonligi, oilaning bo'zilishi, oilada tarbiyaning sustligi, moddiy-turmush tarzining yaxshi emasligi kabilar nokulay oilaviy sharoitlar yoki oiladagi tarbiya muxitining bo'zilishi bilan boglik xolatlarni keltirib chikarishiga imkon yaratadi. Oilada tarbiyaning yetishmasligi okibatida, kupchilik o'smirlarda qaysarlik, qo'pollik, tajovo'zkorlik, beadablik kabi negativ xususiyatlar rivojlanadi, bu esa ularning ota-onasi, yakin karindoshlari urtasidagi munosabatlarga yakun yasaydi. Buning natijasida, ular maktabga betayin, jizzaki,

odamovi (odamlarga kushilmaydigan), muxitning salbiy ta'siriga bardoshsiz bo'lib kelishadi, ya'ni nizoni keltirib chikaradigan quyilgan poydevor.

Demak, nizoli xolatlarni bartaraf etishda o'smirning xayotga, tashki talablarga, uni urab olgan insonlarga bo'lgan munosabati allakachon oiladan paydo bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi.

Ba'zi maktablarda ukuv-tarbiyaviy jarayonga bo'lgan tizimli munosabatning yukligi, o'quvchilarning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan halda bolalar tarbiyasida oila va maktabning jipsligi, turli xolatlarda tarbiyaviy ta'sir etish vositalarining noto'g'ri kullanilishi, o'quvchilarga nisbattan individual munosabatning yukligi, ularning ota-onasi hamda maktabning pedagogik jamoai urtasidagi turli xil nizolarning paydo bo'lishiga kulay zamin yaratadi.

Qiyin tarbiyalanadigan hamda pedagogik qarovsiz qolgan o'quvchilarning tarbiyasi kabi muammolarga pedagoglarning yetarlicha e'tiborsizligi turli-tuman salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun, maktab tajribasida nizoli xolatlarni bartaraf etish, oldindan chora ko'rish, o'quv-tarbiyaviy masalalarning muvaffaqiyatli hal etishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Muammoli vaziyatlar quyidagi xollarda paydo bo'ladi:

O'quvchilar va sinf jamoasi o'rtasida;

O'quvchilari va o'qituvchi o'rtasida;

Maktab va o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida.

Muammoli xolatlarni hal etishning samarali yullari quyidagilardan iborat:

a) O'quvchining sinf jamoasi oldidagi mavqei, asosan, o'smirlik davrida shaxsning axloqiy rivojlanishida kata urin egallaydi. Agar o'smir o'zining sinf jamoai orasida ijobiy mavkega ega bo'lsa, unda o'smirda shaxsning ijobiy xususiyati shakllanadi, uning xulqida hamjihatlilik xususiyati rivojlanadi. Agarda, o'smir sinfda paydo

bo'lgan shaxslararo munosabat tizimida salbiy mavkega ega bo'lsa, unda o'smirga shaxsning salbiy xususiyati rivojlanadi, uning xulqidagi yakkalik xususiyati shakllanadi.

O'smirning jamoadagi urnining yo'qolganligi bilan bog'lik bo'lgan qoniqarsizlik hissiyotining chukurlashuvi, o'z-o'zini baxolashdagi tarkoksizligi va tortinchokligi darajasi uni psixologik jixatdan yakkalanib kolishiga olib keladi. Sinf **jamoaci** hamda ukituvchilar nazaridan chetda kolgan o'quvchi salbiy muxitdan najot izlay boshlaydi. Asosan, bunday xolatlar tarbiyasi ogir bo'lgan o'smirlarda sodir bo'ladi.

O'smirning o'zi tengdoshlari bilan muammoli munosabatlarda bo'lganda, sinfda yoki guruxda o'zining mavkeini o'zgartira olmaydi.

Bunday o'quvchining sinf jamoai bilan muammoli munosabatiga pedagog o'z vaqtida e'tibor qaratishi kerak.

Buning uchun:

Sinf jamoasida soglom ma'naviy muxitni tashkil etish lozim;

Sinfda jamoa fikrini shakllantirish lozim;

Sinf jamoai orasida o'quvchi mavkeini me'erashtirish lozim;

O'quvchi va sinf jamoai urtasidagi o'zaro munosabatlarni ijobiy shakllantirish lozim;

O'quvchiga nisbattan dustona munosabatlarni yaratish lozim.

Tarbiyasi ogir o'smirlar bilan ishlashda:

Bunday o'smirlar shaxsini chukur o'rganish, ularning ijobiy axloqiy sifatlarini rivojlantirish, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida bunday o'smirlarning individual xususiyatlarini inobatga olish lozim;

Kiyin tarbiyalanadigan o'smirlarning jamoadagi mavkeini, shuningdek, ularning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini nazorat kilish, ularning sinf va maktab jamoai hamda undan tashkaridagi jamoalar bilan munosabatlarini inobatga olish;

Bunday o'quvchilarni sinf va maktab jamoachidan yakka-latib kuymaslik;

Ularning kizikishlarini hisobga olgan halda maktabda va sinfda utkaziladigan foydali mexnatga jalb etish;

Sinf jamoasi bilan ishlashda:

Sinf jamoasi a'zolariga kiyin tarbiyalanadigan o'quvchilarga nisbattan mexribonlik munosabatlarini tarbiyalash, bu orkali ularga raxmdillik va yordam kulini cho'zish hissini uygotish;

Tarbiyasi ogir o'quvchilar ukiydigan sinfda ishlaydigan sinf raxbarlar va ukituvchilari ularga nisbattan munosabatlarda keng tarkalgan xatoliklar, ya'ni o'smirlarni ularning sinfdoshlari ko'zi oldida shaxs sifatida kamsitish kabi xatoliklardan o'zoklashishi lozim; ularga iltifot ko'rsatish, kupollik, bunday o'smirlarning o'zlashtirishi va xulq-atvoriga berilgan xolisona baxoning berilishi, ularni sinf jamoasiga qarshi qilib quyadi.

Maktab o'quvchilarining ota-onasi o'rtasidagi muammoli munosabatlarning rivojlanishini quyidagi davrlarga ajratish mumkin: birinchi davrda muammoli ahvol boshlangich bosqichda bo'ladi, bunda o'quvchi o'zining birinchi qoniqarsiz baholarini oladi va maktabda mayda bezorilikni amalga oshirishni boshlaydi. O'qituvchi va o'quvchi orasida muammoli holatni keltirib chiqaradi.

Agar birinchi bosqichda muammo yechilsa, ikkinchi bosqichda o'zib ketadi. Muammoli munosabatlarning avj olib ketishi natijasida o'quvchi pedagogik ta'sir soxasidan tushib qolishi ko'zatiladi, bunda ular tomonidan jamiyatga qarshi qarashlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

Maktabda va o'quvchilarning ota-onalari orasidagi muammoli munosabatlarning uchinchi boskichida, o'quvchi, referent guruxining ta'sir o'tkazishi natijasida huquqbo'zarlik yo'lga qirib qoladi.

O'quvchilarning ota-onalari bilan ishlashning asosiy shartlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Oilalarni o'rganish va ularga farzandlari tarbiyasiga ko'maklashish;

O'zaro xayrixoxlik ko'rsatishdan qat'iy nazar, ota-onalar bilan doimiy hamjixatlikni o'rnatish;

Pedagogik madaniyatni o'stirish sifatida oila va maktab munosabatlarini normallashtirish;

Hamfikrlilik va nizosiz hamdo'stlikni o'rnatish;

Muayyan huquqiy normalarga rioya qilish;

Oila va maktabning birgalikdagi hamkorligi;

Jamiyat tashkilotlari va korxonalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

b) O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muammoli, asosan, o'quv jarayonida paydo bo'shladi. Olimlarning tekshiruvlari natijasida, shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu xolat 91% bo'lgan paytlarda bilim olishga bo'lgan qiziqishning pasayishi oqibatida boshlandi.

Bilim olishdagi omadsizlik, o'smirga sinf jamoai oldidagi mavqeiga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, muvaffaqiyatsiz oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar o'qituvchilar maslaxatini e'tiborga olmaslikka harakat qilishadi, bu esa yuqorida ko'rsatilgan nizolarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

O'quvchiga bilim olish mahoratini tarbiyalash, uning qobiliyatini yo'zaga chikarish va rivojlantirish, bilim olishning aniq istiqbollari yaratish, tarbiyalanuvchining yoshiga qarab, uning individual xususiyatlarini o'rganish; uning oilaviy sharoiti va tarbiyasi; alohida yondashuvni amalga oshirish; o'quvchini turli xildagi ijtimoiy foydali faoliyat turiga qiziqtirish - o'qituvchilarga, sinf raxbarlarga nizoli vaziyatlarni hal etishga yordam beradi.

Ilgor o'qituvchilar tajribasi shuni ko'rsatdiki, pedagogik qarovsizlikni bartaraf etish, shuningdek, tarbiyaviy ishlarning sifatini yaxshilash, fakatgina, o'quv - tarbiya jarayonini

individuallashtirish va differentsiallashtirish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi butun sinf jamoasiga bilim berish va tarbiyalashi hamda har bir o'quvchiga alohida yondashuvi lozim. Buning uchun bilim olish darajasi, qiziqishlari, har bir o'quvchining, asosan, ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda chuqurroq o'rganish lozim. Ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'smirlarning hatti-harakatlari va xuquqbo'zarligini doimiy ko'zatish va hisobga olish, ularga ta'sir qilishning to'g'ri yo'nalishini aniqlashga imkon beradi.

Pedagog-tarbiyachining maxorati bilan uning sinf jamoai faoliyatini to'g'ri tashkillashtirishi birgalikda olib borilsa, pedagogik qarovsiz o'quvchilarning huquqbo'zarlikka olib keladigan, jamiyatga qarshi yo'naltirilgan hatti-harakatlarini oldini olishga imkon yaratadi.

Ta'lim – tarbiya ishlarida pedagogik qarovsizlikni oldini olish imkonini beradigan asosiy omillardan biri bo'lib, o'quvchilar va ularning oilalarini ijtimoiy tadqiq qilish hisoblanadi. Pedagogik qarovsiz qolgan o'quvchilar haqida malakali ma'lumotlar olish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish maqsadida maxsus so'rovnoma (anketalar) ko'llaniladi, bunda pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlarni o'rganish dasturi keltirilgan. Tajriba maqsadida, dastlab, bo'lar Buxoro viloyatining Galaosiyoy tumanida, so'ngra esa respublikaning boshqa maktablarida qo'llanilmoqda.

Bu so'rovnomalarni sinf raxbarlari, o'qituvchilar, ota-onalar ko'mitasi raislari, kamolot ijtimoiy bo'limlari to'ldirishgan. Olingan ma'lumotlar maktab ma'muriyati bilan birgalikda umumlashtirilib, tekshirilayotgan maktablarning raxbarlari va pedagoglar jamoasiga tarbiyalashda o'zlarining usullarini takomillashtirishga yordam berdi hamda o'quvchilarning

pedagogik qarovsizligini oldini olish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashdi.

Ta'lim-tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'smirlarni, ularning oilasini, ularga dars beradigan o'qituvchilarni, bu o'smirlar bilan ishlaydiganlarni o'rganish maqsadida, maktab direktori sinf raxbarlar va ota-onalar ko'mita raislari orqali o'tkaziladigan so'rovnoma quyida ko'rsatilgan.

Pedagogik qarovsiz qolgan o'quvchi – o'smirni o'rganish bo'yicha so'rovnoma

Familiya, ismi, sharifi.....

Yoshi.....

Necha yoshdan boshlab o'qishni o'rgandi?

Hozirgi vaqtda maktabdagi o'zlashtirishi.

Qaysi fanlar o'smir uchun qiyinchilik tug'diryapti?

Ushbu fanni o'rganishdagi omadsizliklar nima bilan bog'lik?

Bilimdagi nuqsonlar;

Berilgan fanni o'rganishdagi qobiliyatning bo'lmasligi;

Doimiy o'quv jarayonidagi ko'nikishning yo'qligi;

U yoki bu fan o'qituvchisi bilan nizoli munosabatda bo'lish;

Boshqa sabablar (qaysilari ekanligini ko'rsating).

Ota-onalarga o'qishdagi bo'lgan muammolarni bartaraf etish hamda doimiy ta'limiy-mehnat ko'nikmalarining shakllanishi bo'yicha biror bir maslahatlar berilganmi? Qaysilari ekanini ko'rsating.

Ko'pincha, qaysi fan o'qituvchilari bilan o'smirlar o'rtasida muammolar paydo bo'ladi? Buni nima bilan tushuntirish mumkin?

Pedagogning shaxsiy sifatlari

Bilim olishda omadsizlikka duch kelgan o'smirning noto'g'ri ta'sirlanishi;

Boshqa sabablar (qaysilar).

O'smirlar bilan pedagoglar o'rtasidagi muammolarni bartaraf etishda qanday choralar ko'rildi?

Ma'muriyat va pedagogik jamoa birgalikda o'smirga ta'sir qilishning tashkiliy masalasi qanday hal qilindi?

Pedagog-o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar orqali;

Uslubiy uyushmalarda;

Kichik pedagogik sovetlarda;

Umumiy pedsovetlarda;

Boshqalar (qaysilar ko'rsating).

O'smirning hatti-harakatlarida qanday chetlanishlar ko'zatilyapti?

Kattalarga nisbattan ko'pollik qilish;

Maktabning ijtimoiy – foydali mehnatidagi faoliyatiga qatnashishdan bosh tortishi;

Qanoatlilik;

Chekish;

Spirтли ichimliklar iste'mol qilishi;

Boshqa jinsga bo'lgan kuchli qizikishning oshkor qilish, bexayo, ularni oldiga yo'l ochish;

Maktabdan va uydan qochib ketish;

Narsalarni, pullarni o'g'iraydi;

Qo'rqitish yo'li orqali pul undirib olish bilan shug'ullanadi;

Bezorilik bilan shug'ullanadi;

Aldaydi;

Boshqalar (qaysilari, ko'rsating).

O'smirning qaysi shaxsiy xususiyati u bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda qiyinchilik tug'diradi?

Qaysarligi;

Injiqligi;

Jaxldorligi, o'zini tutabilmasligi;

Bosqinchiligi;

Shavqatsizligi;
Tajanglikka bo'lgan moyilligi;
Qo'rkokligi, uyatchanligi, tortinchoqligi;
Ruhan tushkunlikka tushishi;
Ishonuvchanligi (salbiy ta'sirlarga tez beriluvchan);
Biror narsaning tez joniga tegishi;
Tez charchaydi;
Diqqatsizligi;
Dangasalik, ixtiyorsizligi;
Boshqa xususiyatlari (ko'rsatig);
Ma'lum emas.

Bu xislatlarining o'ziga xosligi va kamchiliklarini shakllanishiga nimalar ta'sir etdi?

O'smirning bolalikdagi doimiy kasalliklari;
O'smirning hozirgi paytdagi kasalligi;
Ruhiy-asabiy kasalliklar;
Ruhiy va asabiy o'sishdagi qoloqligi;
Oila tarbiyasidagi kamchiliklar;
Maktab tarbiyasidagi kamchiliklar;
Tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatda omadsizlik;
Do'stlarining salbiy ta'siri;
Oila a'zolarining salbiy ta'sirlari;
Boshqa omillar (qaysilar);
Noma'lum.

O'smirning oila a'zolari orasida qonunga zid hatti-harakat bilan shug'ullanadigan shaxslar mavjudmi?

Tekinxo'r;
Mayda o'g'irlik;
Mayda olibsotarlik;
Mayda bezorilik;
O'smirni spirtli ichimlik ichshga jalb qilish;
Boshqa ma'muriyat jazolari (qaysilari, ko'rsating).

O'smirning oilasida nizolar bo'lib turadimi? Nizoning sabablari nimalarda?

Oiladagi moddiy qiyinchiliklar;

Oila a'zolaridan birining axloqsiz xulq-atvori;

Bolalarining oiladagi tarbiyasi;

Oila a'zolarining xususiyati tavsiflari;

Boshqa sabablar (qaysilar).

Nizolarning qanday shaklda paydo bo'ladi?

Begonalashuvi;

O'zaro piching va hakoratlar;

Tomonlardan birining yomon gaplar orqali jismoniy kuch ishlatisha;

Boshqa shakldagi (qaysiligini ko'rsating).

Oiladagi ochiq nizolarga o'smir qanday munosabat bildiradi?

Ahamiyat bermaydi;

Befark bo'lib qolaveradi;

Ichidan chuqur azoblanadi;

Ota-onalardan biriga karshilik ko'rsatadi;

Ota – onalarni yarashtirishga harakat qiladi;

Bu nizolardan o'ziga foyda olishga harakat qiladi;

Boshqa shakllari (qaysilar).

Ota – onaga nisbattan adovat sababi nimada namoyon bo'ladi?

Ota – onalardagi salbiy xususiyatlarning mavjudligi (qo'pollik, aldash, jahldorlik);

Axloqsiz xulq-atvor;

Ma'naviy qiziqishning yo'qligi;

O'smirga pedagogikaga zid bo'lgan usullar bilan ta'sir ko'rsatish (qaysilar);

O'smirning moddiy talablarini qoniktirish imkoniyatining mavjudsizligi;

O'smirga nisbattan diqqatning yo'qligi (befarklik);

Boshqa sabablar (qaysilar).

Oilada o'smirning to'g'ri tarbiyalanishiga nima to'sqinlik qiladi?

Kamchiliklar yo'q;

Ota-onalar tarbiya bilan shuqullanishmaydi;

Tarbiya bilan faqat ona shug'ullanadi;

Tarbiya bilan doimo shug'ullanishmaydi;

Ota – onalarning pedagogika sohasidagi butunlay savodsizligi;

Tarbiyada muntazamlilikning mavjudsizligi;

Har tomonlama tarbiya usullarining yo'qligi;

Jismoniy jazolashlarga yo'l quyilgan, qo'pol munosabatlar bilan chegaralanib qolishgan;

Oilada xulq-atvorning salbiy namuna mavjud;

O'smirlar xulq-atvorini o'zgartirish maqsadida ota-onalarga qanday tavsiyalar berilgan?

O'smir bilan boshlang'ich ishlaringizda uning xulq – atvoridagi bo'zilishlariga qanday munosabatda bo'ldingiz?

E'tibor bermaslikka harakat qildingiz;

O'smirning nojuya hatti – harakatlarini uning o'zi bilan bo'lgan suhbatlarda muhokama qildingiz;

Sinf jamoaida muhokama qildingiz;

Pedagogik sovetda muhokama qildingiz;

Nevrolog ko'rigidan o'tishga yuborasiz;

Boshqalar (qaysilari ko'rsating).

O'smirga ijtimoiy ishlar yuklatilganda, u bo'larni qanday bajargan?

Bajargan ishlari bo'yicha o'smir rag'batlantirilganmi?

Ijtimoiy – foydali mehnatga o'smirning munosabati qanday?

Faol qatnashadi;

Kayfiyatiga qarab ishni bajaradi;

Iloji boricha, ishdan bosh tortishga harakat qiladi;

Umuman bosh tortadi.

Ijtimoiy – foydali faoliyatdan bosh tortgan o‘smirni, qanday rahbatlantirasiz?

Sinf majlislarida tanbex berasiz;

Ota – onasini maktabga chaqirasiz;

O‘smir bilan alohida suhbat olib borasiz;

Devoriy gazetani qo‘llaysiz;

Boshqalar (qaysilari, ko‘rsating).

Mehnat darslarini o‘smir yoqtiradimi?

O‘smirni qayta tarbiyalash borasida qanday ishlar olib bordingiz (qilingan ishlar ketma-ketligini raqamlar va asoslar bilan belgilang)?

Qiziqishi bo‘yicha to‘g‘araklarga jalb qilasiz;

Ijtimoiy topshiriqlar berasiz;

O‘smirni, ularga yomon ta‘sir ko‘rsatadiganlar bilan munosabatini cheklab qo‘yishga harakat qilasiz;

Sport tugaraklariga jalb qilasiz;

Turli ekskursiyalarga borishga qiziqtirasiz;

Bilim olishdagi oraliqlarni qayta tiklash maqsadida qo‘shimcha darslar o‘tkazish;

O‘smirni qayta tarbiyalashdagi ishlarda uning natijasi qanday bo‘ldi?

Keskin ravishda salbiy;

To‘zalmadi;

Qisman to‘zaldi;

O‘z kamchiliklarini to‘zatishtga harakat qildi;

Boshqalar (kaysilari).

O‘smirda asabiy – psixologik rivojlanishga chetlanishlar mavjudmi?

Ota – onalarga psixonevrolog vrachga murojaat qilishlari haqida maslahat berildimi?

Bunday maslahatga ota – onalar qanday munosabat bildirishdi?

Ushbu dastur pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlar hamda ularning ota – onalari haqida to'la mukammal ma'lumot olishga imkon beradi, maktabda ular bilan qanday ishlar olib borilganligini bilib olish va shu asosda, didaktik, tarbiyaviy ishlardagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida differentsial takliflar ishlab chikish.

Pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlar bilan ishlash uchun yagona usulning o'zi yo'q, bo'lmaydi ham, chunki ularning har birida bilim olishdagi qoloqligi va tengdoshlar jamoaidan ajralib qolish sabablari mavjud. Ammo pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlar bilan ishlashning o'rganish va tadbqiq etish tajribasi, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni harakterlaydigan quyidagi xossalarni keltirish mumkin:

Pedagogik qarovsiz qolgan o'quvchilar bilan ishlashda aniq maqsad va yunalishlarni to'g'ri belgilash lozim;

O'smirlarning bo'sh vaqtlarini qiziqarli ishlar bilan to'ldirish kerak, ularning shaxsiy qobiliyat va mas'uliyatlari mavjudligi xaqidagi ishonchni uqtirish lozim.

Ularni xavaskorlik to'garagiga, sport sektsiyalariga jalb qilish, jamoaning umumiy tarbiyaviy tadbirlariga qatnashishdagi hg'ar qanday taqiqlarni olib tashlash;

Ularni mehnat faoliyatiga majburiy ravishda kiritish;

Bilim olishdagi qiziqishi va ishtiyokini uyg'otish;

Maktabdan tashkari aloqalarini nazorat qilish va salbiy ta'sirning oldini olish lozim;

Oiladagi nizoli vaziyatni bilish.

Tajribaning ko'rsatishicha, pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlar haqiqatni tan olishganlaridan so'ng, quyinkingi, u kichkina yutuk bo'lsin, ularning bilim olishdagi munosabatlarini yaxshi tomonga o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ularda yaxshi tomonga o'zgarishda paydo bo'ladigan ishonchni qo'llab kuvvatlash kerak. Tajribali o'qituvchi butun dars jarayonida, bunday o'quvchilarning

ishlarini faollashtirishga intiladi. Pedagogika borasida qarovsiz qolgan o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning samarali usullaridan biri bo'lib, o'qituvchining ular bilan yaqin munosabat o'rnatishi, ishonch sharoitini hosil qilish hisoblanadi. Bu xolat, o'zlashtira olmayotgan o'quvchilarning xulq – atvoridagi notekis sharoitlarni kamaytiradi.

Ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'quvchilarning bilim olishdagi qiziqishlarini tiklash jarayonining ob'ektiv sabablari juda sekin kechadi va o'qituvchidan bardoshni, doimiy ko'zatishlar hamda ularning barcha faoliyatini nazorat qilish talab etiladi. O'quvchilarni boshqa ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'smirlar ta'siridan juda ehtiyotkorlik va andishalik bilan olib qolish, unga sekin – asta o'ziga bo'lgan ishonchni hamda bilim olishga bo'lgan qiziqishni tiklash lozim. Bunday o'smirni qayta tarbiyalash maqsadida anik misollar keltiramiz.

U. Erkin 14 yoshda. Uning oilasi tarkibi otasi, onasi, maktabni tashlagan akasi va maktab yoshidagi 2 ta singlisidan iborat. Moddiy jihatdan ta'minlangan. 5 – sinfgacha Erkin yaxshi baholarda o'qigan. 5 – sinfdan esa uni sinfidan qoldirishdi. Maktabni tashlab va uyidan qochib ketib, Erkin 5 oy ichida xuquqbo'zar o'smirlar bilan birgalikda turli shaharlarda o'g'rilik bilan shug'ullanib yurgan. Bu davrda u chekishni va spirtli ichimliklar ichishni boshlagan. Ma'muriy tashkilotlar yordamida Erkinni uyiga qaytarib, o'qishini boshqa maktabga ko'chirishdi..

Yangi sharoitlarda o'smir ko'zatilganda, uning pedagogik qarovsizligi o'zining to'liq isbotini topdi. Erkinning o'zi ochiq – oydin, bilim olish u uchun zerikarli va o'smirni o'qishdan ayniyotgan bolalarning hayot tarzi «qiziqarli» ekanligini bildirdi. Bu o'smirni qayta tarbiyalash ishlari 2 yildan ko'p davom etdi. O'qituvchining takdiri uchun kurashda o'qituvchilar, maktab ma'muriyati, yuqori sinf o'quvchilari jalb qilindi. Erkinni sport seksiyasiga jalb qilishdi, maktabdan tashqaridagi aloqalari

buyicha nazoratni kamolot tashkilotlari o'z zimmasiga olishdi. O'smirning uyidagi ichkilikbozlik va janjallarini bartaraf etish ishlarini bartaraf ishlarini parallel ravishda olib borishdi, kaysiki, bu ishlarni olib borishda maktabdan tashqari, ota – onalar qo'mitasi, ijtimoiy tashkilotlar, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari o'z hissalarini qo'shishdi..

Erkinni ko'zlatishni davom ettirgan holda, o'qituvchilar bolaning o'quvchilik vazifasiga bo'lgan munosabatidan zerikkanlik elementlarini payqashdi. Bundan kelib chiqqan holda, uning o'quv faoliyati soh'g'asida yaqin oradagi masalalarning bajarilishi ko'zda tutilgan. Maktab Erkinni o'zining ishlariga qiziqtirgan holda, uni ko'cha – kuyda yurishidan halos etdi. Ma'lum vaqt mobaynida, o'smirni sinf jamoasi faoliyatiga jalb etishgan holda, u 8 sinfni muvaffaqiyatli tugatdi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlarni qayta tarbiyalash muammosini o'z vaqtida hal qilish, umumiy o'rta ta'lim ba'zasida, maktabda ogohlantiruvchi tadbirlarni to'g'ri tashkil etish imkonini yaratdi.

Agar o'qituvchi ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'quvchining harakterini va xususiyatini yaxshilash bo'yicha sharoit yaratib bilsa, u holda o'quvchining jamoadagi mavqei o'zgarishi mumkin. Buning uchun bunday o'quvchi bo'lgan muhitda, psixologik vaziyatni to'g'ri aniqlash zarur.

Asosiy diqqatni quyidagilarga qaratish mumkin:

Ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'quvchining psixologik holatiga;

Uning kichik gurux ichidagi va butun sinf jamoasidagilari bilan aloqalari;

O'quvchini qo'llab – quvvatlaydigan sinf o'quvchilari bilan munosabati;

Unga ijobiy ta'sir ko'rsatishda sinf jamoaining imkoniyatlari.

Bunday o'quvchilar bilan ishlashda, tarbiyachidan, birinchi navbatda, pedagogik mahorat, o'smirga bo'lgan xurmat va diqqat

talab etiladi. Ta'lim – tarbiyadan qarovsiz qolganlar bilan kurashda, avvalambor, uning sababini aniqlash lozim. Voyaga yetmaganlarning huquqbo'zarligini mag'lubiyatini o'zlashtirolmashligini yo'kotishni tilagan holda, yaxshi bilim berish, o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, ommaviy holat hisoblagan pedagogik qarovsiz qolganlarni yengib chiqish, huquqbo'zarlikka olib keladigan, maktabdan ketishlarni bartaraf etish lozim. Bu masalalarni, faqatgina, pedagoglarning ota – onalarning, psixologlarning, yuristlarning va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirgan holda hal qilish mumkin.

O'quvchilarning pedagog – usta darajasiga yetishi, uning mustaqil faoliyati jarayonida yo'z beradi va shularning aniq tizimini mo'ljallaydi, xususan, o'qituvchilarning malakasini oshirish institutlari orqali amalga oshiriladi. *Bolaga ta'lim – tarbiya beradigan o'qituvchilar, ularga quyiladigan talablarga mos bo'lishi lozim:*

Pedagogik kadrlar tayyorlashni ma'lum darajada yaxshilash;

Studentlarni maktabda o'taydigan ishlab chiqarish amaliyotining muddatini o'zaytirish;

Bunday masalalarning yechimi halq ta'limi tashkilotlarining mavqeini oshiradi, har bir o'qituvchining ilg'or faoliyatini rag'batlantirish imkonini beradi, har bir halq ta'limi xodimining mas'uliyatini oshiradi, maktabning barcha ta'lim – tarbiyadagi harakatini yaxshilaydi.

Pedagogik qarovsizlikni bartaraf etish, maktabdan ketishlar va chetlanishlar, hamda o'quvchilarning xulq – atvoridan xabardor qiladi, ya'ni:

Maktabgacha muassasalar tarmoqlarini kengaytirish va ularda tarbiyaviy ishlar miqdorini yaxshilash;

Maktabga keladigan va unda o'qib yurgan bolalar ruhiy holatini tekshirish darajasini oshirish;

Qoloq o'quvchilari bo'lmagan maktablar va o'qituvchilar tajribalarini tadbiq etish va ommalashtirish;

Oiladagi tarbiyaning sharoitlarini, shakllarini va mazmunida jamiyat va davlat nazoratini kuchaytirish, maktablarda pedagogika bo'yicha ota – onalar o'quvini yaxshilash, pedagoglar va ota – onalar hamjihatligini mustahkamlash, ijtimoiy va pedagogik qarovsizlik darajasi mavjud bolalar ta'lim va tarbiyasining maxsus shakllarini yaratish;

O'quvchilarning g'oyaviy – siyosiy va harbiy – vatanparvarlik tarbiyasidagi kamchiliklarni bartaraf etish;

O'quvchilarning hayotga tayyorlashning umumta'lim, mehnat va politexnika bo'yicha maktabdagi ishlarni yaxshilash, halq xo'jaligining ishchi kuchi va mutaxassisga bo'lgan talabini hisobga olgan holda o'quvchilarning kasbga yo'naltirishga bo'lgan qarashlarini ro'yobga chiqarish;

Maqsad va vazifalarni aniqlash bilan bog'lik bo'lgan, mehnat tarbiyasining mazmuni va hajmi, kasbiy va politexnik ta'lim hamda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishdagi tadqiq qilinadigan masalalar ko'lamini ma'lum darajada mustaxkamlash;

Maktab, oila va ko'chadagi salbiy ta'sir manbalarini o'z vaqtida to'sib qo'ymoq; o'smirlarning ahloqiy tarbiyasini individual olib borish;

O'quvchilar va ularning ota – onalarining huquqiy tarbiyasini kuchaytirish;

O'quvchilarning huquqbo'zarligini oldini olishda maktab va oila hamkorligi bo'yicha pedagog – raxbar va tashkilotchi.

O'zbekiston Respublikasi halq ta'limining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, «ta'limning umumiyliigi va vatanparvarli va insonparvarlik ruxida tarbiyalash; bolalar hamda yoshlarni tarbiyalashda maktab, oila va jamiyatning hamkorligi».

Maktabning asosiy vazifalaridan biri – bolalarni to'g'ri tarbiyalash bo'yicha ota – onalarga tushunchalar berish, ammo

buni esa ota – onalarning pedagogik bilimni o‘ylab tashkillashtirish sharoiti orqali amalga oshirish mumkin.

Ta’lim tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarning ota – onalari uchun pedagogik tashviqotning asosiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

Oilaviy tarbiya usullarini doimiy o‘rganish;

Ota – onalarning individual xususiyatlarini, ularning umumta’lim va madaniy darajasini o‘rganish;

Ta’lim tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarga ota – onalarning salbiy ta’siri manbaini o‘rganish;

Ularning salbiy xulq – atvorini belgilaydigan mikromuhitni o‘rganish;

Oilaviy tarbiya kamchiliklarini hq‘isobga olgan holda, pedagogik ta’sir ko‘rsatishning shart va usullarini targ‘ibot qilish;

Ota – onalarga doimiy ravishda tushuncha berib borish;

Bu faoliyatga ruhshunoslarni, yuristlarni, vrachlarni, jamiyat tashkilotlari vakillarining ishtirok etishlari.

O‘zbekistonning eng yaxshi maktablari tajribasida, pedagogik targibotning doimiy tizimlari hisoblangan, umummaktab va sinf majlislari, ota – onalar universiteti, pedagogik lektoriylar, ota – onalar konferentsiyalari vujudga keldi. Pedagogik targ‘ibotning bu shakllari ota – onalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ta’lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarning ota – onalariga bu kam samara beradi, chunki bu ota – onalar bunday tadbirlarda ishtirok etishmaydi.

Biz, ta’lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarning ota – onalariga, ularning mas’uliyatlariga munosabatlarini o‘zgartirish maqsadida, ularni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish borasidagi rejalashtirilgan ishlarni tashkil etishga harakat qildik. Bunday ota – onalar bilan ishlashda biz individual va guruhliy maslahatlarni (birinchi boskich) hamda

ma'muriyat, ishlab – chiqarish va jamiyat tashkilotlari yordami (ikkinchi boskich) ni qo'lladik.

Biz shartli ravishda ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'smirlarning ota – onalarini olti guruxga ajratib, quyida ular uchun olib boriladigan suhbatlar mavzularini ishlab chiqdik:

Birinchi gurux uchun

(pedagogik savodxonligi past darajada bo'lgan ota - onalar)

O'smirlik yoshidagi bolalarning xususiyatlari;

Qanday qilib o'smir, ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolishi mumkin?

Siz bolani rag'batlantira olasizmi?

Siz bolani to'g'ri jazolay olasizmi?

O'smir tarbiyasida maktab va oilaning hamkorlik talablari va boshqalar.

Ikkinchi guruh uchun

(oilaviy tarbiyada hatolikka yul quyadigan ota - onalar)

O'smirning xususiyatlari.

Bolalarning qaysarligi bilan qanday kurashish mumkin?

Bolalarni boshqalar uchun ham yashashga o'rgating.

Bolalarda kamtarlik va rostgo'ylikni tarbiyalash.

O'smirni qayta tarbiyalashning zaruriy sharti sifatida, oila va maktabda pedagogik ta'sir hamjixatligi.

Uchinchi guruh uchun

(bolalari nazoratdan chetda qolgan ota - onalar)

O'quvchi uchun kun tartibi mazmunini tushuntirish.

O'smirning itoatkorligiga qanday erishish mumkin.

Talablar tarbiyasi.

Bola tarbiyasida ota – ona mas'uliyati.

O'smirni rag'batlantirish va jazolash.

To'rtinchi guruh uchun

(qo'pollik va nohaqlikka yo'l qo'yadigan ota - onalar)

Tarbiya jarayonida o'smirlarga nibattan individual yondashuv.

Ota – onalar bilan bolalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat.

Siz bolalarni to‘g‘ri jazolaysizmi?

Nima uchun va qanday bolani jazolaysiz?

Rostgo‘ylik va haqqoniyatni tarbiyalash.

Bolalarni jismoniy jazolashning oqibatlari va boshqalar.

Beshinchi va oltinchi guruhlar uchun

(axloqsiz xayot tarzini olib boradigan va o‘z farzandlarini jinoiy faoliyatga jalb qiladigan ota – onalar)

Qachon ota – onalar javobgar?

Barcha bolalar va o‘smirlar uchun umumiy o‘rta ta‘limni amalga oshirish haqida.

Ota – onalar va o‘quvchilar uchun davlat hamda jamiyat yordami choralari haqida.

Bolalar tarbiyasida ota – onalarning vijdonan harakati munosabati.

Bolalar tarbiyasidan bosh tortgan, axloqsiz va jamiyatga zid xulq – atvorli ota – onalarni, ularning xuquqidan maxrum etish.

O‘smir uchun jismoniy va boshqa oqibatlar bilan birgalikdagi shavqatsizligiga jinoiy jazolash.

Ota – onalarga, agar kattalar bolalarni axloqsizlik va qonunga qarshi ishlarga jalb qilishsa, ularni bu hatti – harakatlari uchun qonun bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi xaqida tushuncha berish zarur. Ota – onalar bilan suhbat jarayonida, amaliyotdan olingan oilaviy tarbiyani misol qilib, aniq materiallarni keltirish lozim. Pedagogik xushmuomalalik bilan do‘stona suhbat olib borilishi kerak.

Ta‘lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarni qayta tarbiyalash bo‘yicha maktablar va oilalar hamkorligidagi faoliyatni tashkil etish maqsadida, ta‘lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarning ota – onalari uchun sinflar bo‘yicha, o‘quv namunali - uzoq muddatli reja – dasturini, mavzular ko‘rsatilgan adabiyotlar bilan ishlab chiqdik.

XULOSA

Maqsadga yo'naltirilgan tamoyillar ota-onalarning o'smirlarni rostgo'y va vijdonli, ularning ijobiy xulq – atvorini o'yg'otish, nohaqlik, aldov, yolg'onni chetlab o'tishni taqozo etadi. O'smirlarni qayta tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'yib, tarbiya uslublari tizimini o'rganish, ya'ni zaruriy xulq-atvorni shakllantirish maqsadida, shaxsga tarbiyaviy – tashkiliy ta'sir ko'rsatish yullari va uslublari majmui orqali singdirish lozim. Tarbiya uslubining to'g'ri tanlanganligi o'smirlar tarbiyasiga ijobiy turtki bo'ladi. Oilada o'smirlarni tarbiyalashning ishontirish, ijobiy natija, rag'batlantirish va jazolash kabi uslublar asosiy o'rin tutadi.

Bolalarni qayta tarbiyalashda ishonch yoki ishontirish uslubi yetakchi o'rin egallaydi. Bu uslubni qo'llashda ota-onalardan samimiylik va rostgo'ylik talab qilinadi. Ishontirish uslubining asosiy shakllaridan biri suhbat bo'lib hisoblanadi. Bunda puxta tayyorgarlik talab etilib, u asosan, gurux rahbari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Suhbat, asosan, o'smirning nojuya hatti-harakatini tahlil qilgan holda ko'riladi. Ishontirish bilan birgalikda ota-onalar boshqa, ya'ni buyruq berish, pand-nasixat qilish, ehtiyotkorlik shakllarini ham ko'llashlari lozim. Nasixat qilish jonga tegadigan va har qanday holatda injiqlik qilishga majburlashga aylanmasligi kerak. Ehtiyotkorlik, o'smirni har qanday nojuya harakatlarni amalga oshirishdan saqlaydi. Ishontirishning asosiy shakllaridan biri – do'stona maslaxat berish.

Ota-onalar o'rtasidagi shavkatsiz, sovuq munosabatlar, ishonchsizlik, ziqnalik, ko'pollik o'smirni ulardan o'zoqlashtiradi. Bolalarni tarbiyalash tizimida ota-onalar oldida turgan asosiy vazifa – bu o'smirga, murosasiz munosabatlarga, axloqsiz xulq-atvorga befarqlik hissini uyg'otish hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandini to'g'ri tarbiyalashni xoxlashadi. Ammo hamma ham o'zining xulq-atvoriga tanqidiy qarash qobiliyatiga ega emas, qayta tahlil qilish orqali o'smirga buning o'zi qanday ta'sir ko'rsatishini anglay olish kerak.

Yoshlar–yurt kelajagi. Ularning ulg'ayib, mamlakatimizning taraqqiyoti va farovonligi yo'lida hamjihatlik bilan intilishlari biz qurayotgan buyuk davlatning poydevori mustaxkam bo'lishiga xizmat qiladi va ichki ishlar idoralari oldiga qo'yilgan vazifalar yuklatilishi lozim:

- viloyatdagi 16 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar to'liq taftishdan o'tkazilib, ularning nima bilan shug'ullanayotganliklari to'liq o'rganilishi va tegishli idoralar bilan hamkorlikda ularning bandligini ta'minlash borasida tadbirlar belgilash,

- IIB apparati va joylardagi ichki ishlar idoralari tomonidan yil davomida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi asosida "Yoshlar kelajagimiz poydevori" shiori ostida tadbirlar o'tkazilishi, bu tadbirga barcha ququq-tartibot organlari, mahalla faollari, o'rta va oliy ta'lim yurtlari, "Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining vakillarining ishtirokini ta'minlash,

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limdan bosh tortib yurgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni ta'limga qaytarish choralarini ko'rish maqsadida viloyat miqiyosida keng qamrovli «Davomat» profilaktik tadbiri, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida sodir etilayotgan huquq bo'zarlik va jinoyatlarni oldini olish maqsadida keng jamoatchilikni jalb etgan holda viloyat miqiyosida «O'smir» maxsus profilaktik tadbirini o'tkazish, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan militsiya tayanch punktlari atrofida tashkil etilgan sport maydonchalariga, sport va fan to'garaklariga, kichik biznes shahobchalariga ko'proq yoshlarni, ayniqsa ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlarni jalb etish bo'yicha profilaktik-tushintirish tadbirlarini o'tkazish, oliy va o'rta-maxsus bilim yurtlari va barcha

ta'lim muassasalarida yoshlarni amaldagi qonunlarning mazmun-mohiyatini yetkazishga qaratilgan va sog'lom turmush tarzi kechirishga undovchi uchrashuvlar tashkil etish,

- barkamol avlodni tarbiyalashda hamda sog'lom oilalarni shakllantirishda mamlakatimizdagi mavjud nodavlat, notijorat tashkilotlari, jumladan viloyat «Oila» ilmiy-amaliy markazi bilan hamkorlikda oilada sog'lom muhitni yaratishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazilishi tashkil etish,

- giyohvandlik va boshqa turdagi jinoyatlarga qarshi kurashni jadallashtirish, bu sohada samarali tezkor-profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash orqali jinoyatlarni kamaytirish choralarini ko'rish,

- doimiy o'zaro janjallar sodir bo'ladigan, xonadoniga begona shaxslar ko'p tashrif buyuradigan, ayshu-ishratga berilgan, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalariga ruju qo'ygan va farzand tarbiyasi bilan shug'ullanmasdan, o'z holiga tashlab qo'ygan ota-onalar hamda ularning farzandlari bilan tezkor profilaktik tadbirlar tashkil etish,

- har bir tarbiyasi og'ir, huquqbo'zarlik yoki jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarni turmush tarzini doimiy nazoratga olib, ular bilan muntazam ravishda profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari olib borish,

- barcha ta'lim myaccacalapi ma'myipyati bilan hamkorlikda mashg'ulotlarga sababsiz qatnashmasdan, o'tkinchi orzu-xavasga berilib, yengil-elpi mablag' topish maqsadida, bozor, savdo do'konlari, ko'cha-kuyda o'zboshimchalik bilan ota-onasining e'tiborisiz yurgan voyaga yetmaganlar va ularning ota-onalarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ho'zurida tashkil etilgan voyaga yetmaganlar komissiyasi yig'ilishlarida muhokama etib, kelgusida bola tarbiyasini ijobiy tomonga o'zgartirishning aniq choralari belgilash,

▪jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan voyaga yetmaganlarni qayta jinoyat yo'liga kirib qolishlarini oldini olish maqsadida oila a'zolari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati vakillarining nazoratini kuchaytirib, ularni o'qishga, ishga joylashtirish choralari ko'rish,

▪yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan tuban «ommaviy madaniyat»ning turli illatlari xavfi va zararli ta'sirlaridan himoya qilish maqsadida chetdan kirib kelayotgan bosma nashrlar, audio-video materiallar, teleko'rsatuvlar, internet saytlarini muntazam ravishda taftishdan o'tkazib turilishini tashkil etib, aniqlangan salbiy holatlar yo'zasidan qonuniy choralar ko'rish,

▪o'quv—ta'lim muassasalarida uyali telefondan, video tasvirlarni aks ettiruvchi multimedia vositalaridan foydalanish tartibini belgilash, ularga tegishli cheklovlar joriy qilish, o'quv muassasalari mas'ul xodimlari vakolatlarini kengaytirish bo'yicha tegishli huquqiy ba'zani yaratish hamda shu sohada profilaktik tadbirlar o'tkazilishi ta'minlash,

▪16 yoshga to'layotgan viloyatimiz fuqarolariga birinchi marotaba O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasportlarini tarqatishda tantanali ravishda uyushtirilgan tadbirlarda, ya'ni maktab, litsey va kolledjlarda shahar, tuman hokimlari, ichki ishlar idoralari boshliqlari tomonidan berilishini tadbiriq etib, kelgusida bu ishlar davom ettirib borilishini yulga quyish,

▪ishlash, o'qish maqsadida respublika hududidan boshqa davlatlarga turli yo'llar bilan chiqib ketish ishtiyoqda bo'gan yoshlarga, ayniqsa voyaga yetmaganlarga ularning aldanib qolmasliklarini tushuntirish, shu maqsadda profilaktika xizmati bilan hamkorlikda ta'lim muassasalarida, mahallalarda

jamoatchilik o'rtasida kuchaytirilgan holda keng tushuntirish ishlari olib borish,

- voyaga yetmagan va yoshlarni mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlash borasida tuman va shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish idoralari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'icha komissiyalar bilan olib borilayotgan ishlar ko'lami kengaytirish choralari ko'rish,

- mahallalarda, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, mehribonlik uylari, maxsus maktab-internatlar, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida yong'in xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va favqulodda holatlarda to'g'ri harakatlanish mavzularida nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish,

- ta'lim-tarbiya maskanlarida xavfsizlik va yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha bolalarning bilim saviyalarini oshirish, yong'in xavfsizligi talablarini tushuntirish, ularni ushbu qoidalarga rioya qilishga o'rgatish, shuningdek bolalarda bu boradagi bilimlarga qiziqish uyg'otish maqsadida viktorina, uyin va konkurslar tashkil etish,

- yil davomida maktab, litsey, kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining axborot va kompyuter texnologiyalari xonalari, boshqa qimmatliklar saqlanadigan xonalari, laboratoriyalarini texnik qo'riqlash punktlari qo'rig'iga olish choralari ko'rib, bu maqsadda tegishli muassasalar rahbariyati o'rtasida tushuntirish va targ'ibot ishlari yuritish,

- parnografik mazmundagi hamda vahshiylikni targ'ib etuvchi materiallarni tarqatuvchi shaxslar, kompyuter klublari va boshqa muassasalar bo'yicha muntazam ravishda tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilib, shu mazmundagi materiallar aniqlanganda, keskin choralar ko'rilishini ta'minlash,

- voyaga yetmagan shaxslarni tilanchilikka, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga jalb qilayotgan hamda voyaga

yetmaganlarni jalb qilgan holda fohishaxonalar tashkil etayotgan shaxslarni o'z vaqtida aniqlab, javobgarlikka tortish borasida tezkor-qidiruv tadbirlari kuchaytirish,

- voyaga yetmaganlar orasida milliy an'analarga yot bo'lgan, zo'ravonlikni targ'ib etuvchi hamda hayosiz lavhalar aks ettirilgan videotasvirlarni har qanday yo'l bilan tarqatilishini oldini olish va bunday videotasvirlarni tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxslarni noqonuniy faoliyatiga barham berish choralarini ko'rish,

- yoshlarni o'quv muassasalariga o'qishga qabul qilishda, ularni ta'lim olishiga va ishga joylashishiga turli yo'llar bilan to'sqilik qilib, ta'magirlik va boshqa turli mansabdorlik huquqbo'zarliklarini sodir etayotgan mutasaddi rahbarlarning noqonuniy hatti-harakatlarini oldini olib, ularga qonuniy choralar ko'rilishini ta'minlash,

- voyaga yetmagan shaxslarni shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun aldash yo'li bilan sotish holatlarini aniqlash borasida tadbirlar o'tkazib borib, bunday shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rish,

- viloyat hududidagi yoshlar yig'iladigan tungi klub, kafe, barlar va ko'ngil ochadigan boshqa joylarda narkotik moddalarni tarqatilishi va iste'mol qilinishini oldini olishga qaratilgan tezkor tadbirlari amalga oshirish,

- viloyat hududida noqonuniy ravishda hujralar tashkil qilib, yoshlarga diniy saboq berish bilan shug'ullanayotgan shaxslarni aniqlash va ularni hatti-harakatlari ustidan doimiy ravishda tezkor nazorat o'rnatish choralarini ko'rish,

- noislomiy konfessiyalar va boshqa diniy oqimlar a'zolari tomonidan yoshlarni diniy oqimlarga da'vat qiluvchi adabiyotlar, disklar, audio va video tasmalarni tarqatish bilan shug'ullanayotgan shaxslarni aniqlab, ularga nisbatan qonuniy choralar ko'rish,

▪ mahalliy hokimliklar, tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda joylardagi mavjud “Mehribonlik uylari”ga va maxsus internatlarini har tomonlama qo‘llab-quvatlash borasida ularni otaliqqa olish ishlari tashkil etish,

▪ yoshlar orasida narkotik vositalarini tarqatilishini oldini olish maqsadida joylardagi ichki ishlar, manfaatdor idoralari va tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda oliygohlar, kollej, litsey, umumta’lim maktablari, yoshlar faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar, tashkilot va boshqa joylarda giyohvandlikni oldini olish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan uchrashuvlar o‘tkazib, maxsus filmlar va videolavhalar namoyish etilishini tashkillashtirish, bu borada oliygohlar, kollej, litsey, umumta’lim maktablarida narkotik moddalarini tarqatuvchi, yoshlarni narkotik moddalarni iste‘mol qilishga jalb qiluvchi shaxslarni aniqlab, fosh qilishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirib borish,

▪ militsiya tayanch punktlari atrofida faoliyat yuritayotgan sport-sog‘lomlashtirish maskanlari va turli xil to‘garaklar ishini yanada rivojlantirish choralari ko‘rish. "Mahalla posbonlari" jamoat to‘zilmalarida monitoring o‘tkazib, ular safini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar bilan jamlash masalasini ko‘rib chiqish,

▪ ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar va ularning jazoni ijro etish muassasalaridagi tarbiyalanishi hamda ozod etilayotganlar bilan tashkil etilgan ishlarni har haftalik dasturlarda namoyish etib borish hamda ayollar va bolalar savdosining oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlari olib borish,

▪ xuquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbo‘zarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida jinoyat sodir etib, bugungi kunda qilmishidan pushaymon bo‘layotgan voyaga yetmaganlar haqida

teleko'rsatuvlar tsiklini tayyorlab, keng ommaga namoyish etib borish,

▪ etakchi mutaxassislar, huquqshunos olimlarni jalb etgan holda huquiy mazmundagi, jumladan «Terrorizm va uning salbiy oqibatlari», «Giyohvandlik - XXI asr vabosi», «Odam savdosi-jamiyat taraqqiyotining zavoli», «Noqonuniy diniy oqimlar va ularning yoshlar ongiga salbiy ta'siri» kabi ruknlar ostida har hafta teleko'rsatuvlarni tashkil etishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. «Баркамол авлод орзуси», «Шарқ» нашриёт матбаа концерни бош таҳририяти, Т., 1999.
2. Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ” Toshkent “Ma’naviyat” 2008 yil
3. Karimov I.A «O’zgarish va yangilanish hayot talabi» Toshkent 2000 y
4. Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Lex.uz
5. Ш.М.Мирзиёев. “Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир” мавзусида “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. Халқ сўзи. 2017 йил
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasi tomonidan “Bolalar huquqlari konventsiyasi”. 1989 yil noyabr.
7. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Т., 1992 у.
8. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2003 у
9. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури, «Шарқ» нашриёт—матбаъ концерни бош таҳририяти, Тошкент, 1999. Т.Т. ва бошқалар. «Ўзбекистонда жисмоний тарбия таълими.
10. «Sog’lig’i-o’z qo’lingda», «Alpomish va barchinoy» Toshkent 2002 у
11. Абдуллаев Ш.Д. Сатторов А. Э. Умумталим мактабларида ўқувчилар билан ўзбек миллий ҳаракатли ўйинларини ўтказишда маънавий тарбиянинг ўрни. Услубий қўлланма.- Тошкент “Никон”, 2003. – 65 бет.
12. Абдуллаев Ш.Д. Малака ошириш курсларида жисмоний тарбия бўйича давлат талаблари бажарилишининг

- диагностик тахлили. Вилоят педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти. Услубий қўлланма. - Бухоро 2004. - 20 бет.
13. Абдуллаев Ш. Д. Ўқувчи тарбиясида мактаб ва оила ҳамкорлиги. Ўқув – услубий қўлланма. Тошкент “Мухарир”, 2011. 75 бет.
 14. Абдуллаев Ш.Д. Баркамол авлодни тарбиялашда ҳаракатли ўйинларнинг ўрни. Ўқув – услубий қўлланма. Бухоро, х\к “Прмз”, 2012. 108 бет.
 15. Абдуллаев Ш.Д. Арслонов Қ. П. Жисмоний маданият дарсларида инновацион технологиялардан фойдаланиш Услубий қўлланма.- Бухоро “Дурдона”, 2016.- 55 бет
 16. Абдуллаев Ш.Д. Ўзбекистонда хотин-қизлар спорти ҳаракати. Ўқув – услубий қўлланма. “Бухоро”, Нашриёти, 2017
 17. Абдуллаев Ш.Д. Бошланғич синфларда жисмоний соғломлаштириш технологиялари. Ўқув – услубий қўлланма. - Бухоро “Дурдона”, 2019.- 88 бет
 18. Абдуллаев Ш.Д. Физкультурно-оздоровительная и воспитательная работа среды детей и трудных подростков по месту жительства: Автореф. Дисс... канд. Пед.наук-Т:1995.-24 с.
 19. Актаев С.А. Акселерация и морально - нравственное воспитание подростков.-Фрунзе: Киргизстан. 1987.-С.16.
 20. Алемаскин М.А. О психологической характеристике трудновоспитуемых подростков //О некоторых вопросах нравственного воспитания детей и подростков.-М.1970.- с.164.
 21. Алемаскин М.А. Перевоспитание трудных подростков в условиях временного коллектива: Дисс... канд.пед.наук.- Л.1978.-267 с.


22. Анваров С.К. Совершенствование воспитательной работы со спортсменами-подростками во внешкольных учреждениях: Дисс...канд.пед. наук.-Ташкент. 1986.-188 с.
23. Андреева А.Д. Особенности отношения к учению подростков и старших школьников: Дисс...канд.пед.наук.м.1989.-200 с.
24. Арифбаев А. Совместная работа школы и семьи по физическому воспитанию начальных классов: Дисс...канд.пед. наук.-Ташкент.1979.-23с.
25. Атаева А.К. Повышение педагогической культуры родителей в вопросах физического воспитания детей в семье // Совет мактаби.- 1983.-в 4.-с.54-58.
26. Беженев В.Г. Теория и методика педагогической профилактики правонарушений школьников: Автореф. докт.пед. наук.-М. 1986.-42 с.
27. Бажуков С.М. Здоровье детей –общая забота. (Организация физического воспитания школьников по месту жительства).-М.:Физкультура и спорт.1987.-127 с.
28. Бекунен К.О. влияние условий воспитания в семье, школах-интернатах детских домах состояние здоровья и физическое развитие школьников :материалы первой всесоюзной социологической конференции социологическим проблемам физической культуры и спорте.-Л.1966.-88-100.
29. Бекунен К.О. физическое воспитание в режиме дня школьников.-Тошкент: уkitувчи.1968.-96 с.
30. Бекунен К.О. Экспериментальные данные зависимости двигательной сферы детей от условий жизни// проблемы физического воспитания и физического развития молодёжи в связи с состоянием здоровья населения.-Тарту: Тартунский гос.ун-т. 1963.-с.52-54.

31. Белов Р.А. Организация работы по физической культуре и спорту по месту жительства.-Киев высшая школа.1987.- с. 237.
32. Белорусова В.Б. Решетень Н.Н. Воспитание в процессе занятий физической культурой. –М.:фис.1964.- 96 с.
33. Бленский П.Г. Избранные педагогические и психологические сочинения: в 2 -х тт./ сост. М.Г. Данильченко. А.А. Никольская / Под ред. А.В. Петровского.-М.: Педагогика.1979.- 200 с.
34. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком.-М.1982.- 156 с.
35. Боцманова М.Э. Подросток и его друзья.-М : Педагогика. 1976.-80 с.
36. Бочарова В.Г.Программа подготовки организаторской и воспитательной работы с детьми и подростками по месту жительства (для факультетов общественных профессий педагогический (вузов).-М.:просвещение. 1982.- с.28.
37. Бочкарова Г.Г.Психологическая характеристика мотивационной сфер подростков – правонарушителей: Автореф. Дисс... канд. Пед.наук-М:1968.-24 с.
38. Васильева В.В. Коптилин.А.Ф.О физическом развитии детей и подростков. –М.1969.- 78 с.
39. Вафоев Г.Ф. Методическая направленность стресса физической подготовки и их контроля на занятиях с учащимся подросткового возраста в условиях жаркого климата:Авторев.дисс... канд. наук.-Ташкент. 1987.-24 с.
40. Верзилина Н.А. Воспитательная деятельность педагога– организатора физкультурно – оздоровительной и спортивно массовой работы с детьми и подростками по месту жительства. : Автораф. Дисс... канд. пед. наук.- Киев,1984.-22 с.

41. Волков В.М. Тренеру о подростке.- М.:ФИС.1973.-124 с.
42. Волков В.Н. Поляков В.Н. По месту жительства // физическая культура в школе.-1978.с 24.
43. Волков Л.В. Обучение и воспитание юного спортсмена: Методические рекомендации.-Киев: Здоровья. 1984.-64 с.
44. Газиев Э. Туляганова М. Трудные подростки. – Ташкент. Ёш гвардия. 1989. – 46 с.
45. Ерошенко.И.Н. Работа клубных учреждений с детьми и подростками. – М. 1982.-88 с.
46. Zaripov K.Z. “Ta’lim-tarbiyada qur’oni karim va hadislardan foydalanish.” Vuxoro 1997y.
47. Зотов Ю.И. Воспитание и перевоспитание педагогически запущенных подростков в процессе спортивной деятельности: Автореф. Дисс...канд. пед. наук.- М.1986.-18- с.
48. Зотов Ю.И. Воспитание подростков в спортивном коллективе.- М.:ФИС. 1984.-102 с.
49. K..Hoshimov O.Nishonova M. Imomova R. Hasanov “Pedagogika tarixi ” Toshkent “O’qituvchi”1996 yil
50. Кошбахтиев И.А. «Основы оздоровительной физкультуры молодежи», Т., 1994.
51. Кушков Г.И. Воспитание и перевоспитание трудных подростков в процессе занятий спортом: Автореф. Дисс... канд. пед. наук. – М.1978.-21 с.
52. Кадиров С. Проблемы организаций педагогического воздействия на трудных подростков в системе общественного воспитания:Автореф. дисс... док.пед.наук.- Алма-Ата. 1990.-35 с.
53. Казанцев В.Н. Особенности воспитания педагогически запущенных детей в специализированной спортивной школе. -Иркутск.1983.-68 с.

54. Карпова М.В. Условия профилактики педагогической запущенности школьников подросткового возраста.- Волгоград 1982.-63 с.
55. Кацук Л.М. Формирование коллективных межличностных отношений трудновоспитуемых подростков в спортивной деятельности: Автореф. Дисс...канд.пед.наук.-М.1983.-18 с.
56. Киралюк Л.Г. Диагностика эффективности процесса нравственного воспитания подростков: Автореф. дисс... канд.пед.наук. М. 1986.- 18. С.
57. Mahmudov M. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba. // «Pedagogik mahorat», 2002 y, 4-son, 6-10 b.b.
58. Островский А.И. Профилактика правонарушений школьников.-Ташкент: Укитувчи. 1979. – 188 с.
59. Рихсиева О.А. «Абу Али ибн Сино о роли физических упражнений в сохранении здоровья человека», Т., «Ўқитувчи», 1982.
60. Саркизов-Сиразини И.Н. «Тансиҳатлик — туман бойлик», Т., «Медицина», 1966.
61. Юлдашев Х.К. Концепция о сотрудничестве махалли, школы и семьи о воспитании подрастающего поколение независимого Узбекистана.-Ташкент.1993.-10 с.
62. Юлдашев Х.К. Управления процессом социально – педагогической профилактики правонарушений несовершеннолетних в системе народного образования: Автореф.дисс... д. пед. наук.-Ташкент.1995.44 с.


**Namunaviy yashash joylarda bolalar va tarbiyasi «og'ir»
o'smirlarni nazorat etish jadvalsi**



Yashash joylarda jismoniy tarbiya va sport kengashi ishlarini tashkil etish tarkibi



Yashash joylarda bolalar va o'smirlar klublari tashkil etish namunaviy tarkibi



MUNDARIJA

Kirish.....	3
Muammoli oilada bola tarbiyasi.....	6
Voyaga etmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish chora- tadbiri	10
O'quvchilarni qayta tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.....	13
O'smirlarda agressiv xulq-atvorga xos faoliyat motivlari	15
O'smirlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etishda hamkorlikning o'rni	18
Voyaga etmaganlar nazoratsizligi va qarovsizligini oldini olishda uzluksiz ta'lim muassasalari, oila hamda mahallaning o'rni	25
Yoshlar tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning ahamiyati	30
Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyaning uzviy bog'liqligi.....	35
Global tarmoqning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ta'siri	40
Oilaviy muhitning bola tarbiyasiga ta'siri	45
Barkamol avlodni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi	48
Bola tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olish muammolari	51
O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizoli holatlarni bartaraf etishning psixologik omillari	57
"Bema'ni" bolalar yoxud e'tibor talab o'quvchilar	59
Bolalar jismoniy tayyorgarligi harakat faolligining asoslari	66
Barkamol avlod tarbiyasida oilaning o'rni.....	74
Ota-onalarning tarbiyachilik madaniyati – sog'lom bola tarbiyasining asosi	81
Pedagogik qarovsizlikni bartaraf etishda tarbiyachining kasbiy faoliyati	84
Bola tarbiyasida muhitning o'rni	89
Voyaga etmaganlar nazoratsizligini oldini olishning ayrim pedagogik-psixologik jihatlari.....	97
Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda mahallaning o'rni..	101
Voyaga etmagan bolalarda o'g'irlik qilish sabablari va ularni oldini olish	104

Bola huquqlarini ta'minlashda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi	107
O'smirlik yoshida tarbiya jarayonini hisobga olish	115
Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish muammosi....	117
Sog'lom bola tarbiyasida oilaning o'rni	121
Bolalar tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi.....	125
Bola tarbiyasida ota-onaning burchlari.....	127
O'smirlar o'rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etishda hamkorlikning o'rni	129
Tarbiyasi "og'ir" o'smirlarni oilada tarbiyalash muammolari	136
O'smirning pedagogik qarovsizligini oldini olishda pedagogning o'rni.....	145
Xulosa.....	166
Foydalanilgan adabiyotlar.....	174

Muharrir:

G`.Murodov

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

A.Qalandarov

Sahifalovchi:

M.Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 08.06.2020. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 11,5. Adadi 100. Buyurtma №77.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi

“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45



Абдуллаев Шухрат Джуматурдиевич - 1965 йил Бухоро шаҳрида зиёли оиласида туғилган. Маълумоти олий, 1972 йил Бухоро шаҳридаги 14-сон ўрта мактабда, 1980-1983 йиллар давомида Бухоро шаҳридаги 73-сонли ҳунар-техника билим юртида таҳсил олган. 1983-1985 йилларда армия сафида хизмат қилган. 1985-1986 йилларда Бухоро шаҳридаги “Ватанпарвар” ташкилотида ҳайдовчиликка ўргатиш бўйича мураббий бўлиб ишлаган.

Самбо ва Дзю-до кураши бўйича 1980-1983 ва 1986-1990 йилларда вилоят мусобақаларида 1-ўрин ва Республика мусобақаларида фахрли ўринларни эгалаган. 1982 йил Украинанинг Херсон шаҳрида Бутинитифоқ турнирида 3-ўринни Россиянинг Ярославь шаҳрида Бутинитифоқ турнирида 3-ўринни эгалаган. Республика “Буривестник” жамоаси мусобақаларида 1982-1983 уч карра совринли ўринларни эгалаган. Ҳозирги кунда миллий кураш бўйича Республика тоифасидаги хакам.

Бўлажак олим 1986-1990 йилларда Бухоро давлат педагогика институти бошланғич ҳарбий таълим ва жисмоний тарбия факультетини тамомлаган. 1990-1992 йилларда Бухоро давлат педагогика институти факультетлараро жисмоний тарбия кафедраси ўқитувчиси лавозимида ишлаган. 1992-1995 йилларда Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети кундузги аспирантурада ўқиган. 1995 йил номзодлик диссертацияси ясини муффақиятли ҳимоя қилиб, педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олган.

Ҳозирги кунга қадар ҳалқаро ва республика миқёсидаги илмий –амалий анжуманларда 100 дан зиёд илмий мақолалар ва тезислари билдан иштирок этиб келмоқда, шу билан бирга 4 та ўвув-услубий ва 4та услубий қўлланмалар муаллифи.” Тарбияси оғир ўсмирларни тарбиялашда миллий ҳаракатли ўйинларнинг педагогик–психологик тизими” мавзусида докторлик диссертацияси устида илмий изланишлар олиб бормоқда.

1995 йилдан шу кунга қадар Бухоро давлат университети Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедрасида фаолият олиб бориб, ёшларга келажакда буюк инсон бўлиб етишишларига ўз ҳисасини қўшиб келмоқда.